

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI
VAZIRLIGI

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI

B.Z.NOSIROV, D.T.ISLOMOVA, A.A.ERGASHEV,
I.I.ERGASHEV

TURIZMDA INNOVATSIYALAR

FANIDAN

O'QUV – USLUBIY
MAJMUA

Andijon – 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI
VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
q.x.f.f.d. _____ M.M.Atajanov**

2021 yil “_____” _____

**TURIZMDA INNOVATSIYALAR
FANIDAN**

**O'QUV –USLUBIY
MAJMUA**

Bilim sohasi: 1000 000 – Xizmatlar

Ta’lim sohasi: 1010 000 – Xizmat ko‘rsatish sohasi

Ta’lim yo‘nalishi: 61010400 – Turizm (agroturizm)

Andijon - 2021

© *B.Z.Nosirov, D.Islomova, A.A.Ergashev, I.I.Ergashev* “*Turizmda innovatsiyalar*” fanidan o‘quv – uslubiy majmua. Andijon- 2021, ___ - bet

«TAVSIYA ETILGAN»

« Qishloq xo’jalik iqtisodiyoti va menejment » fanidan o‘quv-uslubiy majmua “Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti” kafedrasida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (Kafedra majlisining 2021 yil 25- avgustdagи 1-sonli bayonnomasi)

Kafedra mudiri

O.Shermatov

«MA’QULLANGAN»

O‘quv-uslubiy majmua «Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot» fakulteti Kengashi majlisida muhokama qilingan va ma’qullangan. (Fakultet kengashi majlisining 2021 yil _____ gi ____ -sonli bayonnomasi)

Kengash raisi

S.T.Iskandarov

Taqrizchilar:

V.Abduraxmonov - Andijon qishloq xo’jaligi va agrotehnologiyalar instituti, Agrobiznes va marketing kafedrasi dotsenti, i.f.n

G.Bazarova – Andijon Mashinasozlik instituti, Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, i.f.n

MUNDARIJA

| | | |
|-----|----------------------------------------|--|
| I | NAZARIY MATERIALLAR. | |
| | SEMINAR MASHG'ULOT MATERIALLARI | |
| II | MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI | |
| III | GLOSSARIYLAR | |
| IV | ILOVALAR | |
| | FAN DASTURI | |
| | FAN SILLABUSI | |
| | TARQATMA MATERIALLAR | |
| | TESTLAR | |
| | KEYSLAR BANKI | |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | |

**MAVZULAR BO‘YICHA MATN ANNOTATSIYASI VA OXIRGI
YANGILIKLAR**

MAJMUANING QISQACHA ANNOTATSIYASI

O‘quv-uslubiy majmua – Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti bakalavriat ta’lim bosqichilarining O‘quv rejalarida aks etgan fanlar bo‘yicha professor-o‘qituvchining dars jarayoniga o‘quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi eng muhim mezon, me’yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – avvalombor fanning o‘qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlaama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda yetkazish (talaba uchun – o‘zlashtirish) uchun yagona o‘quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

O‘quv-uslubiy majmua Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u jumladan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- *fanning me’yoriy-uslubiy ta’minoti,*
- *fanning mazmuni va axborot-resurs ta’minoti,*
- *fanni o‘qitishning interaktiv texnologiyalari,*
- *talabalarning bilimini baholash uslubiyoti,*
- *qo‘sishimcha elektron ta’lim resurslarini* o‘z ichiga olgan.

Ilg‘or xorijiy tajriba bilan uzviylik.

Mazkur majmua ilg‘or xorijiy tajribani keng o‘rganish, umumlashtirish va undan ta’lim va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 may qarorida oliy o‘quv yurtlari “jahoning rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi universitetlarva oliy o‘quv yurtlari bilan qalin hamkorlik doirasida keng ko‘lamda ishtirok etgan holda 2016/2017 o‘quv yili boshlangunga qadar barcha o‘quv rejalarini va dasturlari tubdan qayta ishlab chiqilishini nihoyasiga yetkazishni ta’minlasin, fanlarni o‘qitishning eskirgan, umrini o‘tab bo‘lgan yondashuv va uslublaridan batamom voz kechishni, bakalavriat va magistraturada jahon fani va ilg‘or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga asoslangan yangi o‘quv rejalarini va dasturlarini joriy etishni, shuningdek, ta’lim jarayonida ularni amalga oshirish hamda oliy ma’lumotli

mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish uchun ... yetakchi xorijiy olimlar va o‘qituvchilarni jalg etishni nazarda tutsin”¹ deb alohida ta’kidlangan.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ta’lim va tadqiqotlarning mazkur axborot-resurs manbaini ishlab chiqishda Dankin Universiteti, Massachusetts Texnologiya instituti va Nyu-York Davlat Universiteti (AQSH), Oksford Universiteti, Bat Universiteti va London Metropolitan Universiteti (Buyuk Britaniya), Bremerxafen Universiteti (Germaniya), Vaseda Universiteti (Yaponiya), Kemyong Universiteti (Koreya Respublikasi), SHanxay Universiteti (XXR) va boshqa yetakchi xorijiy universitetlar boy ijobiy tajribasidan samarali foydalanildi.

Majmuani takomillashtirish masalalari.

Elektron o‘quv-uslubiy majmua o‘quv yili mobaynida xalqaro va milliy iqtisodiyot tizimidagi o‘zgarishlar va tendentsiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o‘quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

“Turizmda innovatsiyalar” fani o‘z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ***birinchidan***, xo‘jalik faoliyatini yuritishning ilg‘or shakllarini qo‘llashni, xorijiy turistlarni jalg qilish uchun barcha zarur shart - sharoitlarni yaratishni;
- ***ikkinchidan***, xorijiy turistlarni jalg qilish uchun barcha zarur shart - sharoitlarni yaratishni, xususan, qonunchilik bazasini takomillashtirishni;
- ***uchinchidan***, turizm bozorini shakllantirish bo‘yicha maqsadli siyosat yurgazishni;
- ***to‘rtinchidan***, O‘zbekiston Respublikasining turizmni rivojlantirish siyosatining mohiyatini ***bilishi kerak***;
- ***beshinchidan***, turizm sohasida turli mulkchilik shaklidagi firmalarni va korxonalarni tashkil etishni, turistik mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif omillarini bilishi kerak;

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 26 майдаги “2016/2017 ўкув йилида Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида ўқишига кабул қилиш тўғрисида”ти карори. “Халқ сўзи” газетаси, 2016 йил 27 май, №103 (6538). Б. 1

SHuningdek, “**Turizmda innovatsiyalar**” fani fundamental fanlardan biri bo‘lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qqladi.

1-MAVZU. TURIZMDA INNOVATSIYALAR FANINING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning amaliy asoslari

1.2. Iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmning ta’sir doirasi

1.3. Buyuk Ipak yo‘li va unda turizmni rivojlantirishning ahamiyati

1.1. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning amaliy asoslari Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida turizmnинг milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta’kidlanishicha mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta’sir ko‘rsatadi. U mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta’minalash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko‘rsatadi. Biroq har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy ahamiyatini yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanishi mumkin. Agarda davlat kasbiy tayyorgarlik masalalari, tabiiy va madaniy muhitni muhofaza etish, axborot - reklama ishlari va rasmiyatichilikni soddallashtirish kabilar bilan shug‘ullanmasa, u holda turizm kutilganidek, rivojlanish darajasiga erisha olmaydi. Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, iqtisodiy tartibga soliq usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruв tizimlarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasiga Sobiq Ittifoq davridanoq asos qo‘yilgan edi. Biroq, bu sohadan keladigan daromadlarning qayta taqsimlanish muammosi odatdagidek markaz tomonidan haletilardi. 1985-89 - yillarda O‘zbekistondagi ichki va hududiy turizmning hajmi 1,4-1,6 mln. kishini, bunda chet elliq turistlarning

miqdori atigi 130-180 ming kishini tashkil etardi xolos. Bu vaqtga kelib, ya’ni 1985 yilda Turkiyada 1,5 mln. 1992 - yilda esa 7 mln. 2003 yilda esa 11 mln. atrofida xorijiy turistlar tashrif buyurishdi. 1981 - yilda Veng riya 14,2 mln. turistlarni qabul qilgan bo‘lsa, 1991 yilga kelib bu miqdor 19,1 mln ga etdi 1992 - yilda O‘zbekistonning turistik sohasi chet yellik turistlarga faqatgina 27 ta, 2008 - yilda esa 50 dan ortiq xizmat to‘rini taklif etdi. Turkiya, Italiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 250-400 ni tashkil etadi. Mamlakatimiz mustakillikka erishgandan so‘ng Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan turizmni rivojlantirish ustuvor masalaga aylandi. Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlanishini beshta bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich (o‘z ichiga 1992 - yilni oladi). Ushbu bosqich respublikamizda milliy turizmnинг dastlabki shakllantirilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda turizm infratuzilmasida yetakchi isoblangan “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasiga asos solindi.

Ikkinci bosqich (1993-1995 - yillar). Bunda turizmnинг milliy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu bosqich turistik xizmatlar ko‘rsatish hajmining oshib borishi bilan birgalikda yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish, xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, turizmnинг moddiy-texnika bazasini keng aytirish, boshqaruvning tashkiliy tizimini takomillashtirish va boshqa shu kabi vazifalar bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muammolarni yuzaga keltirdiki, ularni faqatgina “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi doirasida xal etish imkonini bo‘lmay holdi. Kompaniya turistik operatorlar bilan to‘ridan-to‘ri aloqa qilish maqsadida Germaniya (Frankfurt-Mayn), Angliya (London), AQSH (N’yu-York), Birlashgan Arab amirliklari (SHarja) va Rossiya (Moskva) kabi mamlakatlarda o‘zining vakolatxonalarini ochdi.

Uchinchi bosqich (1995-1997 - yillar). Bunda turistik xizmatlar sohasida xususiy lashtirish jarayoni boshlandi. 1996 yilning boshlarida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tizimidagi turistik obektlar umumiy miqdorining 90% ga ya’ni davlat tasarrufidan chikarildi.

To‘rtinchi bosqich (o‘z ichiga 1998 - yilni oladi). Bu bosqichda yeksport saloxiyatini oshirish, valyuta, turistlar, investitsiyalarning barqaroroqimini ta’minlash uchun imkoniyat yaratildi. Respublikada milliy turizmni jahon andozalari darajasida shakllantirish, turizmga bilvosita tegishli bo‘lgan xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini, xususan, turistlarni xorijdan kutib oladigan chegara, bojxona va aeroport xizmatlarini qayta shakllantirish boshlandi.

Beshinchi bosqich (1999 - yil maydan keyingi davrlar). Ushbu bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turizmni rivojlantirishning davlat dasturi to‘risidagi» Farmoni nafaat mamlakatdagi milliy va xalqaro turizmning tutgan o‘rnini mustahkamlash uchun siyosiy asosni shakllantirdi, balki uning iqtisodiy asoslarini mustahamlash imkoniyatini berdi. Ushbu me’yoriy hujjat asosida turistik korxonalariga qo‘srimcha boj imtiyozlari berildi. Bundan tashari, O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarida turizm bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. Ushbu yilning avgust oyida mamlakat Parlamentida “Turizm to‘risida”gi qonun qabul qilindi va buning natijasida turizm sohasini faoliyat ko‘rsatishining huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi.

SHu bilan birga milliy turizm sohasini yanada takomillashtirish maqsadida 2006 yil 18 aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. SHunga asosan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohalaridan biri bo‘lgan turizmni yanada rivojlantirish va ushbu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash va ularni milliy g‘oya va merosimizni puxta biladigan qilib tayyorlash muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

1.2. Iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmning ta’sir doirasi

Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va servis sohasi rivojlanishiga mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat siyosatining muhimyo‘nalishi sifatida qaralmokda.

YUrtimizda xizmatlarning yangi istiqbolli turlari turizm, bank, moliya, sug‘urta, axborot- kommunikatsiya va boshqa xizmatlarni rivojlantirish hisobidan xizmatlar

bozori takomillashib bormoqda. Oilalarni murakkab maishiy texnika, kompyuter va shaxsiy avtotransport bilan ta'minlashni keskin oshirish ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning tobora kupayishiga imkon yaratdi. SHu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining mazkur yo'naliishga taallukli Qonun va kodekslari, Prezidentimizning turizmga oid qator farmonlari ishlab chiqilib, xayotga tadbiq etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Karorida qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal va muvozanatlashgan tarzda rivojlantirish, qishloq aholisining zamonaviy yuqori texnologik va bozor xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlarini keng aytirish, buning asosida yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlari oshirilishini ta'minlash maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, jumladan, xizmat ko'rsatish va servis sohasi ob'ektlarini barpo etish uchun qishloq aholi punktlaridagi davlat mulki bo'lgan va foydalanilmayotgan binolar va xonalarni tadbirkorlik sub'ektlariga berishni, «YAgona darcha» tartibi bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlarini barpo etish uchun tadbirkorlik sub'ektlariga yer uchastkalari ajratib berilishini va bunda hududlarni ko'rishning bosh rejalariga muvofik loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda ko'maklashishni tezlashtirilgan holda xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlarini muxandislik kommunikatsiyalariga hamda ishlab chiqarish infratuzilmasiga ulashni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

SHuningdek, qishloq joylardagi davlat mulki bo'lgan foydalanilmayotgan binolar va xonalar xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi korxonalar hamda ob'ektlarni tashkil etish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga berilishini, ekologik, tibbiy- sohlomlashtirish, sport turizmi, shuningdek, yakka tartibdagi qishloq mehmonxona uylari negizida agroturizmni o'z ichiga olgan zamonaviy turistik xizmatlar turlarini ustuvor rivojlantirish zonalarini belgilash asosida ushbu sohani yanada rivojlantirishni, turistlarga servis xizmati ko'rsatish uchun yo'l quyidagi infratuzilma ob'ektlarining sifatli qurilishi ta'minlanishi va boshqa bir qator tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasining jadal rivojlanishi taminlandi. Pullik xizmatlar hajmi 10,8 foizga, chakana tovharaylanmasi 15 foizdan ziyodga o'sdi. YAlpi ichki mahsulotda xizmatlar cohaci ulushi 2010 yildagi 49 foiz o'rniga 54,5 foizga yetdi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2015 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'rzasida: «Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010 yildagi 49 foizdan 54,5 foizga yetdi. Jami band aholining yarmidan ko'pi ushbu sohada mehnat qilmoqda. Bank, sug'urta, lizing, konsalting va boshqa turdag'i bozor xizmatlari barqaror sur'atlar bilan rivojlanmoda, ular xususiy sektor va kichik biznes rivojiga xizmat qilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida 80 ming 400 ta kichik biznes sub'ekti faoliyat yuritmoqda va bu xizmat ko'rsatish korxonalari umumiy sonining 80 foizdan ortiqini tashkil qiladi»deb, mazkur soha mamlakatimiz iqtisodiy hayotidagina emas, balki ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida ham qanchalar muhimo'rin tutishiga e'tibor qaratdi.

1.3. Buyuk Ipak yo'li va unda turizmni rivojlanirishning ahamiyati

Zamonaviy turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil harbir qancha bo'lib, Hozirgi vaqtda butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohalaridan biri xususan zamonaviy turizm sohasiga katta e'tibor kuchayib bormoqda. Insonlar borgan sari o'zlarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga, milliy urf odatlarni o'rganishga, dam olishga, sohligini tiklashga, qadriyatlarini bilishga intilmoqda. Bunday barcha xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Bundan tashqari, insoniyat hardoim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. 20 asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va zamonaviy turizm industriyasining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning haryillik o'sish sur'ati 8-10 % gacha boradi. Bu davlatlarga Ispaniya, Italiya, Frantsiya, AQSH va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Shunisi qiziqki zamonaviy turizmning rivojlanishi bilan bir qatorda transport, bozor infrastrukturasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari,

qurilish, hunarmandchilik hamda boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanib ketdi Respublikamiz turizm sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega.

Bularga «Buyuk Ipak Yo‘li»ning shoh tomiri respublikamizdan o‘tganligi, butun dunyoga mashhur tarixiy va milliy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Qo‘kon, Toshkent va boshqa shaharlar, tabiiy va sog‘lomlashtirish resurslariga boy mintaqalarimiz Chimyon, Shoximardon, Zomin, Boysun, SHerobod va boshqa shaharlarlar kiradi. Hozirgi kunga kelib, O‘zbekistonda zamonaviy turizmning rivojlantirish uchun asos solindi deb hisoblasa bo‘ladi. Bunga dalil sifatida 1999 yil 20 avgustda O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi hisoblanadi. Qonunning maqsadi, zamonaviy turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soliq, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek turistlar huquqlarini va Qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Yana bir dalil, bu «Buyuk Ipak Yo‘li» ni qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining faol qatnashishi va respublikada xalqaro turizmning rivojlantirish to‘g‘risida» gi farmonining Prezidentimiz tomonidan qabul qilinishidir. Bu farmona binoan turistik korxonalar bir qator soliq imtiyozlarga ega bo‘lishdi. Bu farmon «Buyuk Ipak Yo‘li»da joylashgan tarixiy va zamonaviy shaharlarda turistik yo‘nalishlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ming yillar davomida «Buyuk Ipak Yo‘li» Osiyo va yevropa xalqlarini birlashtirishning turg‘un ahamiyatli va samarali usuli hisoblanib kelgan. Xuddi shu yo‘l bo‘ylab tovarlar, bilimlar, texnologiyalar, madaniyatlar almashuvi amalga oshirilgan, natijada shaharlarning, davlatlarning rivojlanishiga ko‘maklashib kelgan. Xattoki, hozirgi vaqtida bu yo‘l insoniyatga qanday global ahamiyatga ega bo‘lganligini baholash qiyin. ammo, o‘zining faoliyatini tugatgandan keyin ham unga qiziqish yo‘holib ketmadi. Ayniqsa, transport va axborot aloqalarining, sanoat ishlab chiqarishning, tovar va xizmatlaring savdosini hamda Osiyo va yevropa regionlarining integratsiya protseslariga faol qatnashuvi «Buyuk Ipak Yo‘li»ning «ikkinchi nafasi»ni olganini ko‘rish mumkin.

«Buyuk Ipak Yo‘li»da xalqaro hamkorliknirivojlantirishning bir ko‘rinishi bo‘lib, Janubiy-SHariqiy Osiyonidagi yevropa bilan bog‘lab turadigan global Transosiyo

transport liniyani shakllantirish hisoblanadi. U o‘z ichiga Yaponiya, Xitoy, Xindiston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Kavkaz davlatlari, G‘arbiy Osiyo (Pokiston, Eron) davlatlari va albatta, yevropa davlatlarini hamrab oladi. E’tiborga olish kerakki TRASEKA loyixasi doirasida «Delfin» izlanishi o‘tmoqda.. Bu izlanishning mazmuni karvon - saroylarini tashkil qilishning texnik-iqtisodiyasoslanishi, ekspertlarning fikriga ko‘ra, bu «Buyuk Ipak Yo‘li»ning rivojlanishiga va xalqaro hamkorlikning samarali natija berishiga yordam beradi, chunki O‘zbekiston va Turkmanistonning asosiy yo‘nalishlarida yoqilgi stantsiyalari, turar joylar, ovqatlanish punktlari va telekommunikatsiya zonalarining qurilishi yangi turistik zonalarni shakllanishiga hamda turistik avtotransportning paydo bo‘lishiga olib keldi. 2002 yili Respublikamiz prezidenti I.A.Karimovning Ispaniyaga tashrifi maboynda Butunjahon Turizm Tashkiloti raxbari Franchesko Francheyzor bilan o‘tkazilgan muloqatida O‘zbekistonning zamонавиј туризмida xalqaro turizm rivojlanishining ahamiyati, turistik tashkilotlar bilan olib borayotgan xalqaro hamkorligi, faoliyati, turistik tashkilotlarga ko‘rsatilayotgan keng imtiyozlar va shart-sharoitlar haqida bat afsil suhbatlashdilar.

Butunjahon Turistik Tashkiloti ekspertlari «Buyuk Ipak Yo‘li»da qatnashishiga qarab, qatnashuvchi davlatni 3 qismga ajratgan. Birinchi qismga o‘ziga xos turizm zamонавиј modelini shakllantira boshlagan O‘rtta Osiy va Kavkaz davlatlari kirgan. Bu yo‘nalishda Butunjahon Turistik Tashkiloti asosiy masala qilib turg‘un rivojlanish dasto‘rini tuzishda, turistik tarmoqqa investitsiyani jalb qilishda, Qonunchilikni ishlab chiqishda va kadrlarni tayyorlashda ko‘maklashishi hisoblanadi. Ikkinci qismga «Buyuk Ipak Yo‘li» ob’ektlarini o‘z ichiga olgan va turistik mahsuloti bilan aniq tajribaga ega bo‘lgan davlatlar kiradi. Bular Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron, Gretsya va Turkiyalardir. BTT ning ekspertlari fikriga ko‘ra bu yerda xalqaro tashkilot «Buyuk Ipak Yo‘li» nomli turistik mahsulotning sotilishini rag‘batlantirishi mumkin. Uchinchi qism esa, qadimgi aloqaning oxirgi nuqtalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bularga bir tomonidan Yaponiya, Koreya, ASEAN davlatlari kiradi. Bu yerda Butunjahon Turistik Tashkilotining vazifasi «Buyuk Ipak Yo‘li»ni targ‘ibot qilish deb hisoblanadi, chunki bu davlatlar nafaqat katta turistik oqimni ta’minlaydi, balki

bu yo‘l bo‘ylab turizm uchun yetakchi bozorlar hisoblanadi. «Buyuk Ipak Yo‘li» zamonaviy turizm mahsulotini mavqeini ko‘tarilishi uchun albatta fundamental asos bo‘lishi kerak. Uni sotish uchun barcha davlatlarning faol hamkorligi kerak. Bu yerda xususiy sektor va davlat sektori, xalqaro va ratsional tashkilotlar, alohida turoperatorlar va mehmonxona komplekslari munosabatisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Butunjahon Turistik Tashkilotining «Buyuk Ipak Yo‘li» loyihasi bo‘yicha keyingi yig‘ilishi Xitoyda 1996 yilda bo‘lib o‘tdi, bunda mahsulotning marketingiga oid masalalar ko‘rib chiqildi. «Buyuk Ipak Yo‘li»da turizm bo‘yicha ikkinchi anjuman ham ahamiyatli bo‘lib o‘tdi. Ekspertlar fikriga ko‘ra bu yerda «Buyuk Ipak Yo‘li»ning asosiy turistik resurslari: diqqatga sazovor joylar, zamonaviy va tarixiy ob’ektlar, joylashtirish vositalari, transport va axborot markazlari shakllandi. Bu tadbirdardan keyin ushbu loyixa rivojlana boshladi.

Buyuk Ipak yo‘llining tarixiy arealida joylashgan mamlakatlar milliy turizm tashkilotning faoliyatini muvofiqlantirish maqsadida 2004 y Samarqandda YUNVTOning Mintaqaviy ofisi tashkil topgan. Bunda quyidagi masalalar shakllandi: «Buyuk Ipak Yo‘li»ning regionlarini xalqaro targ‘ibot qilish, bu turistik ma’lumotni reklama qilishchun global axborot kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish va O‘zbekiston turistik brendini ishlab chiqishda ishtiroy etish.

1994 yilda boshlab Butunjahon Turistik Tashkiloti «Buyuk ipak yo‘li» loyihasini barcha yirik xalqaro yarmarkalarda faol targ‘ibot qila boshladi. Butunjahon Turistik Tashkilotining bashoratlariga ko‘ra 2020 yilga kelib dunyoning asosiy turistik yo‘nalishlari bo‘lib Xitoy hisoblanadi. Bu davlat Hozirgi kunda 22 mln. turist qabul qila olishligi bilan oltinchi o‘rinni egallaydi va o‘rtacha yillik 8 foizli o‘sish bilan Xitoya keladigan turistlarning soni 137 mln.ga, Gonkongga esa 59 mln. kishiga yetib, birinchi o‘rinni egallaydi. Bundan kelib chikib, «Buyuk Ipak Yo‘li» loyihasiga ishtiroychilarining oldida turistik mahsulotni shakllantirishda bu davlatlarni hisobga olish masalasi turibdi, masalan, Germaniya-O‘zbekiston-Xitoy, Frantsiya-O‘zbekiston-Gonkong va boshqalar. Turistlarning yillik xarajatlari 5 mlrd. dollarga etish ini hisobga olsa, O‘zbekiston ham bu valyutaning ayrim qismini shakllantirishga va o‘zlashtirishga imkoniyati bor. CHunki «Buyuk Ipak Yo‘li»

bo‘ylab Xitoyga sayohat qiluvchi turistlarning asosiy qismi Respublikamiz orqali harakat qiladi. Bu degani xorijiy turistlarning mamlakatimizdagi turistik ob’ektlardan va transport vositalaridan foydalanganliklari uchun ma’lum bir valyutaning davlat byudjetiga tushishini ta’minlaydi. SHuning uchun ham xorijiy turistlar uchun «Buyuk Ipak Yo‘li» bo‘ylab transport (tranzit) yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu masalada zamonaviy bilim qabul qilishga qaratilgan turizm eng katta qiziqish tug‘diradi. Masalan, 2009 yilda O‘zbekistonga 850 mingga yaqin tashrif qiluvchilar keldi, bulardan 7,5 foizi turistik maqsadlar bilan, 73,5 foizi xususiy viza bo‘yicha, kolgan 20 foizi boshqa turli xil maqsadlarda qilganlar. O‘zbekiston hayotida bo‘lib o‘tayotgan zhamonaviy tadbirlar, masalan, allomalarining va shaharlarning tantanalari nafaqat musulmon davlatlari, balki yevropa va boshqa davlatlarni keng qayd qilib, «Buyuk ipak yo‘li»ni va taklif qilinayotgan mahsulotni yangi ahamiyatga ko‘tardi. Prezidentimiz raknamonligida mamlakatimizda istiqlol yillirida turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshiralaetgan keng ko‘lamli istilohatlar yuksak ijobiy natija bermoqda. “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasidan ma’lum qilishlaricha, mamlakatimizda sayyoohlarga xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar, operatorlar safi tobora keng ayib bormoqda. Bugungi kunda 865 sayyoqlik tashkiloti, jumladan, 374 ta mehmonxona faoliyat yuritmoqda. 2012 yilda sayyoqlar tashrifi 2011 yilga nisbatan 17,5 foiz, ularga xizmat ko‘rsatishdan tushgan daromadlar 15 foiz o‘sgan.

Nazorat savollari

1. Turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari nimaq
2. Turizmnинг siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiyahamiyati nimalardan iboratk
3. Xalq xo‘jaligi tarmolarini rivojlantirishda turizmning ta’sir doirasi andayk
4. O‘zbekistonning qaysi mintaalaridan «Buyuk Ipak yo‘li»ning asosiy ismi kesib o‘tgank
5. Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab turizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad nimaq
6. O‘zbekistonda turizmning qaysi turlarini keng roq rivojlantirish mumkink
7. Tarixiy va madaniy turizm nimaq
8. Milliy turizmni rivojlantirish dasturi qachon qabul qilingank

2-MAVZU. TURIZMNING RIVOJLANISHIDA ASOSIY OMILLAR

2.1. O‘zbekistonning turistik resurslari.

2.2. Turizm iqtisodiyoti va menejmentiyotining statistik ma’lumotlari

2.3. Turistlarni O‘zbekistonga jalb qilishmuammolari va istiqbollari.

2.4. Turizmni rivojlantirishda hukumat va xususiy sektorlarning roli.

O‘tgan yili itstisodiyotimizni tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya silishni chutsurlashtirish, bandlikni ta’minlash, odam larimizning daromadi va hayot sifatini oshirishning muhimhamil va yo‘naliitaridan biri taritsasida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish borasidagi tizimli ishlarizchil davom ettirildi.

Islom Karimov

2.1. O‘zbekistonning turistik resurslari. Mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarkibidagi Jahan turizm tashkilotining to‘laqonli a’zosidir va e’tiborli tomoni shundaki, O‘zbekiston 2012 yildan buyon ushbu nufo‘zli tashkilotning Ijroiya qo‘mitasi ni boshqarib kelmokda.

«O‘zbekturizm» milliy kompaniyasi va bir qator turistik firmalar Yaponiya, Rossiya, Germaniya va yevropaning boshqa bir qancha mamlakatlari, SHartsiy Osiyodagi davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda va bu hamkorlikni keng aytirish borasida izchil ish olib bormoqda.

Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan xizmat ko‘rsatish industriya sohasi bo‘lib, unda ko‘rsatiladigan xizmatlar ham olish resurslari mavjud bo‘lgan hududlarga sayyoohlar tomonidan borib iste’mol qilinadi. Turizm mehnatni ko‘p talab qiladigan tarmoq sifatida nafaqat turizmda, balki sayohatchilar iste’mol qiladigan xilma-xil mahsulot va tovarlarni ishlab chiqaradigan sanoat, qishloq xujaligi hamda ularga xizmat ko‘rsatadigan transport va infratuzilma tarmoqlarida ham ko‘plab ish o‘rinlarini yaratishga, shuningdek, mamlakatga xorijiy valyuta tushumlarini kupaytirishga, shu asoslarda itstisodiy faoliyatni sezilarli keng aytirishga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston o‘zining g‘oyat xilma-xil va boy turistik resurslarga ega katta hududi, ko‘plab turistik talab va ehtiyojlarga ega kup sonli aholisi hamda turizm sohasi mustahkam asosga qo‘yilgan mamlakat sifatida alohida ajralib turadi. Global

nuqtai nazardan mamlakatimiz dunyo tekisliklarida ekologik optimum hisoblangan 40-parallel (40° shimoliy keng lik) yaqinida joylashgan (mazkur parallel Samarqand shahridan o‘tadi). Mamlakatimizning 21 foiz hududini egallaydigan tog‘ zonasida shunga mos ekologik optimal tog‘ muhiti va sharoiti mavjud bo‘lib, bu yerda past tog‘, o‘rta tog‘, baland tog‘ zonalari birin-ketin almashinadi. SHu sababdan mamlakatimizda yil fasllari normal almashinadi, bunday sharoit barcha fasllarda turistik xizmat ko‘rsatishni yil davomida o‘zluksiz amalga oshirishga imkon beradi.

Umuman mamlakatimizning yagona turistik makoni bir-biri bilan o‘zviy bog‘liq, ayni paytda o‘zaro katta farq qiladigan o‘ziga xos cho‘l (saxro), sug‘oriladigan tekislik zonasining vodiy va vohalari, tog‘ landshaftlari majmualaridan tarkib topgan bo‘lib, ular turli yo‘nalishdagi turizm o‘choqlari va markazlarini barpo etishga mustahkam tabiiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda xalqaro sayyohlikda innovatsion yo‘nalish sifatida jadal rivojlanayotgan ekologik turizm uchun mamlakatimizda g‘oyat qulay shart- sharoitlar va imkoniyatlар mavjudligini alohida ta’kidlash lozim. Ekologik turizm tabiat bilan kishilarning o‘zviy bog‘liqligi va bevosita muloqotini rivojlantirishga va tabiatda, xo‘zur-halovat, madad, quvvat, bilim, tashkil etuvchilarga esa katta daromad olishga, umuman, ekologik-itsxisodiy bartsarorlik va muvozanatni saqlagan holda faol ham olishga asoslanadi, an‘anaviy ko‘ngil ochish, maishiy qulaylik (komfort) esa ikkinchi o‘ringa tushadi. Unda yuqori darajada kimmatbaho xizmat ko‘rsatadigan mehmonxonalar o‘rmini oddiy chodir, uy-mehmonxona va kempinglar, tabiat qo‘ynida dam olish, sayohat egallaydi.

Mamlakatimizda ko‘plab tarixiy-madaniy meros ob’ektlaridan tashqari sayyohlarni o‘ziga jalb qiladigan minglab tabiat - rekreatsiya - sohlomlashtirish ob’ektlari O‘zbekistonning g‘oyat katta turizm (birinchi navbatda ekologik turizm) imkoniyatlari mavjudligini kursatadi. Ularga sazovor ko‘plab g‘orlar, ajoyib shaklli soyalar, daralar, yer qatlamlari ochilib qolgan joylar, sharshara va shifobaxsh bo‘ltslar, katta yoshdagi ulkan daraxtlar, shuningdek, go‘zal, rang-barang, havo va suvi musaffo, tabiat shifobaxsh landshaftlar kiradi. Tabiatni muxofaza qilish davlat qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 17 mingdan ortiq tabiiy suv oqimlari, 51 ta suv ombori, 500 dan ortiq ko‘l, ko‘plab kanallar, 1500 ga yaqin katta bo‘loqlar,

525 ta tog‘ mo‘zliklari bor. Respublikamizda o‘simlik dunyosining 4100 turi, hayvonot olamida 97 turdag'i sut emizuvchi, 424 turdag'i sush, 58 turdag'i rentiliya va 83 turdag'i baliqlar mavjud. Mamlakat o‘rmon fondi maydoni 9,4 million gettarni tashkil etadi.

Turizmni rivojlantirishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning (METH,) turistik salohiyati va imkoniyatlaridan O‘zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi (2004) Qonuni talablariga muvofiq samarali foydalanish eng istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Mamlakatimizda METH,larning umumiyligi soni 28 ta bo‘lib, ular 23,3 ming km kv maydonni yoki mamlakatimiz hududining 5 foizdan ko‘progini egallaydi. METH,lar tarkibida 8 ta qo‘riqxona, 2 ta milliy bog‘, 3 ta tabiiy pitomniklar, 10 ta buyurtmaxona, 5 ta tabiat yodgorliklari mavjud. Istiqbolda yana umumiyligi maydoni 81,1 ming km² bo‘lgan 29 ta muhofaza etqiladigan tabiiy hududlar ob’ektlarini yangidan tashkil etish rejalashtirilmoqda (shu jumladan, 5 ta qo‘riqxona, 2 ta milliy bog‘, 11 ta buyurtmaxona, 2 ta biosfera rezervati va boshqalar).

Bulardan tashqari, katta maydonlarni egallaydigan muhofaza etiladigan landschaftlar (kurort tabiiy hududlari, rekreatsiya zonalari), ov xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi yerlari ham turizmda foydalanish uchun muhimahamiyatga ega.

2.2. Turizm iqtisodiyoti va menejmentining statistik ma'lumotlari

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash va bozor islohotlarini chuqurlashtirish jihatidan xizmatlarsohasi iqtisodiyo‘sishning muhim omiliga aylanmoqda. Xizmatlarni rivojlantirishni faollashtirishga tadbirkorlik tashabbuslarini yanada keng aytirish, yangi istiqbolli servis turlarini tezkor rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratqilgan Xizmat va servis sohasini rivojlantirish dasto‘rining qabul qilinishi va amalga oshirilishi muxim tayanch bo‘ldi.

Servis faoliyati, Dastur ijrosi davrida, 9 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha o‘sish sur’atlarini oshirish hisobiga iqtisodiyotning nisbatan istiqbolli va tez rivojlanuvchi tarmog‘iga aylandi. Avval asosan davlat tomonidan taqdim etiluvchi xizmatlarni hozirda iste’mol talabiga qaratilgan xususiy sektor korxonalari ko‘rsatadi. Natijada,

YAIMdagi xizmatlar ulushi 2000 yildagi 36,9 foizdan 2015 yilda 54,5 foizga oshdi. Yil yakunlari bo'yicha xizmat ko'rsatishning o'sish sur'atlari 116,6 foizni tashkil etib, xizmat ko'rsatish sohasining YAIMdagi ulushi muntazam ortmokda. Tarmoqning tarkibiy tuzilmasida o'zgarishlar ko'zatilmoqda, jumladan, transport xizmatlari, savdo va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari o'rni mustakkamlanmokda.

SHu bilan birga xizmatlar sohasining boshqa turlari bo'yicha ham ijobiy natijalar ko'zatilmoqda. Jumladan, moliyaviy xizmat turlari 133,9 foizni, qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash xizmatlari 124,6 foizni, texnologik jihozlarni ta'mirlash

foizni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 124,1 foizni, kompyuter dasturlash xizmatlari 121,6 foizni, qurilish xizmatlari 118,3 foizni, savdo va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari 117,5 foizni, turistik xizmatlar 116,0 foizni, sog'liqni saqlash xizmatlari 114,2 foizni tashkil etgan.

SHu bilan birga, Prezidentimiz ma'ro'zasida mamlakatimizda, Ayniqsa, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasida hali-beri foydalanilmayotgan katta rezerv va imkoniyatlar mavjudligini tan olishimiz hamda bunga alohida e'tibor qaratishimiz zarurligi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi tug'risida»gi Qarori mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasining yanada rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda xizmatlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan va bozor iktisodiyotiga xos bo'lgan turlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmokda. Prezidentimiz o'z ma'ro'zasida qayd etganidek, 2015 yilda, jumladan, xizmat ko'rsatish sohasini tezkor rivojlantirish hamda mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlar dasto'rini amalga oshirish hisobidan qariyb 1 millionta yangi ish o'rni tashkil etildi.

Xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, avvalambor, qishloq joylarda ko'rsatilayotgan xizmatlarning to'rini keng aytirish hamda sifatini yaxshilash va buning asnosida mamlakatimiz iktisodiyotini barqaror va jadal rivojlantirishda, aholining bandligini ta'minlash, daromadini ko'paytirish va farovonligini

yuksaltirishda xizmat ko‘rsatish sohasining roli xamda axamiyatini oshirish hozirgi kundagi dolzARB masalalardan biriga aylanmokda.

Ta’kidlash kerakki, 2012 yilda kqabul kilingan 2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi o‘z ichiga kuyidagilarni olgan:

2012 yilgacha mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 55 foizgacha oshirilishini nazarda tutadigan 2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy turlarini rivojlantirishning maksadli parametrlari;

2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasi mintakalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari;

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi maqsadli parhametrlarining belgilangan muddatlarda sifatli hamda to‘liq hajmda amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik tegishli davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralari, korxona va tashkilotlarning raxbarlari zimmasiga yuklangan.

SHuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Keng ashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimliklari, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan holda, quyidagilarni ishlab chiqdi:

2012-2016 yillarda xizmat ko‘rsatish sohasini shaharlar, tumanlar va xizmat turlari bo‘yicha rivojlantirishning hududiy dasturlari;

2012-2016 yillarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning hududiy das-turlarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning hududiy dasturlari va ularni amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda esa kuyidagilarga alohida ahamiyat berilgan:

xizmat ko‘rsatish sohasi tarkibini yanada takomillashtirish, aholi o‘rtasida talab katta bo‘lgan zamonaviy xizmat turlari bilan bozorni jadal rivojlantirish va to‘ldirish;

SHahar va qishloq aholi punktlari hududlarining qurilishini rejashtirishda, tasdiqlangan me’yorlardan kelib chiqqan holda, mintaqalar aholisiga turli ijtimoiy va

kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini keng aytirish;

birinchi navbatda qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasiga oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari hamda ixtisoslashgan kasb-xunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni keng jalg etish.

Ushbu dasturga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bankning O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha «Mikro-kreditbank» OATB mablag'lari xisobidan 2012-2016 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga yo'naltiriladigan imtiyozli kreditlar ajratilishi belgilangan. Ana shu kredit resurslarini asosan quyidagilarga yo'naltirish rejalashtirilgan:

ajratiladigan imtiyozli kredit resurslari xizmat ko'rsatish sohasining yangi ob'ektlarini barpo etishga, shuningdek, xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan amaldagi tadbirkorlik sub'ektlarini texnik va texnologik jixozlashga (qayta jihozlashga) maqsadli tarzda yo'naltiriladi;

imtiyozli kredit resurslarini olish uchun ustuvor huquq qishloq joylarda xizmat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga beriladi.

aloka va axborotlashtirish (mobil telefon alokasi xizmatlari, Internet tarmog'iga ulanishni ta'minlash, televizion kabel alokasi, pochta va elektr alokasi xizmatlarini kiritgan holda). Qabul kilingan dasturlarni amalga oshirish yillarida (2006-2015 y.) xizmatlar sohasining iqtisodiyotning boshka tarmoq va sohalariga nisbatan ilgarilovchi o'sish sur'ati ko'ratilgan. Bu davrda ishlab chiqariluvchi xizmatlar hajmi sanoat va qishloq xo'jaligidagi o'sishdan sezilarlicha ilgarilab, 3 barobarga oshdi. Xususan, 2015 yil yakunlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi 108 foiz va qishloq xo'jaligi - qariyb 107 foizni tashkil etdi. Ushbu sohaning tuzilmasi va sifat o'lchamlari savdo va umumiy ovkatlanish, transport, turarjoy-kommunal xizmatlar va maishiy xizmat singari tarmoqlarning ustunligi bilan tavsiflanadi. 2015 yilda xizmatlar sohasining o'sish sur'ati asosan an'anaviy xizmat turlari hisobidan (116,6 foiz) ta'minlandi.

Asosiy hissa transport xizmatlari (112,1 foiz), savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari (118,1 foiz)ga to‘g‘ri keladi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,4 foiz), moliya (130,0 foiz), turistik va mehmonxona xizmatlari (115,9 foiz) bo‘yicha xizmatlar nisbatan yuqori sur’atda rivojlandi.

Xizmatlar sohasining yangi innovatsion tarmoqlari YAIM tarkibidagi (YAIMning o‘rtacha 2-3 foizi) birmuncha kichik ulushga karamay, ilgarilovchi o‘sish yo‘nalishiga ega. Masalan, mobil telefon aloqasi xizmatlari, Internet tarmog‘i, televizion kabel aloqasi, pochta va elektr aloqasi xizmatlari so‘nggi 5 yilda tarkibiy o‘zgarishlar hisobiga bir necha barobarga o‘sib bormoqda.

Natijada, bozor xizmatlarining umumiy tarkibida an’anaviy transport xizmatlari ulushi (2009 yildagi 110,4 foizdan 2015 yilda 112,2 foizga) o‘sdi. SHu bilan birga, aloka va axborotlashtirish (2009 yildagi 121,6 foizdan 2015 yilda 115,4 foizga) kamaygan va moliya xizmatlari ulushi (2009 yildagi 124,7 foizdan 2015 yilda 130,0 foizga) oshgan.

2.3.Turistlarni O‘zbekistonga jalb qilish muammolari va istiqbollari.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, turizm taraqqiyoti uchun faqatgina jozibador maskanlar mavjud bo‘lishining o‘zi yetarli emas. Maxalliy turistik infratuzilmani ham yetarli rivojlantirish lozim, ya’ni hududda ichki turizmnинг ham o‘rni katta bo‘lib, undan daromad olish, maqalliy aholi talablarini qondirib, unga xizmat ko‘rsatish, aholining saviyasini oshirish, odamlarni ish o‘rinlari bilan ta’minlash imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Davlat amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tufayli O‘zbekiston yil sayin turizm o‘lkasiga aylanmoqda. Bu, o‘z navbatida, xalqaro aloqalarni rivojlantirish, xalqimizning boshqa millatlar bilan hamkorligini kuchaytirish imkonini bermoqda. O‘zaro hamkorlikning kuchayishi esa mamlakatimizga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hamda turistik xizmat eksportining o‘sishiga hissa qo‘shmoqda.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoklari doirasida uchinchi o‘rinni egallab kelmoqda. yevropaning rivojlangan davlatlari, jumladan, Frantsiya, SHveytsariya, Avstriya, Italiya, Ispaniya, Daniya, Germaniya, Finlyandiya, SHimoliy Amerika va boshqa mamlakatlarning fuqarolari muntazam ravishda

sayohat kilmokda va mamlakat daromadining asosiy qismi turistik faoliyat hisobiga amalga oshirilmoqda.

Dunyo bo‘yicha turistik xizmatlarning yetakchi eksportchilari sifatida Ispaniya, Frantsiya, Italiya, AQSH maydonga chiqayotgan bo‘lsa, importni amalga oshiruvchilar- Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya hisoblanadi. SHuningdek, ushbu mamlakatlar, xususan, Germaniya va AQSH xalaro turizm doirasida aktiv balansga ega, ichki turistik bozorda xizmatlar darajasi va narxining yukoriligi bilan xarakterlanadi.

Hozirgi vaqtda sayyohlik industriyasini jahon iqtisodiyotining eng serdaromad va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda uning ulushiga jahon yalpi mahsulotining 10 foizi, xizmatlar eksportining 30 foizi, dunyo ishchi kuchining 9 foizi, barcha investitsiyalarning 11 foizi, soliq tushumining 5 foizi, xizmatlar savdosining 33 foizi to‘g‘ri keladi, bu sohada 235 million kishi band bo‘lib, sayyohlik xizmatlaridan tushgan daromad hajmi trillion AQSH dollaridan oshib ketdi. Turizm eksporti dunyoda neft va avtomobil sanoatlaridan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi va ko‘plab mamlakatlarda valyuta tushumining muhim manbai hisoblanadi.

Ushbu raqamlar turizm jahon iktisodiyotining barqaror rivojlanishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport hajmini oshirish, xalaro munosabatlarni yaxshilashning eng muhim omillaridan biri ekanligini isbotlaydi. Sayyohlik sohasi, bir tomondan, aholining turmush darajasi, daromadi va farovonligining oshib borishi bilan bevosita bog‘lik bo‘lsa, boshka tomondan, insonning jismoniy, ma’naviy va psixologik jihatdan sog‘ligini mustahkamlash orqali ishlab chiqarish xolati va mehnat unumdarligi darajasining oshishiga ham sezilarli ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda turizmning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizdan ziyod bo‘lib, sohada 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmokda. Mamlakatimizda sayyohlik xizmatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan 1181 ta turistik korxonalar faoliyat ko‘rsatmokda. Ularning 559 tasi turoperatorlar, 622 tasi mehmonxona xo‘jaliklari bo‘lib, ular 110 ta xalaro sayyohlik marshrutlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatmokda. Yurtimizga 2015 yilda dunyoning 70 dan ortiq davlatidan 2

milliondan ziyod tashrif buyurgan. Sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi esa 1 milliard dollardan ziyodni tashkil etdi. Mamlakatimizda 2015 yilda 2014 yilga nisbatan turistik xizmatlar xajmi 15,9 foizga, turistik xizmatlar eksporti esa 12,9 foizga o'sgan. Turizm sohasini rivojlantirishning mintaqaviy dasturlarini amalga oshirish doirasida 814 ta yangi ish o'rirlari barpo etildi.

Sayyohlik sohasining milliy iqtisodiyotda salmoqli o'rinni egallashida davlatimiz rahbariyati tomonidan sohaga alohida e'tibor qaratilayotgani muhim ahamiyat kasb etyapti. Ayniqsa, Yurtboshimizning 2014 yil 1-3 oktyabrdagi Samarqandda o'tkazilgan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti ijroiya keng ashi 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi yaqin va uzoq istiqbolda sayyohlik sohasini rivojlantirish masalalarida g'oyat dasturiy asos bo'lib xizmat qiladi. Unda Islom Karimov quyidagilarga alohida e'tibor qaratdi: «Biz ulkan Sayyohlik salohiyati haqida gapirganda, birinchi navbatda, mamlakatimiz hududida shakllangan va rivojlangan eng qadimi sivilizatsiya va madaniyatlar, qoyatoshlardagi yozuvlar va iyerogliflarni, noyob tarixiy obidalar, moddiy madaniyat va me'morlikning ulug'vor hamda betakror namunalarini nazarda tutamiz. SHu bilan birga, o'zining jozibasi va tarovati bilan dunyodagi eng yaxshi dam olish maskanlaridan qolishmaydigan go'zal tabiatimizning boyligi va xilma-xilligini ham bu boradagi eng katta imkoniyatlarimiz qatorida ko'ramiz. Bularning barchasi mamlakatimizni jahon turizmi markazlaridan biriga aylantirishi mumkin va zarur».

Xalqaro hamjamiyat O'zbekistonning farovonlik darajasini hamda turistik salohiyatini yukori baholamoqda. Nufuzli «Legatum» xalqaro instituti (Buyuk Britaniya) har yili yangilanib boradigan Dunyo mamlakatlarining farovonlik indeksining 2014 yilgi natijalarini e'lon qildi. Unda ulushiga yer yuzi aholisining 96 foizi va jahon yalpi ichki mahsulotining 99 foizi to'g'ri keladigan dunyoning 142 mamlakati qamrab olingan bo'lib, mazkur indeks 89 ko'rsatkich bo'yicha aniqlanadi. Baholash natijalariga ko'ra, O'zbekiston mazkur reytingda 57-o'rinni egalladi yoki Gretsya, Ruminiya, Ukraina, Meksika, Rossiya, Indoneziya, Serbiya, Ozarbayjon, Gruziya, Turkiya va boshqa ko'plab davlatlarga qaraganda yuqori o'ringa ega bo'ldi.

Farovonlik darajasi, ayni bir paytda, turizm xizmatlariga talabning oshib borishini, soha rivojlanishi uchun g‘oyat qulay shart-sharoitlar mavjudligini ham ifodalaydi. SHu sababdan turizm sohasi bo‘yicha ham O‘zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari qatoridan o‘rin olish imkoniyatiga ega. O‘zbekiston 1993 yildan Jahon sayyohlik tashkilotining a’zosi bo‘lib, sayyohlik ko‘lami va tarixiy qadamjolari ko‘pligi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘n mamlakat qatoriga kiradi. Samarqand, Buxoro, Xiva va SHaxrisabz YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Rim shahri bilan bir qatorda «Abadiy shahar» degan nom bilan dunyoda shuxrat qozongan Samarqand Sayyohlik salohiyati bo‘yicha jahondagi yetakchi shaharlardan biri bo‘lib, borib ko‘rish albatta zarur bo‘lgan dunyodagi 50 ta shahardan biri sifatida e’tirof etiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 7570 ta madaniy meros ob’ektlari davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan 2330 tasi me’morchilik, 1138 tasi monumental yodgorliklar, 157 tasi diqqatga sazovor joylardir. Ularning aksariyat katta qismi xalqaro ahamiyatga ega ob’ektlar qatorda iga kiradi.

BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh kotibi Taleb Rifaiy mazkur tashkilotning Samarqandda o‘tkazilgan 99-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida O‘zbekistonda mavjud turizm infratuzilmasi - zamonaviy aeroportlar va temir yul kommunikatsiyalari, mehmonxona va restoranlar tarmoqi O‘zbekistonning sayyohlik jozibadorligini oshirishini ta’kidladi. U «Biz O‘zbekistonda amalga oshirilgan buyuk o‘zgarishlar guvohi bo‘ldik. Turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor karatayotgan Prezident Islom Karimovning okilona va uzoqni ko‘zlagan siyosati tufayli O‘zbekiston turizmni rivojlantirishning asosiy markazlaridan biri bo‘lishiga ishonamiz», dedi.

O‘zbekistonda Jahon Sayyohlik tashkilotining ko‘plab tadbirlari o‘tkazib kelinayotir. Ipak yo‘li mamlakatlarining bиринчи majlisi (1994, Samarqand), Madaniy merosni saqlash bo‘yicha seminar (Buxoro, 1996), Ipak yo‘lida turizmni rivojlantirish bo‘yicha uchinchi majlis (Buxoro, 2002), Jahon Sayyohlik tashkiloti ijroiya keng ashining 99-sessiyasi (Samarqand, 2014) shular jumlasidandir. 2004 yilda Samarqandda JST-mintaqaviy ofisi ochildi. Toshkentda qator xalqaro turistik

ko‘rgazmalar tashkil etildi. Bu tadbirlar turizm sohasida O‘zbekistonning xalqaro miqyosda katta obro‘ va e’tiborga sazovorligining keng e’tirof etilayotganini yaqqol isbotlaydi. Mazkur omillar turistlar okimi uchun qattiq raqobat ketayotgan sharoitda ko‘plab xorijlik turistlarni mamlakatimizga jalb etishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda turizm sohasining tashkil etilishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, sohaning asosiy me’yoriy hujjati O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni hisoblanadi. Ushbu Qonundagi ayrim moddalarda turistik xizmatlar bilan bog‘liq tushunchalarning ta’rifi berilgan. Jumladan, Qonunning 3-moddasida turistik xizmatlar tushunchasi haqida bunday deyilgan: «Turistik xizmatlar- turistik faoliyat sub’ektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko‘rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlari». Turistik mahsulotlar- turistik xizmatlar(bronlashtirish, tashish, joylashtirish, ovqatlantirish, o‘yinlar), turistik ishlar(foto xizmati, sug‘urta, axborot, moliya-bank xizmati), turistik tovarlar(esdalik sovg‘alar, xilma-xil turistik tovarlar, iste’mol tovarlari - parfyumeriya, tamaki, spirtli ichimliklar, maishiy texnika, kiyim-kechak)dan iboratdir.

Turistik xizmatlar- turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta’minalashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan xarakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, tavsifi va turistik xizmatning qanday yo‘naltirilganiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoyillarga qarshi bo‘lmasligi kerak. Davlat standarti ta’rifiga ko‘ra, turistik xizmatlar - turistlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan turizm tashkilotlarining faoliyati mahsulidir.

Sirasini aytganda, xizmatlar - ko‘zga ko‘rinmas tovarning o‘ziga xos turidir. Xizmat bevosita iste’mol jarayonida yuzaga keladi va alohida holda bo‘lmaydi. Xizmatning tovardan asosiy farqi ham shunda. Bundan tashqari, tovar iste’molchiga olib kelib beriladi, turistik xizmatda esa iste’molchi bevosita xizmatning paydo bo‘ladigan yeriga olib boriladi. SHuning uchun ham turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish moddiy tovarlarni sotishga aloqador bo‘lgan Qonunlar asosida emas, balki boshqa Qonunlar majmui bilan boshqariladi.

Turistik xizmat tarkibiga xizmatlarni buyurtma qilish, tashish, joylashtirish va boshqa barcha rasmiylashtirish ishlari, tashib berishning barcha turlari, transfer, ovqatlantirish, ekskursiya va attraktsionlar, tibbiy ko‘rik va sug‘urta, tarjimon xizmatlari, uchrashuvlar hamda boshqa xizmatlar bilan ta’minlash kiradi. Xizmatlar tarkibiga yana guruh boshlig‘i xizmati bilan gid-tarjimonning xizmati ham kiritilishi mumkin. Hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish va servis sohasi, xususan, turizm sohasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sohada ham turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatish maqsadida texnik modernizatsiya ishlari amalga oshirilmotsda. Jumladan, mamlakatimizdagi mehmonxona larqaytata’mirlanmotsda xhamda zhamonaviy transport vositalari sotib olinmotsda.

YUqorida aytib o‘tilgan ikkita asosiy xizmat turidan tashqari qolgan barcha xiztlar qo‘shimcha turistik xizmatlardir. hatto, ovqatlantirish va ekskursiya xizmatlari ham. Sayohatchining hohshiga. ko‘ra, tashkilotchi tomonidan xizmatlar keng aytirilishi mumkin yoki bu narsa tashkilotchilar tomonidan turistning tanloviga ko‘ra belgilanadi. Ikkinchisi ma’kulrok, chunki, umumiylar narxlar raqobatning tamoyil va qadriyatlariga ko‘ra minimal darajaga tushmokda. Bu esa, avvalambor, xizmatlar paketining ham minimallashuviga olib kelmoqda. SHu bois ham sayyoh qaysi millat vakili bo‘lishidan qat’i nazar, u eng avvalo narxlarga e’tibor berishini hisobga olish zarur.

Turizm sohasi boshqa sohalarga nisbatan ko‘proq ish o‘rinlari yaratadi. O‘zbekistonning beqiyos turistik imkoniyatlarini jahonga tanitishda ommaviy axborot vositalarining roli kattadir. Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida ommaviy axborot vositalariga e’tibor qaratib, «Keyingi yillarda ommaviy axborot vositalarini yanada demokratlashtirish va liberallashtirish, olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ochiqligi va oshkorraligini ta’minlashda ularning faolligini oshirish, media makonga ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bevosita joriy etishga qaratqilgan kariyb 10 ta qonun hujjati qabul qilindi», deya ta’kidladi. SHuni aytish lozimki, mamlakatimiz mintaqalaridagi turistik resurslar, ya’ni viloyatlardagi tarixiy obidalar, me’moriy yodgorliklar, kadamjolar, ziyyaratgoxlar

hamda rekreatsiya resurslari, dam olish hududlari, sog‘lomlashtirish maskanlari, ekoturistik ob’ektlar to‘ridan-to‘g‘ri bu tarmoqning istiqbolini belgilaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda davlat siyosatining asosiy yo‘alishlari quyidagilardan iborat.

Turizm va turistik industriyani rivojlantirish. Buning zamirida shunday siyosat mujassamki, turizmni rivojlantirish uchun turistik industriyani, ya’ni turistlarga xizmat ko‘rsatadigan mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, pansionatlar, umumi ovqatlanish va savdo shoxobchalari, transport korxonalari, madaniyat va sport muassasalari kabi turistik ob’ektlarni xalqaro andozalar darajasida rivojlantirish talab etiladi. Bu jarayon qaysi mulk hisobidan amalga oshirilishidan qat’i nazar, davlat o‘zining shu sohaga oid tashkilotlari orqali uni muvofiqlashtirib turadi. Turistik ob’ektlar qancha bo‘lmashin, turistik industriya rivoj topmasa, turizmni rivojlantirish to‘g‘risida qilingan barcha xarakatlar befoyda. CHunki mamlakatimizni havas kilib kelgan turist, agar turizm xizmati joyida bo‘lmasa, kayta kelishni orzu kilmaydi va o‘z tanishlariga ham bu joyga bormaslikni targ‘ib etadi. Bu turistlarni qabul qiladigan mamlakat uchun juda qimmatga tushishi tabiiy.

Fuqarolarning sayohat qilish paytida dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta’minalash. Bunda, eng avvalo, turistlarning xavfsizligini ta’minalash katta ahamiyat kasb etadi. CHunki xavfsizlik ta’milanmagan joyda erkinlik ham, dam olish ham ko‘ngildagidek bo‘lmaydi. Bu ham davlat hududidagi turistlarning hammasi uchun daxldordir. CHunki turistlarga davlat, nodavlat, xususiy turistik firmalar xizmat kilishi mumkin. Lekin mulk shaklidan qat’i nazar, davlat turistlarning erkin harakati va xavfsizligini ta’minalashni Qonun bilan o‘z zimmasiga olgan. Bu turizmning rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir.

Turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash. Mamlakatimizda turistik resurslarning, ya’ni turistlar qiziqib ko‘radigan tarixiy va madaniy obidalar, ma’rifiy, ijtimoiy-maishiy ob’ektlar, betakror tabiat, iqlim va landshaft maskanlari mavjudligining o‘zi Ollohnning in’omi. Ularni asrab-avaylash harbir avlodning farzandlik, fuqarolik burchidir. Bu noyob obidalar necha asrlardan buyon bizgacha bezavol yetib kelgan. Biz ham ularni kelgusi avlodlarga yaxshi saqlangan holda

yetkazishimiz kerak. Bu esa mazkur ob'ektlarni asrab-avaylab, ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Mustaqillik yillarida tarixiy obidalarni avaylab-asrash borasida mamlakatimizda misli ko'rilmagan bunyodkorlik ishlarining amalga oshgani shu boradagi katta e'tibor samarasidir.

Turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish. Hozirgi paytda yurtimizda turizm to'g'risidagi qonun qabul qilingan, Prezidentning o'nlab farmonlari, VazirlarMahkamasining qarorlari e'lon qilingan. Bu esa ushbu sohada Qonuniy va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish davlatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelayotganini ko'rsatadi.

Bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining ham ta'minlangan qatlamlari turizmi (eskursiyalari) uchun sharoit yaratish ham davlatimizning turizm sohasidagi siyosatining asosiy yo'naliishlaridan biridir. Bu bevosita mamlakatimizda shakllanayotgan ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor munosabatlarini qaror toptirish maqsadidan kelib chiqadi. Bu toifa davlat ko'magiga muhtoj aholi qatlamidir. Aholining mazkur qismi mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi bilan qisman kamayib boradi. ammo butunlay barham topmaydi, chunki aholining ahvoli qanday bo'lishidan qat'i nazar, uning tarkibida bolalar doimiy ravishda bo'ladi, yoshlar, nogironlarning mavjudligi ham muqarrar. Nihoyat, ham ta'minlangan aholi qatlami asta-sekinlik bilan kamayib borishi mumkin. Bu vaziyat davlatimizning kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan siyosat yuritishini taqozo etadi. Bu siyosatning bevosita turizmga ham joriy qilinishi davlat siyosatida ijtimoiy himoyaning izchilligidan dalolat beradi.

Turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish siyosati. Bu siyosat ham mamlakatimizda turistik ob'ektlarni yaxshi xolatda ushlab turish va ularni rivojlantirishga qaratilgan. Bu sohada mustaqillik yillarida juda ko'p turistik inshootlar qurildi. Bular jumlasiga Samarqanddagi Imom Buxoriy, Imom Moturudiy yodgorlik majmualari, Xo'ja Axror Vali maqbarasining qayta ta'mirlanishi, Ahmad Farg'oniy, Burxonuddin Marg'inoniy, Amir Temur kabi buyuk zotlarga qo'yilgan yodgorliklarni kiritish mumkin. Bu ulug' ajdodlarimizga qo'yilgan yodgorliklar nafaqat turistik ob'ekt sifatida qad ko'tarmokda, balki, eng muhim, ular o'z

tariximizni chuqur anglashga ham xizmat qiladi. Bu esa mustaqil taraqqiyot yo‘lini tutgan va o‘zining hech kimdan kam emasligi va kam bo‘lmasligini namoyon etishga azmu qaror qilgan xalqimiz irodasining ifodasidir.

Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish siyosati ham davlatimizning turizm sohasidagi muhim yo‘nalishlaridan biridir. Barcha sohalar singari turizm sohasida davlat tashkilotlari bilan birgalikda nodavlat tashkilotlari ham faoliyat ko‘rsatadi. Ularning asosiy qismini xususiy yoki aralash mulkka asoslangan tadbirkorlik sub’ektlari tashkil qiladi. Bu sub’ektlarga tegishli sharoit yaratib berish, ularning erkinligi, mulkiy munosabatlarda daxlsizligini ta’minlash kabi tadbirlar turizm sohasida erkin muhitini shakllantirish va uning rivojlanishi uchun asosiy omillardan birini yaratish imkonini beradi. Prezidentimizning mamlakatimizda amal qilayotgan «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to’siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2015 yil 15 maydagi PF-4725-son Farmoni mazkur soha rivoji uchun ham bevosita muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, turizm sohasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan sub’ektlarga tegishli qo‘srimcha huquq va majburiyatlar «Turizm to‘g‘risida»gi Qonunda belgilab qo‘yilgan. Ko‘rinib turibdiki, turizmni rivojlantirishda davlat o‘z siyosatini amalga oshirish, soha faoliyatida erkinlikni ta’minlash borasida tegishli me’yoriy hujjatlar majmuasini yaratgan.

Turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, Qonuniy manfaatlari va mol-mulki muhofaza qilinishini ta’minlash ham bu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi. CHunki har kanday turist bir joydan ikkinchi joyga borar ekan, hartomonlama xavfsizligi ta’minlangan taqdirdagina bunga jazm etadi. Turistlar tomosha qiladigan, dam oladigan shaxs sifatida o‘z Qonuniy manfaatlariiga ega bo‘lishi, mol-mulki daxlsizligi ta’minlanishini xoxlashi tabiiydir. Buning uchun esa turistlarni kabul qiladigan mamlakat ana shu sharoitlarni to‘liq yaratib bergen bo‘lishi lozim. SHu jihatdan davlatimizning mazkur yo‘nalishdagi siyosati aynan turistlarning shu muhim talablarini qondirishga qaratilgan. Turistlarning xavfsizligini ta’minlash, Ayniqsa, xalqaro terrorizm balosi kuchaygan

bugungi kunda o‘ta muximdir. Bu tadbir o‘z navbatida turistlarni kutib olish, olib yurish va kuzatishda turistik firmalar xodimlari bilan birga milliy xavfsizlik va ichki ishlar xizmati xodimlaridan ham foydalanishni taqozo qiladi.

Bugun harbir coha. ravnaqida kadrlar malakasi va salohiyati ustuvor o‘rin tutadi. O‘zbekistonda ana shu jihatga alohida e’tibor qaratilayotganiga guvoh, bo‘ldim. Ayni paytda mamlakatingizda beshta oliv ukuv yurti hamda o‘n bitta kasb-xunar kollejida turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgani mazkur yo‘nalishda barcha imkoniyatlar ishga solinayotganini ko‘rsatadi.

Ana Garsia Aliyevi, Argentina turizm vaziri

9. Turizm sohasining ilmiy ta’minotini tashkil etish va rivojlantirish ham davlatimizning ushbu sohadagi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. CHunki bu - o‘ta mu- rakkab soha. Uni ko‘r-ko‘rona rivojlantirib bo‘lmaydi. Bu sohani iqtisodiyotning asosiy kismiga aylantirish va tegishli foyda olishga erishish uchun uni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish talab qilinadi.

Davlat o‘z zimmasiga chet mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni ri- vojlantirish masalasini ham olgan va bu yo‘nalish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

10. Turizm va servis sohasida malakali kadrlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish. Sayyohlik sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qaytatayyorlash masalasiga mamlakatimizda eng muhim va hal qiluvchi omil sifatida katta e’tibor berilmoqda. Bunda prezidentimizning «O‘zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida»gi 2332-sон Farmoni, Vazirlar Mahkamasi ning «O‘zbekistonda turizm uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi»gi 324-sон karori muhim dasturul amal bo‘lib xizmat qilayotir. Hozirgi kunda yurtimizdagи 5 ta oliv o‘kuv yurti va 11 ta kollejda mazkur soha uchun zarur kadrlar tayyorlanmokda.

2.4. Turizmni rivojlantirishda hukumat va xususiy sektorlarning roli

Turizm - iqtisodiyotning yuqori daromad keltiradigan va jadal rivojlanayotgan yirik tarmoqlaridan. Ayni paytda, mazkur tarmoq dunyo mamlakatlari va xalqlarining madaniyat sohasidagi amaliy muloqotida o‘ziga xos robita vazifasini o‘tamoqda.

Jahon sayyohlik sanoatida turizmdan tushayotgan daromad avtomobil ishlab chiqarish, neft va gaz sanoatidan keyin uchinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishning ayrim ko'rsatkichlari haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mamlakatimizga 2013 yilda dunyoning 70 dan ortiq davlatidan sayyoohlар tashrif buyurdi va ularning yillik soni 2 milliondan oshdi. O'tgan ikki yil mobaynida bu ko'rsatkich 43 foiz o'sdi, joriy yilning birinchi yarmida esa 1 milliondan ortiq chet ellik sayyoh Yurtimizga tashrif buyurdi. 2013 yilda sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi 615 million dollardan ziyodni tashkil etdi. Bugungi kunda turizm sohasida 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda, bu tarmoqning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizdan oshdi. O'zbekistonda 550 ta sayyohlik kompaniyasi — turoperatorlari faoliyat yuritmoqda, mamlakatimizdagi tarixiy ob'ektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yo'nalishi bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda. Bu yo'nalishlarning 65 tasi tarixiy-madaniy meros ob'ektlari, 30 tasi tabiiy-rekreatsion, 15 tasi sog'lomashtirish turizmi elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishlardir.

Hozirgi paytda yurtimizda 50 mingdan ziyod o'ringa ega bo'lgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglar sayyoohlarga xalqaro standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatmoqda. O'tgan davrda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Farg'ona va Navoiy shaharlari aeroportlari modernizatsiya qilindi va bugungi kunda O'zbekistonda 11 ta xalqaro aeroport faoliyat yuritmoqda. Milliy aviakompaniyamiz zamonaviy «Ayrbas» va «Boing» avialaynerlari bilan ta'minlangan. Ushbu samolyotlar yevropa, Osiyo, YAqin SHarq va SHimoliy Amerikaning 50 dan ortiq shaharlariga muntazam parvozlarni amalga oshirmoqda.

«Toshkent — Samarqand — Toshkent» yo'nalishi bo'ylab Ispaniyaning «Talgo» kompaniyasida ishlab chiqarilgan, yuqori tezlikda harakatlanadigan zamonaviy elektr poyezdlarining harkungi qatnovi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatning turistik sohadagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda ichki turizmni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Zero, har qanday yangi turistik mahsulotga, avvalo, mahalliy sayyoohlarda qiziqish uyg'otib, so'ngra uni xorijiy sayyoohlarga taqdim etish samarali yo'l ekanligi xalqaro tajribada tasdig'ini topgan. Masalan, jahon sayyohlik sanoatida

yetakchi o‘rinni egallagan Ispaniyada aholining 90 foizi mamlakat bo‘ylab sayohat qiladi. Ushbu davlatga keluvchi xorijiy sayyoohlар soni esa 2012 yil yakuni bo‘yicha 58 millionga yetdi. Umuman olganda, biror mamlakat miqyosida turizm intensivligi 50 foizdan oshsa, ya’ni mamlakat umumiyligi aholisining 14 yoshdan katta qismining yarmidan ko‘pi bir yilda hech bo‘lmaganda bir marotaba sayohat qilsa, bu o‘sha mamlakatda turizm ommaviy tus oлganidan dalolatdir. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda sayyoohlilik sohasini taraqqiy ettirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar jarayonida ichki turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda va bu borada qator hududiy dasturlar hayotga tadbiq etilmoqda. Sayyoohlilik xizmatlari ko‘rsatish sohasiga madaniyat, telekommunikatsiya, savdo, ovqatlanish, sanoat sohasi tashkilotlari hamda muassasalari, ommaviy axborot vositalari faol jalb etilmoqda.

Mamlakatimizda ichki turizm salohiyatini keng targ‘ib etish, hududlardagi sayyoohlilik bazalari, dam olish zonalari, pansionatlar, sanatoriylar, kurortlar, rekreatsion va ekoturistik tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir. Bu jarayonda sayyoohlilik sohasining huquqiy asosini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 10 oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyoohlilik bozorlariga faol kiritishga xizmat qilishi shubhasiz. –Masalan, tarixiy va me’moriy obidalar nisbatan kamroq hududlarda faol turdagи turistik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, tog‘li zonalar, qishloq joylarga mo‘ljallangan alohida turdagи turistik xizmatlarni tashkil qilish kabi vazifalar nazarda tutilgan. “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tomonidan tegishli idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda mazkur tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan muayyan ishlar olib borilmoqda. Bunday sa’yararakatlar samarasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Jizzax va Xorazm viloyatlarida bir qancha o‘tov oromgohlari, kempinglar, dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlari barpo etilib, sayyoohlар uchun turistik xizmatlardan

foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, SHahrisabz, Marg‘ilon singari shaharlarimizda xalqimizning boy tarixi haqida hikoya qiluvchi qadimi obidalar avaylab saqlanayotganligi hamda milliy hunarmandlik markazlari faoliyat ko‘rsatayotgani mazkur hududlarda nafaqat xalqaro, balki ichki turizmni ham jadal rivojlantirishda muhim omil bo‘layotir. Xususan, Buxorodagi madaniy va tarixiy yodgorliklar, jumladan, Masjidi Kalon va CHor Bakr majmualari, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G‘ijduvoniy kabi buyuk ajdodlarimizning qadamjolarini ziyyorat qilish maqsadida minglab hamyurtlarimiz mazkur viloyatga sayohat qilmoqdalar. Tegishli tashkilot va o‘quv muassasalari bilan hamkorlikda ichki yo‘nalishlar bo‘yicha safarga chiqish istagida bo‘lgan yurtdoshlarimiz uchun avtobuslarda imtiyozli narxlarda sayohatlar uyushtirilmoqda. Bu yurtdoshlarimizning o‘lkamiz boy madaniy merosi va qadimi tarixi, shuningdek, istiqlol yillarda shahar va qishloqlarimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizning chekka hududlari, xususan, Orol bo‘yida ham ichki turizmni rivojlantirish ishlari doirasida yangi sayyohlik yo‘nalishlari tashkil etilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi qadimi qal’alar hamda diqqatga sazovor joylar bo‘ylab uch yo‘nalishda sayohatlar taklif etilmoqda. Xususan, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, Ustyurt keng liklaridagi sayyohlar yaylovi, Sudoche ko‘lining saqlanib qolgan akvatoriyasiga sayohatlar uyushtirilmoqda. “Sahrolar ichra o‘tmish sadolari”, “Orolga sayohat”, “Tilaklar qudug‘i”, “Ipak ipi mo‘jizasi”, “Qoraqalpog‘istonning qadimi qal’alari” kabi dasturlardan iborat yo‘nalishlar sayyohlarga ko‘proq ma’qul kelmoqda. O‘lkaning boy tarixiy va madaniy yodgorliklari haqidagi ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan Nukus shahridagi I.Savitskiy nomidagi san’at muzeyida to‘qson mingdan ortiq Eksponat saqlanadi. Qoraqalpoq Elining milliy bezaklari, xalq amaliy san’ati namunalari, kashtachilik buyumlari, milliy liboslari sayyohlarning e’tiborini tortmoqda. Orol bo‘yiga sayyohlarni yanada ko‘proq jalb etish maqsadida mintaqaning tabiiy iqlim sharoitidan oqilona foydalanilib, yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, tabiiy suv havzalarida baliq, o‘rdak ovlash bo‘yicha yangi sayyohlik yo‘nalishlari tashkil

etilgan. SHuningdek, "Mizdaxon qal'a", "Tuproqqa'l'a", "Ayozqa'l'a", "CHilpik" kabi qadimiy yodgorliklar, amudaryo sohili bo'ylab ekologik turlar tashkil etildi. Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimizda ichki turizm izchil rivojlanmoqda. "Ayozqa'l'a-tur" sayyohlik kompaniyasi. – 1998 yildan buyon faoliyat yuritayotgan Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan. Qoraqalpoq xalqining milliy urf-odatlari, an'ana va qadriyatlarini namoyon etgan o'ziga xos sayyohlik turlari tashkil etish orqali xorijiy mamlakatlardan ko'plab sayyoohlarni jalb etayapmiz. So'nggi yillarda mamlakatimizning boshqa hududlaridan Qoraqalpog'istoniga sayohatga keluvchilar ko'paymoqda, o'z navbatida hududimiz aholisining Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Termiz kabi shaharlarimizga sayohati uyshtirilmoqda. Mamlakatimizda sayyohlikning, jumladan, ichki turizmnинг rivojlanishi yangi ish o'rirlari ochilishi, iqtisodiyotimizning va xalqimiz farovonligining yanada yuksalishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Mahalliy boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik" loyihasi olti yo'nalishdan iborat bo'lib, ulardan biri hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan. Bu borada ikkita boshlang'ich hudud: Jizzax viloyatining Zomin hamda Namangan viloyatining CHortog' tumanlari tanlab olingan. Mazkur tumanlar ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi. Xususan, Zominda rekreatsion – dam olish va sog'liqni tiklash maqsadlariga xizmat qiluvchi ko'plab resurslar mavjud. hududning tog' Ekotizimi, arxeologik yodkorliklari u yerda ekologik, speleologik (g'orlarga sayohat qilish), tarixiy, qishloq va sport turizmi – chang'ida uchish, piyoda sayohat, tog' velosipedini rivojlantirish imkonini beradi. Loyiha ijrosi doirasida Zominda mahalliy va xorijiy sayyoohlarni uchun qiziqarli ikki turistik yo'nalish ishlab chiqildi. Sayyoohlarga yuqori darajada xizmat ko'rsata oladigan transport kompaniyalari, ovqatlanish shohobchalari bilan aloqalar yo'lga qo'yildi. Arxeologik yodgorliklarga eltuvchi avtomobil yo'llarida o'zbek, rus va ingлиз tillarida yo'l ko'rsatkichlar o'rnatildi. 2013 yilning o'zida tumanda o'n ikkita aholi uylarida mehmonlarni kutib olish uchun sharoitlar yaratildi. Ularda xizmat qiluvchi ishchi va xodimlarning malakasini oshirish maqsadida seminar-treninglar

o‘tkazildi. Sayyohlar tabiat qo‘ynida dam olish bilan birga, turli madaniy dasturlar, masalan, kelin salom, beshik to‘yi kabi milliy marosimlar, shuningdek, mahalliy taomlarni tayyorlash bo‘yicha mahorat saboqlarida va uy yumushlarini bajarishda ham qatnashishi mumkin. Loyihada belgilangan vazifalarga muvofiq, Zomin tumanida tashkil etilgan turistik xizmatlar majmui, tuman haqida atroficha ma’lumot beruvchi axborotnomalar, videorolik, original logotip yurtimizdagi mahalliy sayyohlik kompaniyalariga taqdim etildi. Mamlakatimizda ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar sayyoohlarga qulay sharoit yaratish va ularning o‘z sayohatlarini mazmunli o‘tkazishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda O‘zbekistonimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda hukumat va xususiy sektorlarning roli qandayk
2. Davlat tomonidan turizmni rivojlantirish maqsadida qandayishlar amalga oshirilmoqdak
3. Turizm iqtisodiyotining statistik ma’lumotlari qanday hisoblanadik
4. Turistlarni O‘zbekistonga jalb ilishda qanday muammolarga duch kelinmoqdak
5. Turistik faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi qanday amalga oshiriladik
6. O‘zbekiston turizmida xususiy sektorning mukammal darajada rivojlanishiga qanday omillar ta’sir etmoqdak
7. Milliy turistik mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif nimalardan iboratk

3-MAVZU. TURIZMDA INNOVATSIYALARING TURLARI VA UNING SHAKLLARI.

1. Turistik mahsulot to‘g‘risida tushuncha
2. Turistik mahsulotning hayotiy bosqichlari
3. Turistik mahsulotning baholanishi

4. Narx belgilashga ta'sir qiluvchi omillar

1. Turistik mahsulot - turistning sayohati davomida foydalangan tunash, ovqatlanish, tomosha qilishva boshqa bir qancha xizmatlarning yig‘indisidir. Turizmda mahsulot 2 shaklda yuzaga chiqadi.

1. Bir davlatning sohib bo‘lgan hamma tabiiy, tarixiy va turistik resurslarini tashkil qilgan turizm mahsuloti.

2. Iste’molchilarning yer o‘zgartirishlariga va sayohat qilishlariga imkon bergan barcha xizmatlar, ya’ni bir pekij - tur hosil qilgan turistik xizmatlarning yig‘indisi.

Turizm marketingining birinchi bosqichini turistik mahsulot hosil qiladi. Biror turistik korxonaning ishlab chiqargan mahsulot va xizmatlari, boshqa sanoat korxonalarining ishlab chiqaradigan mahsulotlaridan farqlidir. Turizm marketingi turli xil vositalar yordamida yuzaga keltirilgan bir mahsulot asosiga tayanadi. Bu mahsulotning ro‘yobga chiqarilishi uchun, ma’lumot va xabarlashish vositalarini ham qo‘sish kerakdir. Turist uchun eng ahamiyatlisi, eng yaxshisini yoki o‘ziga yoqqanini tanlashdir. Turizm korxonasida yoki marketingida asosiy maqsad iste’molchiga eng yaxshi shaklda xizmat taqdim qilish, ishlab chiqaruvchilarga optimal foyda yaratishdir.

2. Biror turistik mahsulot yoki xizmat, jonli bir mavjudot kabi tuqiladi, yashaydi va yo‘q bo‘ladi. O‘rtadan yo‘q bo‘lishning turli xil sabablari bor: texnologik rivojlanishlar, rakobat, marketing strategiyasi, talabga mos bo‘lmagan juda yuqori narx va qiymat yo‘qotish. Bir mahsulot yoki xizmat bozorga chiqarilgandan keyin 4-ta davrni o‘tadi:

1. Bozorga kirish davri.
2. Rivojlanish davri
3. Saqlanish davri
4. Tushish davri.

Bu davrlarning muddatlari mahsulot yoki xizmat turlariga ko‘ra va korxonaning tashkiliy to‘zilishiga ko‘ra harxil bo‘ladi. Mehmonxona xo‘jaligida o‘rtacha umr 10 yil. Restoran yoki bar uchun bir necha yil, diskotekalar uchun esa vaqtinchalik omillardan ta’sirlangani uchun juda kam muddatdir.

3. Turistik mahsulotning sotilishida rol o‘ynagan eng ahamiyatli omillardan biri mahsulotning narxidir. Turizm marketingida narx asosiy bo‘lib, eng ta’sir qiluvchi va strategik o‘zgaruvchidir. Narx omili xususan o‘rta tabaqa turistlar tomonidan kuzatilgan hodisadir. Xaridorlarning ko‘pchiligi quyidagi sabablar tufayli narx o‘zgarishlariga qarshi juda his qiluvchilar xisoblanadi, ya’ni turli masofalar orasi yoki bir xil masofalardagi turli xizmatlar o‘rtasida paydo bo‘lgan raqobat yuzasidan. Kam daromadli xalq mexanizmlarining turistik iste’molchiga etish adigan xarakatlaridan narx farqlari ko‘paymoqdadir. Turizm sektorida ko‘rilgan turli xizmat va mahsulotlar natijasida narx omili sotib olish omillardan keyin 2 chi o‘ringa tushishni boshlagan. CHunki turistlarning kutishlari va zavq olish hislari ancha oldinda. Mehmonxonaning narxini bilmasdan turib, turist xonani majburan sotib olishga majbur emas. Boshqa arzon mehmonxonaning mijozи ayni vaqtida ma’lumot olishni ham hohlaydi. yetarli ma’lumotni olgandan keyin narx-sifat farqlilagini qiladi. Turistik mahsulotni sotish narxining belgilanishi kelgusidagi sotish va foyda olish tartibining tavsiya qilinishiga imkon beradi. Faqat turistik mahsulotning aralash xususiyatda bo‘lganligi uchun narxning belgilanishi juda ko‘p omillarga bog‘liqdir.

4. Turizm sohasida narx belgilashga quyidagi omillar ta’sir qiladi.

1. Tannarxlar. Ishlab chiqarish tannarxi sotish narxini belgilashda asosiy rol o‘ynaydi. Tannarxlar 2 shaklda hisoblanadi: barqarorva o‘zgaruvchan. Barqarortannarxning to‘kri bir shaklda hisoblanishi oson bo‘lgani uchun turistik korxonalardagi o‘zgaruvchan tannarxlar ahamiyatli o‘rin tutadi va hisoblanishi ham qiyindir.

2. Korxonaning o‘rni va joylashgan yeri. Turistik mahsulot joylashgani yerning bozorgacha bo‘lgan masofasi, tabiiy va ijtimoiy muhiti, tarixiy va madaniy yaqinligi korxonaning narxlariga ta’sir qiladi. Samarqand, Buxoro va Xivadagi mehmonxonalar bilan Toshkentdagi mehmonxonalar orasida farqli narxlar qo‘llaniladi.

3. Bozordagi raqiblarning narxlari. Biror turistik mahsulotning narxi, bozordagi mavjud bo‘lgan o‘xhash mahsulot va xizmatlarning narxlariga mos bo‘lishi

kerakdir. Ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning xususiyatiga va farqlariga ko‘ra korxonalar bozor narxidan past yoki yuqori narxni tavsiya qiladilar. YAngi bir mahsulotning bozorga ilk kirishida asosan boshqa mahsulotlarnikidan past narx qo‘yadilar. Bozor narxidan yuqori narx belgilagan korxonalar, mahsulotlarning o‘xhash mahsulotlardan farqli sifati va xususiyatlarga ega bo‘lishini yaratishga majburdir.

4. Iste’molchining xususiyatlari - talabning xususiyatlari. Iste’molchilar turizm xizmatlaridan faqat o‘z byudjetlariga mos bo‘lgan miqdorda foydalanadilar. Agar narx yuqori bo‘lsa, mahsulotlarga bo‘lgan talab kamayadi, shu sababli talab belgilangan tartibga kelguncha narxlarni tanishtirish kerak. Turizm talabi milliy va xalqaro darajada bo‘lmoqda. Ba’zan korxonalar narxlarni xalqaro talablarga moslab hosil qilmoqda.

5. Ishlab chiqarish hajmi. Narx, ishlab chiqarish tannarxlari, korxonalarning hajmiga, o‘lchovlariga bog‘liq bo‘lib, turli shakllarda tavsiya qilinadi. Korxonaning to‘liqlik nisbatlariga ko‘ra tannarxlarni kamaytirish maqsadida, ma’lum bir miqdorda narxlarni tushirish hollari bo‘lmoqda. Xususan katta hajmdagi tunash korxonalarida, jami tannarxlarning ostida narx tavsiyasi qilinib, korxonaning barqaror chiqimlari ko‘riladi.

6. Huquqiy tartiblar.

Marketing boshqaruvchilari narx tavsiyasini o‘rganar ekanlar, narxning davlat boshqaruv organlarining mavjud qonun va qoidalariga mosligini diqqatga olishlari kerak. Mamlakat iqtisodini va iste’molchilarni hosil qilish maqsadida davlat boshqaruv organlari kerak bo‘lgan taqdirda narxlarga aralashmoqda. Narxlarga aralashishda, asosan davlat narxlarning turizm sektori tomonidan qo‘yilishini ta’minlamoqda.

Nazorat savollari

- 1.Tur mahsulot nima?
- 2.Turmahsulot nechta hayotiy bosqichga ega?
- 3.Turmahsulotni baolash tartibi anday amalga oshiriladi?
- 4.Qaysi omillar narx belgilashga ta’sir qiladi?

5. Turmahsulotning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Turizmda narx siyosatiga ta'sir iluvchi atrof-muhit omillari nima?
7. Xaridorlar soniga ko'ra narxlarning fari nima?
8. Muddatga ko'ra narxlarning fari nima?
9. Turistik mahsulotning paydo bo'lishi necha bosqichdan iborat?

4-MAVZU. TURIZM (AGROTURIZM) SOHASIDA MEHMONXONA

XO'JALIGI VA XIZMATI

- 4.1. Mehmonxona xo'jaligining joylashuvi va uni turkumlash.
- 4.2. Turistik mehmonxona.
- 4.3. Mehmonxonalarda turistlarga xizmat ko'rsatish texnologiyalari tasnifi. izoklang?

4.1. Mehmonxona industriyasi kishilarning o'z uylaridan boshqa yerkarta sayohatlarga chiqib tunash, ovqatlanish kabi zaruriy ektiyojlarini qondirishga mo'ljallangan, tijoriy xususiyatga ega bo'lgan korxonalar faoliyatidir. Mehmonxonalarning dunyodagi ilk bor ko'rinishlarda bo'lishi, karvonsaroylar qurilishi milodiy X asrlarga to'g'ri keladi. Bu vaqtлага kelib sayyoohlarning dam olish, ovqatlanish kabi ehtiyojlarini qondirish uchun karvonsaroylarda tunaganliklari aniqlangan. Asosan pulning iqtisodiy bir o'zgarish sifatida qo'llanishi, ahamiyatining ortib borishi natijasida tijorat qilish maqsadida sayohatga chiqishning ko'payishi hozirgi kundagi zamonaviy mehmonxonalarning namunalari bo'lib hisoblangan.

G'arbda texnologik rivojlanish, temir yo'llarning qurilishi va boshqa tarmoqlarga tarkalishiga mehmonxona industriyasining ham rivojlanishi va katta shaharlardan kichik tumanlarga tarkalishiga olib keldi. 1939 yilda Amerikaning Boston shahrida birinchi shahar mehmonxonasi qurilgandan keyin bu soha butun mamlakatlarga yoyildi. XX asrning boshlarida avtomobil yo'llarining keng ayishi, turmush harakatining ortishi kichik otellar qurilishiga sabab bo'ldi. Fakat yevropa aristokratiyasiga mos keluvchi katta otel turlari va o'rta sinfga mos bo'lgan o'rta otel turlarini o'z ichiga oluvchi industriya davomli va qoniktiruvchi shaklda rivojlanmagan. Xalqaro mehmonxona industriyasi korxonalarining qurilishi va ishga tushirilishida Amerika investitsiyasi va texnologiyasining tobora ko'prok kiritilishi

ko‘zatilmokda. Hilton, Knott, SHeraton kabi transmilliy korporatsiyalar vujudga kelmokda.

2. Texnologianing rivojlanishi, yalpi daromadlarning ko‘payishi, turizm imkoniyatlarining ortishi, insonlarning yashash sharoitlarida o‘zgarishlar davom etar ekan, mehmonxona industriyasi kishilarning hoxish - istaklarini, moddiy - ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi uchun davlat tomonidan koordinatsiya qilinishi, tartibga solib turilishi va shu sohada mehnat qilayotganlarning fidokorligi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xalqaro turistlar ko‘laming yildan-yilga keng ayib borishi turizm industriyasining rivojlanishiga yo‘l ochib bermoqda.

3. Mehmonxonalarning quyida ko‘rsatilgan jihatlari bo‘yicha ajratilib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

1. Mehmonxona xo‘jaligining ishlab chiqarishga oid xususiyatlari. Bu xususiyatlarning asosiylaridan biri ishlab chiqarish faoliyatining har xil vaqtarda amalga oshirilishidir. Masalan, xonani mijoz tark etgandan keyingina tozalanadi; biror ichimlik bilan taomlar har xil vaqtda tayyorланади. Yana bir xususiyati shundan iboratki, bunda ishlab chiqarilgan moddiy ne’matlar kerakli paytda ishlatish uchun omborda saqlab qo‘yilmaydi. Masalan, biror xona saqlab qo‘yilishi mumkin emas, balki har kuni sotilishi majburiydir. Yana bir xususiyat mehmonxonada ishlab chiqarish va sotish xarajatlari bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladi.

2. Ishchi kuchi jihatdan farq qiluvchi xususiyatlari. Boshqa sanoat korxonalarida ishchilar mijozlar bilan kamdan-kam muloqotda bo‘lishsa, mehmonxona xo‘jaligida ishchilar o‘z vaqtarining katta qismini mijozlar bilan o‘tkazadilar.

3. Buxgalteriya (hisob kitob) jihatdan mehmonxona xo‘jaligining xususiyatlari. Bunga misol qilib mehmonxonada hisob-kitobning nazorat ishlari kunning oxirida, ya’ni soat 24.00 dan keyin amalga oshirilishini ko‘rsatish mumkin. Sababi shuki, mehmonxona xo‘jaligida turistlar hisobining hamma vaqt turishi shart va majburiydir.

4. Marketing tomonlama olib qarasak, mehmonxona xo‘jaligi xizmati marketingga zid ravishda ko‘rsatiladi, ya’ni bunda turist xizmatni sotib olish uchun ishlab chiqarilgan yerga kelishi kerak bo‘ladi. Hech bir kishi uyida o‘tirgan holda

mehmonxona xizmatidan foydalana olmaydi, ya’ni mahsulotlarni sotib olish joyi bo‘lib mehmonxona xizmat qiladi. Boshqa sanoat korxonalarida esa, bundan farqli ravishda, ishlab chiqarilgan mahsulot ulgurji yoki chakana savdo natijasida xaridorlarga yetkazib beriladi. SHunday qilib, mehmonxona xo‘jaligi yuqorida ko‘rsatilgan to‘rtta asosiy xususiyatlari bo‘yicha boshqa sanoat korxonalaridan farq qilar ekan. Hozirgi kunda respublikamizda turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlar yaratilmokda. Turistlar uchun mavjud turistik ob’ektlarni tomosha qilishlari uchun xizmat ko‘rsatish darajalari ham tobora yaxshilanib bormoqda. Oldingi yillarga qaraganda mamlakatimizga tashrif buyuruvchilar soni ham keskin oshmokdi. Bu esa turizm infratuzilmasida katta yangilanishni yuzaga keltiradi. Turistlarning asosiy ehtiyojlarini qondiruvchi mehmonxonalarini sifat jihatdan yaxshilash kerakligini davr taqozo qildi.

Hozirgi kunga kelib respublikamizdagi mavjud mehmonxonalarining aksariyati qayta ta’mirdan chiqarilib, zamonaviy boshqaruva tizimlari joriy qilindi. Hozirda zamon talablari darajasida ya’ni 3-4-5 yulduzli mehmonxonalar mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatib kelmokda. Bu esa davlat byudjetiga valyuta tushumini oshirmokda va shu bilan birga aholining ish bilan ta’minlanishiga imkon yaratmokda.

Turizmni rivojlantirish, sayyoohlар oqimini ko‘paytirishda mehmonxona biznesi muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan buniyodkorlik ishlari samarasida xorijiy mehmonlar va delegatsiyalarni qabul qilish hamda ularga zamonaviy talablar asosida xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega o‘nlab mehmonxonalar qad rostladi. Mavjud mehmonxonalar zamonaviy va milliy me’morlik an’analari asosida rekonstruktsiya qilindi. “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2016 yilda poytaxtimizda yana bir yangi – Hyat Regency mehmonxonasi o‘z ishini boshladi. AQSHning Hyatt Hotels korporatsion kompaniyasi bilan Toshkent shahar hokimligi va O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi o‘rtasida imzolangan bitimga muvofiq barpo etilayotgan mazkur mehmonxona 300 o‘ringa mo‘ljallangan. Hyatt Hotels & Resorts tarmoqini yevropa, Afrika va YAqin SHarq mamlakatlarida rivojlantirish bo‘yicha vitse-

Prezidenti Piter Normanning so‘zlariga ko‘ra, Toshkentda Hyatt Regency mehmonxonasining ochilishi O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar oqimini yanada ko‘paytirishga xizmat qiladi. Mazkur mehmonxonadan xalqaro konferentsiya va festivallar o‘tkazishga mo‘ljallangan zal ham o‘rin oladi. Ayni vaqtda mehmonxonalarimizda joy bron qilishning yangi tizimi yaratilib, velkom hotels.o‘z sayti orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilayotir. Kelgusida mobil ilovalar yordamida bron qilish va to‘lojni amalga oshirish mexanizmi ham joriy etilishi ko‘zda tutilgan. Milliy portalga joylashtirilgan axborotdan xorij turistik xizmatlarini bron qilish tizimlari ham foydalanishi mumkin. SHarq va g‘arb me’morlik an’anasini o‘zida mujassam etgan, Markaziy Osiyo mintaqasida eng murakkab me’moriy yechimga ega binolardan biri bo‘lgan “O‘zbekiston” mehmonxonasining Toshkent shahrida alohida o‘rni bor. To‘rt yulduzli mehmonxonamiz 263 o‘ringa mo‘ljallangan,— deydi “O‘zbekiston” mehmonxonasi savdo va marketing departamenti direktori SanjarMo‘minov.— Lyuks xonalar, bar va restoranlar, konferentsiya va simpozium zallari, biznes markazida mijozlarga yuqori sifatlari servis xizmati ko‘rsatiladi. Mamlakatimiz sayyohlik sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida Yurtimizga kelayotgan sayyohlar tobora ko‘payayotganini mehmonxonamiz faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin. Xususan, 2011 yili 85 ming mehmonni qabul qilgan bo‘lsak, 2012 yili bu ko‘rsatkich qariyb 90 mingga yetdi Mehmonxona biznesi va sayyohlikni rivojlantirish jarayonida kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilayotir. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi turizm yo‘nalishidagi kollejlar, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining sayyohlik fakul’teti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hamda poytaxtimizdagи Singapur menejmentni rivojlantirish institutida sayyohlik marketingi va menejmenti, xizmat ko‘rsatish, xalqaro turizm, mehmonxona xo‘jaligi va restoran ishi yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmokda. Mazkur ta’lim dargohlarida tashkil etilgan maxsus mehmonxona markazlari talabalarning nazariy bilimini amalda mustahkamlashida muhim ahamiyat kasb etayotir. Sohada chet ellik sheriklar bilan hamkorlikni keng aytirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bu boroda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tomonidan tashkil etilayotgan marketing

loyihalari – mega-info-turlar yaxshi samara bermoqda. Ushbu loyiha doirasida Italiya, Ispaniya, Frantsiya, Yaponiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Rossiya, Niderlandiya, Veng riya, Singapur kabi ko‘plab mamlakatlarning ikki yuzdan ziyod sayyoqlik kompaniyasi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Yurtimizga kelayotgan sayyoqlar oqimi tobora ko‘paymokda. Bu mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik barqarorligi, yurtimizning zamon bilan hamqadam rivojlanayotgani samarasidir.

Nazorat savollari:

1. Mehmonxonalarda qanday xizmatlar ko‘rsatiladi?
2. Mehmonxonalar qanday tasniflanadi?
3. Kattaligiga ko‘ra mehmonxona xo‘jaliklari nechta guruhga ajratiladi?
3. O‘rta buyuklikdagi mehmonxonalarda xonalar soni ancha bo‘lishi kerak?
4. Mehmonxonalarning xususiyatlariga nimalar kiradi?
5. O‘zbekistondagi mehmonxonalarning son va sifat ko‘rsatkichlari kanday?
6. Mehmonxonalarda asosiy va qo‘shimcha xizmatlar nima?
7. Mehmonxonalarda marketing xizmatlari qandayamalga oshiriladi?
8. Mehmonxonalar zanjiri nima?
9. Xorijiy mehmonxonalarda turistlarga ko‘rsatiladigan xizmat turlarini izoklang?
10. Turistik mehmonxona va motel o‘rtasidagi farq nima?

5-MAVZU. TURISTLARGA TRANSPORT XIZMAT KO‘RSATISH

5.1. Turistik transport sayohatini turkumlash

5.2. Turistlarni avo yo‘li, suv va temir yo‘llari orali transportda tashish qoidalari

5.3. Turistlarni avtobuslarda tashish tashnifi va qoidalari

5.4. Xalqaro yo‘nalishlarda transport sayoatlarini tashkil ilish xususiyatlari

5.1. Turistik transport sayohatini turkumlash. Turistlarga transport xizmatini ko‘rsatish - bu turizm industriyasining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Barcha turistik xizmatlar tizimi transport xizmatining 40% dan ortiq qismini tashkil qilar edi. Transport sayohatlari turizmning mustaqil ko‘rinishi sifatida qaraladi.

Transport sayohati - bu turli xil transport vositalaridan foydalanib, ishlab chiqilgan yo‘nalishlar bo‘yicha turistlar guruhlarining sayohatidir. Transport sayohatlari quyidagicha tasniflanadi, ya’ni:

- harakatlanish yo‘nalishi (marshruti) bo‘yicha;
- foydalanilayotgan transport turi bo‘yicha;
- yo‘nalish trassasining qurilishi bo‘yicha;
- sayohatning muddati bo‘yicha;
- mavsumiylik bo‘yicha va h.k.

2. Havo transportida sayohat ham charter, ham reysli samolyotlar vositasida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtida havo transportidan foydalanishda 400 dan ortiq aviakompaniyalar o‘z faoliyatini olib bormoqda. O‘zbekistonlik sayyoohlar TU-134, IL-62, IL-86, “Boing” samolyotlaridan foydalanadilar. Turizm rivojlangan davlatlarda turistik maqsadlarda vertolyotlardan va boshqa havo transporti vositalaridan, ya’ni dirijabl, havo sharlari, paraplanlar, deltaplanlar va hakozolardan foydalaniladi.

Turistik maqsadda havo yo‘llari orqali amalga oshiriladigan sayyohatlar muntazam, mavsumiy va bir martalik ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

Turizmda temir yo‘l transportidan foydalanganda turistik sayohatlar 12 ta yo‘lovchi vagonlardan iborat bo‘ladi. YA’ni 2-3 vagon restoran, vagon-klubga ega bo‘lgan maxsus harakat rejimi va yo‘nalishi bo‘yicha qarakatlanuvchi turistik bo‘limlarda amalga oshiriladi. Ko‘pincha chet davlatlarda ekskursion turistik transport sifatida tramvay va uning retro-variantlari: trolleybus, kareti, dilishans va boshqalardan foydalaniladi. YUqoridagi barcha transport vositalari turistik kompaniyalarning o‘z mulki bo‘lmasdan, balki ulardan farqli ijara, lizing va h.k. asosida foydalaniladi.

3. Doimiy xalqaro yo‘nalishlarda harakatlanish davlatlararo ikki tomonlama kelishuv asosida amalga oshiriladi, uchinchi davlat orqali tranzit esa transport bo‘yicha yevropa Iqtisodiy Komissiya qo‘mitasi ruxsati bilan amalga oshiriladi. 1973 yil 1 martda Jeneva konventsiyasi doirasida “Yo‘lovchi va yuklarni avtomobilda olib o‘tish shartnomasi to‘g‘risidagi konventsiya” qabul qilingan.

Turistik sayohat davomida foydalanilayotgan avtobus haydovchisi yo‘lovchilarning birma-bir ismi, sharifi yozilgan ro‘yxatga ega bo‘lishi lozim. Avtomobil transporti vositasida xalqaro tashishni tashkil etishda quyidagi masalalarni haletish lozim:

- texnik yordam, remont va texnik xizmat ko‘rsatish (yo‘lda);
- bekatlar, yoqilki kuyish shaxobchasi, dam olish, ovqatlanish, tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;
- yo‘nalish trassasida aloqani tashkil etish va h.k.

Turistik transport sayohatlari xalqaro miqyosda shuningdek, shaxsiy ijaraga yoki ijaraga olingan avtomobillarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda sayohat mustaqil erkin dastur yoki maqsadli marshrut bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Hayot uchun zarur barcha narsalar kompleksiga ega bo‘lgan pritsepli avtomobil vositadagi guruqli turizm “karavaning” deyladi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarini istiqbolli rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bilan uzviy bog‘liqlikda transport infratuzilmasining ilgarilovchi o‘sishini ta’minlash maqsadida 2011-2015 yillarda transport infratuzilmasini rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Unda transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha 11 ta, shu jumladan, transport kommunikatsiyalarini qurish, yagona milliy avtomobil transporti tizimini yaratish, temir yo‘l transportini modernizatsiyalash, havo kemalari parkini tubdan yangilash, transportdagi tashuvlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish, yangi transport yo‘laklarini shakllantirish, yo‘l ustidagi servis va infratuzilma ob’ektlarini qurish hamda qayta tiklash singari ustuvor yo‘nalishlar belgilandi.

2012-2015 yillarda transport xizmatlarining umumiyligi yiliga o‘rtacha 5,7 foizga oshdi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatimizda shahar yo‘lovchi transportini rivojlantirish kontseptsiyasi ishlab chiqilishi, avtomobil transporti sohasida tashkiliy boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va avtomobil transportida yo‘lovchilarni tashish sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni tartibga soliq bo‘yicha choralar tufayli ta’minlandi. 2007-2015 yillarda yo‘lovchilarni tashish va yuklarni tashish hajmi qariyb 1,8 barobar oshdi. 2007-2015 yillarda havo transporti (1,8

barobar), avtomobil transporti (1,5 barobar), temir yo‘l transportida (1,5 barobar) yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari oshgani kuzatildi.

Turistlarga transport xizmatini ko‘rsatish - bu turizm industriyasining eng asosiy ismlaridan biri hisoblanadi. 1990-yillargacha ham ichki ham xalqaro turizmga xizmat qiluvchi avtomobil, daryo, deng iz, temir yo‘l va aviatsiya transportini o‘z ichiga qoluvchi yagona transport tizimi mavjud edi. Barcha turistik xizmatlar tizimidagi transport xizmatining hissasi 40% dan ortiq qismini tashkil qiladi. Transport sayohatlari turizmnинг mustaqil ko‘rinishi sifatida qaraladi.

Transport sayohati - bu turli xil transport vositalaridan foydalanib ishlab chiqilgan yo‘nalishlar bo‘yicha turistlar guruhlarining sayohatidir. Transport sayohatlari quyidagicha tasniflanadi, ya’ni:

- harakatlanish yo‘nalishi (marshruti) bo‘yicha;
- foydalanilayotgan transport turi bo‘yicha;
- yo‘nalish trassasining qurilishi bo‘yicha;
- sayohatning muddati bo‘yicha;
- mavsumiylik bo‘yicha va h.k.

Hozirgi davrda avtobus, havo yo‘li va temir yo‘li vositasidagi sayohatlar keng tarqalgan. Turistik transport sayohatlari bir necha transport turlari oraliq ya’ni: temir yo‘ldan avtobus (eng il avtomobil); havo yo‘lidan avtobus va h.k. amalga oshiriladi. Mobil transporti turi sifatida avtobus va eng il avtomobildan mustaqil yo‘nalishlardagi kabi turistlarni aeroportdan (vokzaldan) mehmonxonaga yoki aksincha olib borib qo‘yishda keng foydalaniladi. Har qanday turist o‘z sayohatini rejalashtirayotganda manzilga olib borish (etkazish) tezligi, sayohat qulayligi (komforti), qiymati, yuklarini olib borish (ularning og‘irligini hisobga olgan holda) imkoniyati, to‘xtash joylari, ovqatlanish sharoitlari, shovqin darajasi, vibratsiya, ham olish va (tunash) uqlash jarayonlari, ekologik va albatta xavfsizlik kabi omillarni hisobga oladi. Ijobiy omillar qancha ko‘p bo‘lsa, shunchalik transport sayohatining qiymati oshadi.

5.2. Turistlarni havo yo‘li, suv va temir yo‘llari orqali transportda tashish qoidalari. Havo transportida sayohat ham charter, ham reysli samolyotlar

vositasida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda havo transportidan foydalanishda 400 dan ortiq aviakompaniyalar o‘z faoliyatini olib bormoqda. O‘zbekistonlik sayyoohlар TU-134, IL-62, IL-86, “Boing” samolyotlaridan foydalanadilar. Turizm rivojlangan davlatlarda turistik maqsadlarda vertolyotlardan va boshqa havo transporti vositalaridan: dirijabl, havo sharlari, paraplanlar, deltaplanlar va hokazolardan foydalaniladi. Samolyotdagi komfort sharoitlari, ovqatlanish va boshqa omillariga ko‘ra joylar(o‘rinlar) quyidagi sinflarga bo‘linadi:

- birinchi sinf (F)
- biznes sinf
- iqtisodiy sinf (U)
- boshqa.

Turistik maqsadda havo yo‘llari orqali amalga oshiriladigan sayohatlar muntazam, mavsumiy va bir martalik ko‘rinishlarda amalga oshiriladi. Milliy yoki alohida aviakompaniyalarda turli xil ko‘rinishdagi imtiyozlar joriy etilgan:

- mavsumiy;
- korporativ;
- bolali yo‘lovchilaruchun;
- guruh;
- yosh oilalar uchun va boshqa.

Ayniqsa JAYA (Butunjahon Aviatsiya yo‘lovchilar assosatsiyasi), yeTZ (Evropa turizm zanjiri) ning imtiyozli kartlari keng tarqalgan. Bunday kartlarga ega yo‘lovchilar uchun ba’zi aviakompaniyalarning (DELTA, SAS) aviachiptalari uchun, dunyoning 4000 ta eng yaxshi mehmonxonalari to‘lovi uchun, ijara ga olingan avtomobil to‘lovi bo‘yicha (30% gacha), yo‘qolgan chipta hujjatlarini qayta tiklash bo‘yicha, aeroportlarda VIP xonalaridan foydalanish, sug‘urta va boshqa imtiyozlar mavjud.

Suv yo‘li bo‘yicha turistlarning sayohati 250, 300 va 400 yo‘lovchiga mo‘ljallangan yuqori komfortga ega teploxdidlarda amalga oshiriladi. Kayutalar bir o‘rinli, ikki o‘rinli, 3-4 o‘rinli va lavozimga mo‘ljallangan turlarga ajratilgan. Bunday sinfdagi teploxdodlar (barcha) dam olish va barcha komfort atributlarga ega:

kayutalarda qulay yumshoq mebel, konditsionerlar, muzlatgichlar, mini-barlar, restoran-barlar, sauna, musiqali salonlar, video-kinozallar mavjud bo‘ladi. Suvdagti turistik sayohatlar va ekskursiyalar teploxdlardan tashqari daryo “tramvay”larida, yaxta, suv osti qayiqlarida, yelkanlarda, katamaranlarda, qayiqlarda, baydarkalarda va boshqalarda amalgga oshiriladi.

Temir yo‘l transportidan turizmda foydalanganda turistik sayohatlar¹² ta yo‘lovchi vagonlardan iborat bo‘ladi, 2-3 vagon restoran, vagon-klubga ega bo‘lgan maxsus harakat rejimi va yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanuvchi turistik bo‘limlarda amalgga oshiriladi. Ko‘pincha chet davlatlarda ekskursion turistik transport sifatida tramvay va uning retro-variantlari: trolleybus, kareti, dilishans va boshqalardan foydalaniladi. YUqoridagi barcha transport vositalari turistik kompaniyalarning o‘z mulki bo‘lmasdan, balki ulardan farqli ijara, lizing va h.k. asosida foydalaniladi.

5.3. Turistlarni avtobuslarda tashish tasnifi va qoidalari

Ommaviy turistik transport sifatida asosan avtobusdan foydalaniladi. YUqori komfortabelli turistik avtobuslardan shuningdek, uzoq yo‘nalishlarda ham foydalaniladi. (Toshkent-Moskva-Minsk-Varshava, Berlin-Parij). Bunday yo‘nalishlarda turistlar uchun tungi dam olish otel yoki motellarda tashkil etiladi.

Ichki yo‘nalishlarda turistik sayohatlarni tashkil etish quyidagi tartibda amalgga oshiriladi. Agar turistik kompaniyaning avtobusi yoki umuman shaxsiy transport vositalari bo‘lmasa, ular avtotransport korxonalari bilan shartnomaga tuzadilar.

SHartnomada ijara beruvchi va ijara chining majburiyatları; transportdan foydalanish predmeti; ijara muddati, ijara to‘lovi tizimi (vaqtbay, unumdonlik km. uchun kelishilgan va b.); o‘zaro hisob-kitob tartibi; haydovchi va sayohat olib boruvchi yoki shu bilan o‘zaro munosabati; shartnomani amalgga oshirishda tomonlarning javobgarligi; shu jumladan fors-major shartlari va h.k.lar (ko‘zda tutiladi) belgilab qo‘yiladi. Yo‘nalish pasporti yoki transport, turistik yo‘nalishning kartochkasi yuqoridagi shartnomaning ajralmas muhim qismi hisoblanadi.

Uzoq muddatlari sayohatlaruchun yumshoq o‘rindiqli, boshqariladigan kresloli, past shovqin va vibratsiya darajasi, iloji boricha ekonomik toza yoqilg‘i va h.k. larga ega bo‘lgan yuqori komfortabelli avtobuslardan foydalanish kerak, shuningdek yana

garderob, ojatxona, bar, xolodilnik, oshxona va .klarga ega bo‘lishi kerak. Avtobus mikro ilimiga talablar Davlat Standarti, sanitariya-gigiyenik normalarva xalqaro standartlarga muvofi o‘yqiladi. Infratovush darajasi shamoning istalgan nutasida 96 dB dan oshmasligi lozim. Avtobus o‘rindilari orasidagi masofa 80-85 sm bo‘lishi lozim.

Avtobus yon oynalari 2 avatli, determal oplhamali, tashi muit bilan salonning issilik almashuvini hamaytiruvchi bo‘lishi kerak. Bulardan tashari avtobus salonlarida individual yorulik, chuchuk suvni termos, ojatxona, yuvinish xonasi, garderob va .klarga esa alohida ism, bir necha monitorli televizor, videomagnitafon, radiotelefon va boshqa alkoa ulayliklari mayjud bo‘lishi kerak. Ichki yo‘nalishlarda marshrutning Uzoqligi, turistlarsoni, yo‘nalish kategoriyasi, komfort darajasi va .klarga ko‘ra turli avtobuslardan foydalanishadi. 35-40 kishilik turistik gurularuchun LAZ, IKARUS, Tham, MERSEDES va boshqa avtobuslarda xizmat ko‘rsatqiladi.

5.4. Xalqaro yo‘nalishlarda transport sayoatlarini tashkil ilish xususiyatlari

Xalqaro turistik sayohatlarni amalga oshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- yo‘nalishlar(marshrutlar) doimiy bo‘lishi kerak;
- mavsumiy yo‘nalishlar (marshrutlar);
- bir martalik (buyurtma) yo‘nalishlar (marshrutlar);
- chet elga ketuvchi va chet eldan aytib keluvchi turistlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi.

Doimiy yo‘nalishlar uchun quyidagi shartlar majburiy hisoblanadi:

- yo‘nalishning aniqligi;
- harakatlanish jadvali;
- harakatning muntazamligi;
- aniq punktlarda to‘xtash.

Doimiy xalqaro yo‘nalishlarda harakatlanish davlatlararo 2 tomonlama kelishuv asosida amalga oshiriladi, uchinchi davlat orqali tranzit esa transport bo‘yicha yevropa Iqtisodiy Komissiya qo‘mitasi ruxsati bilan amalga oshiriladi. 1973-yil 1-martda Jeneva Konvensiyasi doirasida “Yo‘lovchi va yuklarni

avtomobilda olib o‘tish shartnomasi to‘g‘risidagi konvensiya” qabul qilingan. Turistik sayohat davomida foydalanilayotgan avtobus haydovchisi yo‘lovchilarning birma-bir ismi, sharifi yozilgan ro‘yxatga ega bo‘lishi lozim. Avtomobil transporti vositasida xalqaro tashishni tashkil etishda quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- texnik yordam, remont va texnik xizmat ko‘rsatish (yo‘lda);
- bekatlar, yoqilg‘i quyish shaxobchasi, dam olish, ovqatlanish, tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;
- yo‘nalish trassasida aloqani tashkil etish va h.k.

YUkchilik yoki sug‘urta kompaniyasi:

- sug‘urta javobgarligi shartnomasi yoki qonunchiligidagi (nazarda tutilgan) belgilab o‘yilgan miqdorda, yo‘lovchining soliqgiga zarar yetkazganligi uchun;
- yukka zarar etish i yoki manzilga yetkazilmaganligi uchun;
- yukning yo‘qolganligi uchun va yuklar bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Jeneva konvensiyasiga binoan har bir jabrlanuvchi uchun maksimal zararni qoplash summasi 350 ming tilla frankdan oshmasligi kerak.

Turistik transport sayohatlari xalqaro miqyosda shuningdek, shaxsiy prokatga yoki ijara ga olingan avtomobilarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda sayohat mustaqil erkin dastur yoki masadli marshrut bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

Hayot uchun zarur barcha narsalar kompleksiga ega bo‘lgan pritsepli avtomobil vositadagi guruhli turizm “karavaning” deyiladi. Avtoturistlarga xizmat ko‘rsatishda quyidagi vositalar o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

rodtel –g‘ildirakdagi yo‘l oteli (avtopoyezd), bu yerda yo‘lovchi o‘rinlaridan tashqari uqlash uchun joylar, shuningdek oshxona mavjud;

kemping – avtoturistlar uchun lager, bu tunash yoki ozgina dam olish uchun xizmat qiladi;

motel - (yo‘lovchi) turist (va uning avtomobili) ning (ma’lum) Uzoq muddat istiqomat qilishi uchun mo‘ljallangan mehmonxona. Motelda turistlar uchun quyidagi sharoitlar yaratilgan bo‘lishi kerak, barcha qulayliklarga ega bekat, texnik xizmat ko‘rsatish shaxobchasi, avtomobilning ta’miri va yoqilg‘i quyish shahobchasi va h.k. Xalqaro turistik marshrutlarda yuqori sifatli va yuqori ekologik xarakterli

“MERSEDES”, “RENO”, “VOLVA”, “SETRA”, “MAN, DAF” kabi chet el avtobuslaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu avtobuslar xalqaro standartlarga to‘liq javob bera oladi.

Nazorat savollari

1. Turizmda transport sayohati nima?
2. “Yo‘lovchi va yuklarni avtomobilda olib o‘tish shartnomasi to‘risidagi konvensiyasi” qachon va qaerda qabul qilingan?
3. Transport sayohatlarining tavsiflanishi.
4. Turizmda keng tarqalgan transport turlari.
5. Turistik aviatsiya sayohatlari qanday amalga oshiriladi?
6. Xalqaro turistik yo‘nalishlarni amalga oshirishda qaysi avtobus turlaridan keng foydalaniladi?
7. Turistlarni temir yo‘l transporti vositasida sayohat qildirishning afzalliklari nima?
8. Turistik rodtel nima?
9. Turistik maqsadda havo yo‘llari orqali amalga oshiriladigan sayohatlar qanday xususiyatlarni tashiydi?
10. Doimiy yo‘nalishlar uchun qanday shartlar majburiy hisoblanadi?

6-MAVZU. TURISTLARGA INNOVATSION EKSKURSIYA XIZMATI KO‘RSATISH.

6.1. Turistlarga ekskursiya xizmati ko‘rsatish asoslari.

6.2. Ekskursiyaning turizmga bog‘liqligi

6.3. Turistlarning ekskursiya qilish maqsadi.

6.1. Turistlarga ekskursiya xizmati ko‘rsatish asoslari. Turistik xizmatlar tarkibiga ekskursiyalar, poxodlar ham kiradi. O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi Qonunida: "ekskursiya faoliyati - turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob‘ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ekskursiya yetakchisi (gid) hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarini tashkil etishga doir qismi", - deyilgan. Gid haqida esa: "gid (ekskursiya yetakchisi) - tur qatnashchilariga

turistik xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya - axborot, tashkiliy yo‘sindagi xizmatlar va malakali yordam ko‘rsatuvchi jismoniy shaxs", - deyiladi.

ekskursiya (ekcursion) - turistga va ekskursant (bir kunlik ziyoratchi) ga taklif qilinishi mumkin. Ekskursiya turistik xizmat bo‘lib, turistning estetik, ruhiy va boshqa qiziquvchanlik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ekskursiya mobaynida qatnashuvchilar olamni anglash, tabiat mo‘jizalarini, tarixiy obidalarni ko‘rishi, shahar va parklarda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Turizm ekskursiya bilan chambarchas bog‘liqdir. CHunki ekskursiya har bir turistik sayohatning fikriy ifodasidir. Odatda ekskursiya deganimizda, diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilish, tarixiy muzeylarni ko‘rish, arxeologik qazilma boyliklarni ko‘rish va boshqalar tushuniladi. Ekskursiya turli xil bo‘lib, quyidagilarga bo‘linadi:

1. Ekskursion sayohatlarni mazmunan quyidagi sinflarga ajratish mumkin, ko‘zdan kechirish, umumiylar, ko‘p rejali, mavzuli tematik, tarixiy, madaniyatshunoslik va boshqalar.
2. Qatnashuvchilar tarkibiga ko‘ra.
3. O‘tkazish joylari.
4. Harakatlanish uslubi.
5. O‘tkazish formasiga ko‘ra bo‘linadi.

Ekskursiyaning kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri turizmning rivojlanishi va jamiyat hayotida diniy ziyoratgohlar, haj marosimlari bilan bog‘liq tarixning ommaviylashganligidir, keyinchalik murakkab va turli xil xalqlarning ehtiyojları (turli xil madaniy manbalarga, tarixiy meroslarga va hakozo) o‘zgardi. SHunday qilib, qiziqish ehtiyojning aniqlovchi omili bo‘lib xizmat qilgan. SHu ma’noda sayohat, jamiyatning rekreatsion - tanishish ehtiyojlaridan kelib chiqish formasi va qondirish usuli bo‘ladi. Sayohatlarni rivojlantirishning asosiy sabablari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi. Jamiyat umumta’lim saviyasining oshganligi, bo‘sh vaqtini ko‘paytirish, individual reja bo‘yicha dam olishni tashkil qilishning yangi imkoniyatlarini paydo bo‘lishi.

3. Hozirgi paytda turizm va ekskursiyani taddiq qilib quyidagi turlarga ajratishmokda: siyosiy (jamiatning qaysi tabaqalari turizm va sayohatga qatnashmokda); iqtisodiy (turizm va sayohatlar iqtisodiyoti sifatida “turizm industriyasi”); geografik (turizm va sayohatlar uchun territoriyalarni turga ajratish va foydalanish); tashkiliy (turizmni kim boshqaryapti); xalqaro-siyosiy; tibbiy; gumanitar. Ekskursiyada asosiy hikoya formalariga bo‘lib tasvir, ketma-ketlik, sanash va ob’ektlar to‘g‘risida ma’lumotlarni tushuntirish, o‘zaro ichki bog‘liqlik va bog‘lanishlar mazmunini oolib berish, izohlash, jarayon mobaynida diqqatni ob’ekt xususiyatlariiga qaratish, ko‘rsatma berish, ob’ekt kuzatuvining to‘g‘ri olib borilish bilan bog‘liq ekskursovod tavsiyalari kiradi.

Ekskursiya shaharlararo sayohat qilishning norasmiy formasi hisoblanadi. Munosabatlar sayohat jarayonida yuzaga keladi va uning bosqichlari bilan birga rivojlanib boradi. Ekskursiya jarayonida munosabatlarning ochiq xarakterdaligi, ijtimoiy sinflarning yo‘qligi, har bir turist munosabatining qamrovini keng aytilish muhimdir. Ekskursiya bu xususiyatlarni spetsifik vositalar yordamida yetkazilishini ta’minlaydi. SHunday qilib, auditoriya doimiy ravishda ekskursovod va ob’ektlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Sayohat esa o‘z o‘rnida ekskursovod, ob’ektlar va ekskursantlar munosabatlarining natijasidir.

6.2. Ekskursiyaning turizmga bog‘liqligi

Turizm ekskursiya bilan chambarchas bog‘liqdir. CHunki ekskursiya har bir turistik sayohatning fikriy ifodasidir. Odatda ekskursiya deganimizda diqqatga sazovor joylarni ziyorat ilish, tarixiy muzeylarni ko‘rish, arxeologik qazilma boyliklarni ko‘rish va boshqalar tushuniladi. Ekskursiya turli xil bo‘lib, quyidagilarga bo‘linadi:

1. Ekskursiya sayohatlarini mazmunan quyidagi sinflarga ajratish mumkin, ko‘zdan kechirish, umumiylar, ko‘p rejali, mavzuli tematik, tarixiy, madaniyatshunoslik va boshqalar.
2. Qatnashuvchilar tarkibiga ko‘ra.
3. O‘tkazish joylari.
4. Harakatlanish uslubi.

5. O‘tkazish shakliga ko‘ra bo‘linadi.

Ekskursiyaning kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri turizmning rivojlanishi va jamiyat hayotida diniy ziyoratgohlar, haj marosimlari bilan bog‘liq tarixning ommaviylashganligidir, keyinchalik murakkab va ko‘p xil xalqning ehtiyojlari (turli xil madaniy manbalarga, tarixiy me’roslarga va hokazo) shakllarga o‘zgardi. SHunday qilib, qiziish ehtiyojning aniqlovchi omili bo‘lib xizmat qilgan. SHu ma’noda sayohat, jamiyatning rekreatsion - tanishish ehtiyojlaridan kelib chiqish formasi va qondirish usuli bo‘ladi. Sayohatlarni rivojlantirishning asosiy sabablari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi. Jamiyat umumta’lim sa’viyasining oshganligi, bo‘sh vaqt ni ko‘paytirish, individual reja bo‘yicha dam olishni tashkil qilishning yangi imkoniyatlarini paydo bo‘lishi ahamiyatga ega. Hozirgi paytda turizm va ekskursiyani tadqiq qilishni quyidagi turlarga ajratishmoqda: siyosiy (jamiyatning qaysi tabaqalari, turizm va sayohatga qatnashmoqda); iqtisodiy (turizm va sayohatlar iqtisodiyoti sifatida “turizm industriyasi”); geografik (turizm va sayohatlar uchun territoriyalarni turga ajratish va foydalanish); tashkiliy (turizmni kim boshqaryapti): xalqaro-siyosiy; tibbiy; gumanitar. Agroturizm bo‘sh sharoitlardagi (faoliyat) harakat turi sifatida yuzaga chiqsa, sayohat esa ana shu harakatni tashkil qilish formasida namoyon bo‘ladi. SHunday qilib, ekskursiya-turizmning asosiy turi hisoblanadi. Ekskursiya har xil mavzular bo‘yicha sinflantiriladi. Ekskursiyalarning asosi bo‘lib axborot hisoblanadi. Axborot manbaalarini bir qancha guruhlarga ajratish mumkin:

- tabiyat jismlari, landshaftlar, tabiyatning antiqa xususiyatlari;
- ob’ektlar, diqqatga sazovor joylar va mintaqalar;
- milliy-etnografik boyliklar;
- tarixiy ahamiyatga ega joylar.

Ekskursiya tayyorgarlik sayohatning asosiy mazmunini ochib berish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumot. Bularga: bevosita (sayohat, ko‘rgazma ob’ektlari) va vositali (ekskursovod matni) ma’lumotlarkiradi. Ekskursiya uchun ob’ektlar tanlash, ularning tarixiy mohiyati va madaniy-tarixiy qiymatiga bog‘liq. Ob’ektlarni o‘zlashtirishda turli xil tushunchalar paydo bo‘lishi mumkin. Ekskursovod nafaqat ob’ektlarni ko‘rsatishi, balki ularning mazmunini o‘z so‘zlarida ochib berishi kerak.

Ob'ektni ko'rsatish ekskursiyachilarni diqqatini jalb qilish sifatida namoyon bo'lsa, uning tahlilini so'zlarda olib berishi va yana ko'p boshqa ahamiyatga jalb etadi. Ob'ektning ko'rsatilishi va uning boshqalaridan xususiyatlari ko'ra ajratilishi tahlil deyiladi. Tahlil davomida ekskursiyachilar ob'ektning tanilishidan uning xususiyatlarini bilish, sifati, munosabatlari va keyinchalik, chuqurroq tanishishi bilan tugaydi. Ob'ekt tahlilida uni ismlarga ajratish tushiniladiki, u sayohat davomida ob'ekt ekskursiyachilaridan batafsilro tasavvur ilinadi. Ko'rsatish, talil va ko'zatish bir yo'nalishda olib borqiladi. Ob'ekt ni talil ilish uslublari va ko'zatish Ekskursiya mavzusiga boli: ob'ekt arakteri, Ekskursiyada tutgan o'rni va ahamiyati, bilim darajasi, ishlash tajribasi, Ekskursiyachilariziishlariga boli, Ekskursiyada bilimning asosiy manbai bo'lib so'z xizmat qiladi.

6.3. Turistlarning ekskursiya qilishdan masadi

Ekskursiyada asosiy hikoya formalari bo'lib tasvir, ketma-ketlik, sanash va ob'ekt lar to'g'risida ma'lumotlarni tushuntirish, o'zaro ichki bog'lilik va bog'lanishlar mazmunini olib berish, izohlash, jarayon mobaynida diqqatni ob'ekt xususiyatlari qaratish, ko'rsatma berish, ob'ekt kuzatuvining to'g'ri olib borilishi bilan bog'liq ekskursovod tavsiyalari kiradi. Ekskursiya shaharlararo sayohat qilishning norasmiy formasi hisoblanadi. Munosabatlar sayyohat jarayonida yuzaga keladi va uning bosqichlari bilan birga rivojlanib boradi. Ekskursiya jarayonida munosabatlarning ochiq xarakterdaligi, ijtimoiy sinflarning yo'qligi, har bir turist munosabatining qamrovini keng aytirish muhimdir, ekskursiya bu xususiyatlarni spetsifik vositalar yordamida yetkazilishini ta'minlaydi. SHunday qilib, auditoriya doimiy ravishda ekskursovod va ob'ektlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Sayohat esa o'z o'rnida ekskursovod, ob'ektlar va ekskursiyachilar munosabatlarining natijasidir. Ekskursiya davomida auditoriyani ajratuvchi va birlashtiruvchi belgilar paydo bo'ladi. Birlashuvchi belgilarga Ekskursiyachi va ekskursovod orasidagi munosabatning mavjudligini ko'rish, eshitish, umumiylig issiq, bir-biriga ta'sir etish (emotsiya) umumiyligini diqqatning jalb etilishi sayohatga qadar to'plangan turistlar auditoriyani tashkil qilmaydi. U faqat diqqatning bir joyga jalb qilinishidan keyingina ekskursovod auditoriya hamohangligi, ularning psixofiziologik va ijtimoiy

hamoangligi sharoitida kayfiyatning yaxshi bo‘lishi, ularning barchasi ekskursiyaning yaxshi kechishi uchun zamin yaratadi. Ma’lumki, ekskursiyachilar tushunchasi turlichadir. Ekskursiyachilar tushunchasi darjasini aniqlash uchun tipologik guruhlar qo‘llaniladi: tajatdan ekskursiyachilar sayohat mavzusi bilan qiziqib va kerakli ma’lumotlarni olish uchun intilganlar.

Ekskursiyachilar, qaysiki sayohatni kutib va eshitibgina qolmay, balki bunda faol qatnashishni xolaydilar, lekin ba’zi sabablarga ko‘ra, sayohatga yomon kayfiyatda kelishadi va sayohatni buzishga qodirdirlar. Ular sayohatga o‘zlarining hohishisiz kelishgan. Bu ekskursiyachilarni layoqatsiz deb atash mumkin, chunki ular sayohatga ko‘p ham qiziqmaydilar. Bular ekskursavodlar dushmanidir. Kasb yoki ma’lumotiga qarab ekskursiyachilar auditoriyasi tarkibi bir xil bo‘lishi mumkin. Ekskursiyachilardiatini sayohatga jalb ilish uchun o‘ylash, qabul qilish yoki tushunish, xotira, ma’no va ekskursavoddan kelayotgan ma’lumotlarni qayta ishslash va o‘zlashtirish, psixologik jarayonlarda aniqlanadi.

Nazorat savollari

1. Turistlarga Ekskursiya tashkil ilish nima?
2. Ekskursiyaning turizmga bog‘liqligi nima?
3. Turistlarning Ekskursiyadan maqsadi nima?
4. Ekskursiya qanday turlarga ajratiladi?
5. yekskursion sayohatlarni mazmunan qanday sinflarga ajratiladi?
6. Qatnashuvchilartarkibiga ko‘ra ekskursiya nima?
7. Ekskursiyaning o‘tkazish joylari qanday bo‘lishi kerak?

7-MAVZU. TURIZM MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH

FAOLIYATLARI.

- 7.1.Turizmda marketing faoliyatlarining boshlanishi.**
- 7.2. Turizm marketingining ta’rifi.**
- 7.3. Mehmonxona xo‘jaligi marketingi.**
- 7.4.Turizm marketingining zarurligi.**

7.1.Turizmda marketing faoliyatlarining boshlanishi. Turizm industriyasida marketing faoliyatları XIX asr oxirlarida, tunash va sayohat byurolari bilan birgalikda Angliya va keyinchalik yevropa qit'asida amalda qo'llanila boshlagan. Turizm marketingining tizimli (tizimtik) bir shaklda inobatga olinishi va o'rganilishi 1950 yillarda yevropada amalda qo'llanilgan. Ikkinci jahon urushigacha iste'mol soha bo'lган turizm tarmog'i, urushdan keyin yevropadagi sanoatlashuv harakati bilan birga rivojlanishga va tarqalishni boshlagan. Iste'molchilarning sotib olish imkoniyatlari ortgan va turizm tarmog'i xalqaro xususiyat qozonib, talab va taklif muvozanati buzilishni boshlagan. 1936 yildan e'tiboran, yevropada pullik ish haqining berilishi bilan ishchilar, mutaxassislar ta'tilga chiqib turizm harakatlariga qatnashganlar. Tunash muassasalarida o'zgarish ortgan, yangi tunash tarmoqlari yuzaga kelgan. Sayyohat qilgan insonlar soni har yili tez sur'atlarda ortib borgan. Ta'tilga chiqish nisbati yevropada jami aholining 60% ini tashkil qilgan.

Xususan, 1970 yillardan keyin talabni jonlantirish uchun turizm marketingi tadqiqotlariga e'tibor berilgan. Marketing, mahsulotning bozorda iste'molchi bilan qqrashilash ishi va bir- birlari bilan teng lashishidir degan edik. Turizm marketingini turistik xizmat yoki mahsulot bilan turizm bozori shakllantiradi.

Turizm bozori geografik nuqtai nazardan ikki qismiga milliy va xalqaro turizm bozoriga ajratiladi. Bozordagi iste'molchilar turist deb ataladi. Turizm marketingida mahsulotga qaraganda xizmatning bozorlanishi asosiy hisoblanadi. Turizmda ishlab chiqarilgan xizmatlar juda turli xil xizmatlarning yig'indisidan tashkil topmoqda.

2. Turizm marketingi, milliy turizm tashkilotlari yoki turizm muassasalarining, milliy va xalqaro tartibda turistlarning ehtiyojlarini (optimize) his etishga qarab tizimli va birlikli qarakatlardan tashkil topmokda. Insonlarning bo'sh vaqtlarini qadrlash maqsadida ish, oila, konferentsiya maqsadlarida bir mintaqada, o'lkada yoki mamlakatlar orasida sayohat etish hohishi va ehtiyoji turistik korxonalarining tashkil topishiga sabab bo'lgan. Bu korxonalar, iste'molchi bo'lган turist guruhlarini eng yaxshi sharoitlarda sayohat qildirish maqsadida bir qancha uslublar va texnikalar yaratmokda. Boshqa bir turizm marketingi ta'rifi quyidagicha izohlanadi:

“Turistik mahsulot va xizmatlarni turizm vositalari yordamida mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro rejada ishlab chiqaruvchining va iste’molchi bo‘lgan turistga oqimi va yangi turistik iste’mol ektiyojlari va takliflarining yaratilishi bilan bog‘liq faoliyatlarining yikindisi turizm marketingidir”. Demak, turizm marketingi, turistik ektiyojlarni qarshilaydigan mahsulot va xizmatlarning turistga takdim etilishi va sotilishi bilan bog‘liq harakat hisoblanadi. Mehmonxonalarining maqsadi foyda olish bilan birga xaridorlarning ektiyojlarini kqarshilash va ularni mamnun etishdir.

3. Turizm sektorida yetishtirilgan mahsulot va xizmatlarning marketingida industriya mahsulotlarining marketingidan farqli ba’zi xususiyatlar bo‘lmokda. Mehmonxona xonalari uchun bo‘lgan talab o‘zgaruvchan talabdir. Mavjud mehmonxona mahsulotlarining eng ahamiyatlisi bo‘lgan mehmonxona xonalari, yer va makon moqimidan barqarordir. Talab kamaygan vaqtida bo‘s sh hajm yuzaga keladi va talabning eng yuqori bo‘lgan vaziyatlarida mutlako ma’lum bo‘lgan ustki sig‘im chegarasi bor, bu chegaradan o’tilmaydi. Mehmonxonachilik asosidagi marketing, eng oldin bozorning uyg‘unligi va izlanish yo‘li bilan talabning qozonilishiga ega bo‘ladi. Bu izlanish, mehmonxona uchun eng yaxshi bozor imkonini, bozordagi bir joyni yoki alternativ joylar orasidagi mehmonxonalardan birortasini saylashni belgilaydi yoki ma’lum bir joyda quriladigan eng yaxshi mehmonxona shaklini ta’minlaydi. Marketing mehmonxona muassasi bilan davomli bozor izlanishi, mahsulot etish tirish, sotish, tartiblik va ko‘zdan kechirish kabi marketing bosqichlari bilan aloqada bo‘ladi. Mehmonxonalar insonlarga xizmat ko‘rsatish maqsadida kurilgan tijoriy tashkilotlardir. Marketing negizi mehmonxonachilar tomonidan yangi qabul qilina boshlangan. Ba’zilari marketingni bir xil ma’noda ko‘rishda davom etmokda. Biror mehmonxona, mehmonxona xizmatlaridan foydalanganlarning ehtiyojlarini qarshilay olishi, shaxsiy mehmonxona xizmatlari ma’lum bozorlarga sotilgan mehmonxona mahsulotlari bo‘lib qurilishi kerak. Har bir mehmonxona ma’lum bozor bo‘limlari va o‘z mahsulotlari orasidagi teng lashtirishni bajarishi kerak. Bajarilish uchun ham mehmonxona xizmatlariga qarshi kelgan talab tahlil qilinish kerak.

4. Oxirgi yillarda iqtisodiy o‘zgarishlar va yangi texnikalarning rivojlanishi korxonalarining xizmat va mahsulotlarni marketing shakllarida va korxona boshqaruvarlarda ahamiyatli o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Kompyuter texnologiyalaridagi rivojlanishlar ba’zi turistik masofalarning oldingi rejaga chiqishiga sabab bo‘ldi. Iste’molchi munosabatlaridagi o‘zgarishlar va boshqa omillar korxona xo‘jayinlariga xaridorlarning kutish vaqtlarini o‘tganini, endi o‘zları borib xaridorlarni izlash va ularni o‘zlariga jalb qilishi kerakligini tushina boshladilar. Bu jarayon restoran yoki mehmonxona kabi sayohat byurosi uchun ham taalluqlidir.

7.2. Turizm marketingining ta’rifi

Turizm marketingi, milliy turizm tashkilotlari yoki turizm muassasalarining, milliy va xalqaro darajada turistlarning ehtiyojlarini (optimize) qarshilishiga qarab tizimli va birlikli harakatlardan tashkil topmoqda. Insonlarning bo‘sh vaqtlarini qadrlash maqsadida ish, oila, konferentsiya masadlarida biror mintaqada, o‘lkada yoki mamlakatlar orasida sayohat qilish xohishi va ehtiyoji turistik korxonalarining tashkil topishiga sabab bo‘lgan. Bu korxonalar, iste’molchi bo‘lgan turistik guruhlarni yerlarda, eng yaxshi sharoitlarda sayohat qildirish maqsadida bir qancha uslublar va texnikalar yaratmoqda. Boshqa bir turizm marketingi ta’rifi quyidagicha izohlanadi:

“Turistik mahsulot va xizmatlarni turizm vositalari yordamida mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro rejada ishlab chiqaruvchining va iste’molchi bo‘lgan turistning oqimi yangi turistik iste’mol ehtiyojlari va takliflarining yaratilishi bilan bog‘liq faoliyatlarining yiindisi turizm marketingidir”. Turizm marketingi turistik ehtiyojlarni qarshilaydigan mahsulot va xizmatlarning turistga taqdim etilishi va sotilishi bilan bog‘liq harakat hisoblanadi. Mehmonxonalarning maqsadi foyda olish bilan birga xaridorlarning ehtiyojlarini qarshilash va ularni mamnun etishdir.

Marketing uzluksiz davom etuvchi bir jarayondir. Turistik mahsulot va xizmatlar turistga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchi turistik korxonalar tomonidan yoki vositachi firmalar, sayohat byurolari yoki turoperatorlar tomonidan sotiladi. Turizm marketingida turistlarning yangi ehtiyojlari davomli ravishda izlanilishi va o‘rganilishi kerak. Sayyohning ehtiyojlari birinchi rejada tutiladi. Boshqa bir

mahsulot yoki xizmatlarga ko‘ra turizmning ahamiyatli xususiyatlar tashishi, marketingning bu sohada qo‘llanishini juda kerakli olg‘a keltirgan. Turizm mahsuloti, boshqa tovar va xizmatlardan farqli o‘larоq boshqa muassasalarga qaraganda tugallanuvchi bir aralash mahsulot xususiyatiga egadir. Turistik mahsulotga qarshi bo‘lgan turistik talab ham ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga qarshi e’tiborli bo‘lib katta bir elastiklik ko‘rsatadi. Turizm taklifining tashilmaydigan (mehmonxona) xususiyatda bo‘lishi, turistik xizmatlarning joyida tugatilishi natijasini tug‘dirmoqdadir. Turizm mavsumi oxirida mehmonxona, samolyot va boshqa ba’zi vositalarni boshqa bir mintaqaga tashish imkonи yo‘q. Turizm marketingiga bog‘liq harakatlarning maqsadlarini asosiy marketing maqsadlariga mos qilib 3 ta guruhda jamlash mumkin:

- a) mavjud bozorni saqlash, boshqa bir ifoda bilan korxonaga yoki mamlakatga yo‘naltirilgan turizm talabini eng kamida bir xil darajada tutish;
- b) Bozordagi potentsial talabni harakatchan talab shakliga aylantirish, ya’ni turizmga qatnashadigan imkoniyatlarga ega bo‘lgan, faqat buni haligacha ro‘yobga chiqarolmagan tashkilotlarni turizmga jalb qilish;
- v) yangi bozorlar yaratish, oldindan bilinmagan, o‘rganilmagan yoki keraklicha qiymatlantirilmagan bozorlarga kirish, boshqa korxonalarga yoki mamlakatlarga yo‘naltirilgan turistik talabni jalb qilib turistik mahsulotlarni sotish sohasini keng aytirish.

7.3. Mehmonxona xo‘jaliklari marketingi.

Mehmonxona biznesida turistik mahsulot yoki xizmatni sotishni ifodalovchi ikki tushuncha – shaxsiy va korporativ sotuvtar tushunchalari mavjud.

SHaxsiy sotuv deganda mehmonxona korxonasingning o‘zi ko‘rsatadigan xizmatlarni sotish maqsadida bir potentsial xaridor yoki xaridorlar guruhi bilan bevosita aloqa qilishi tushuniladi. SHaxsiy sotuvtar sotishning ancha qimmat, lekin samarali usuli hisoblanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: potentsial xaridorlar yoki buyurtmachilarni izlash, ularga xizmatlar namoyish etilishini tashkil qilish, muzokaralaro‘tkazish va sotuvtarni yakunlash – xizmatlar ko‘rsatishga shartnoma tuzish.

Korporativ sotuv deganda xizmatlarni vositachilar orqali sotish tushuniladi. Masalan, bir necha mehmonxona bitta savdo vakili xizmatlaridan foydalanadi. Mazkur vakil ular taklif qilgan xizmatlarni potentsial xaridorlar e'tiboriga havola etadi. Bunday sotuv g'oyasi shundan iboratki, muayyan mehmonxona o'zi uchun muhim bo'lgan bozorni tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo'lmashligi mumkin, katta bir tarmoqdan iborat vositachilik firmasining savdo xodimlari esa mazkur tarmoq tarkibiga kiruvchi barcha mehmonxonalarini (bu mehmonxonalar tarmog'i bo'lmashligi ham mumkin) muayyan turistik bozorda tavsiya etishi va sotishi mumkin.

Sotuvlar va marketing bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, ular ish faolligining har xil funktsiyalarini bajaradi. Ular o'rtasidagi farqlarni va ularning o'zaro aloqasini tushunish lozim.

Marketing:

- to‘g‘ri mahsulot;
- to‘g‘ri joyda;
- to‘g‘ri vaqtida;
- to‘g‘ri narxda mavjudligini va xaridor mazkur mahsulot mavjudligini bilishiga bo‘lgan ishonchni anglatadi.

Sotuvlar xaridor shaxsiy aloqa qilish orkali o‘z ehtiyojlariga yoki tashkilotning ish maqsadlariga mos keladigan mahsulot yoki xizmatni olish haqida qaror qabul qilganini anglatadi.

Mehmonxona xizmatlari mahsuli o‘ziga xos va betakrordir. U moddiy bo‘lishi (restoranda tushlik), ammo xizmat ham bo‘lishi (nomerni tozalash), shuningdek ikkalasining kombinatsiyasi bo‘lishi mumkin. Mehmonxona xizmatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega

Mehmonxona mahsuli – egallash, foydalanish yoki iste’mol qilishchun bozor xaridor e’tiboriga havola etish mumkin bo‘lgan narsalar majmui. U fizik ob’ektlarni, xizmatlar, joylar, tashkilot va g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, mehmonxonada bo‘lish haqidagi umumiy tasavvur turist yoki biznesmenda u safarga chiqishidan ancha oldin shakllana boshlaydi va vizalar, sayohat usullari, milliy madaniyat,

taomlar, dam olish joylarining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga oladi.

Mehmonxona mahsulining ham, turistik mahsulning ham rang-barangligi faqat shaxs ijodiy fantaziyasining imkoniyatlari bilan cheklanadi. Agar mehmonxona korxonasi o‘z xizmatlari kombinatsiyalarining variantlari qolmagan deb hisoblasa, raqobatdosh firmalar bilan hamkorlikda yangi xizmatlar ishlab chiqishi, masalan, nomer bilan birga paketga restoran xizmatlarini, avtomashina ijarasini, teatrga chiptani, ekskursiyani va sh.k.ni kiritishi mumkin.

Mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlari marketing va sotuvlar paytidagi xulq-atvorga mahsulotning narxiga va uning bozordagi harakatiga nisbatan ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, turistik mahsulotga boshqa ko‘pgina mahsulotlarning xususiyatlari xosdir.

Mahsulotlar hayotining muayyan davomiyligi mavjud emas. Ayrim mahsulotlar qiska vaqt muomalada bo‘lsa, ayrim mahsulotlarga talab bozorda uzoq yillar mobaynida mavjud bo‘ladi.

Mahsulotning hayot tsikli besh bosqichdan tashkil topadi:

1. Mahsulotni ishlab chiqish – yangi mahsulot g‘oyasining topilishi va ta’riflanishi davri. YAngi mahsulot ishlab chiqilayotgan davrda uning sotuvlari nolga teng bo‘ladi, kompaniya investitsiyalari esa ko‘payib boradi.

2. Joriy etish – mahsulot bozorga chiqarilganidan keyin sotuvlar asta-sekin o‘sib boradi. Mazkur bosqichda kompaniya foyda olmaydi.

3. O‘sish – mahsulot bozorda keng tarqaladi va kompaniya daromadlari o‘sib boradi.

4. yetuklik – sotuvlarning o‘sishi to‘xtaydigan bosqich, chunki shu davrgacha mahsulotni potentsial xaridorlarning aksariyati olgan bo‘ladi. Mahsulotni raqiblardan himoya qilish uchun marketing xarajatlari oshishi natijasida daromadlar o‘sish davridagi daromadlar miqdori bilan teng lashadi yoki ulardan kamayadi.

5. Tanazzul – sotuvlar va daromadlar keskin kamayadigan davr.

Mehmondo'stlik sanoatining barcha mahsulotlari ham shunga o'xshash va barcha uchun yagona andozaga ko'ra rivojlanavermaydi. Ayrim xizmatlar juda tez amalga joriy etilishi va shunday tez g'oyib bo'lishi mumkin. Masalan, tungi klublar, qoida tariqasida, nisbatan ham hayot tsikliga ega bo'ladi.

Mehmonxona biznesida ko'pincha ayrim mehmonxonalar inqirozga uchraydi. Kapital ta'mirlash yoki to'la rekonstruktsiya qilish ularga yana o'z jozibadorligini tiklash imkonini beradi; yangi o'sish bosqichi boshlanadi.

Mehmondo'stlik sanoatining boshqa mahsulotlari (masalan, kazino) yetuklik bosqichida uzoq vaqt qolishi mumkin.

Aksariyat kompaniyalar zarur vaqtida bozorga kirishda foydalanishi mumkin bo'lgan bir necha mahsulotlar va xizmatlarga ega. Bu usul ko'pincha mahsulotning yetuklik bosqichini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi.

Mahsulot hayot tsikli kontseptsiyasi mahsulotning bozordagi faoliyatini tavsiflash uchun ham foydali. U mahsulotdan foydalanish muddatini belgilash vositasi emas, balki bozorning, bozor muhitining ishlashini va raqobatni anglab yetish, shuningdek bozor kuchlari ta'siriga mahsulotning reaktsiyasini bashorat qilish usuli hisoblanadi.

Marketing va sotuqlar bo'limi mehmonxona tuzilmasida nisbatan yaqinda paydo bo'ldi, ammo uning roli shiddat bilan ortib bormoqda. AQSHda hozirning o'zidayoq istiqbolda mehmonxona bosh direktori lavozimini egallashning eng qisqa yo'li marketing va sotuqlar bo'limi boshlig'i lavozimida ishlash hisoblanadi (Buyuk Britaniyada — moliya departamentidagi faoliyat, Germaniyada esa Xauskipingda).

Aytib o'tilgan bo'limning asosiy vazifasi — mehmonxona ish yuklanmasini oshirishdir. Xodimlar soni, qoida tariqasida, odatda 10 kishigacha bo'ladi, ana shulardan 1—2 xodim marketing tadqiqotlari bilan shug'ullanadi, qolganlari esa sotuqlar bo'yicha menejerlar bo'lib, ular ish vaqtining qariyb 90%ini oteldan tashqarida mehmonxona xizmatlari ulgurji xaridorlarini axtarib topishga sarflaydilar(turistik firmalar, ko'plab mijozlar keluvchi yirik kompaniyalar, kongresslar tashkilotchilari va hokazo).

Marketing xizmati vazifalari sirasiga mehmonxona eng ko‘p muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin bo‘lgan segmentlarni belgilash, mijoz profilini tuzish va mijozni jalg etish metodlarini belgilash kiradi. Mijoz profili (portreti) ma’lum ma’noda «o‘rtachalashtirilgan» odatdagি mijozni tavsiflovchi alomatlar ro‘yxatidir (yoshi, daromadi, millati, mashg‘ulotlar turi, kelish sababi, qachon yetib keladi va jo‘nab ketadi, mehmonxona servisida nimalarni qadrlaydi, odatlari va hokazo). Anketalarni qayta ishlash natijalariga qarab xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash bo‘yicha mehmonxona rahbariyatiga takliflar ishlab chiqiladiki, bu narsa ish yuklanmasini, demak, otel daromadlarini oshirishga shart-sharoit yaratib berishi kerak. To‘g‘ri, ta’kidlash joizki, anketalar qaytarilishi foiz juda ham past bo‘ladi — taxminan 5%и mehmonxona narx siyosatini belgilash sanaladi (mijozlarni jalg etish uchun asosiy tarix va turli siyovlarni belgilash).

Mehmonxonalar xizmatlari bozorida otel mavqeining har qanday ko‘ngilsiz o‘zgarishlarida (masalan, rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar ifodasiga nisbatan real ish yuklanmasi kamayishi) marketing bo‘limi bozorni tahlil qiladi, sabablarni aniqlashtiradi va mehmonxona mavqeini yaxshilash yuzasidan rahbariyatga chora-tadbirlar taklif etadi. Reklama kampaniyasini kuchaytirish, tasnifotni o‘zgartirish (har ikkala tomonga), xizmatlar ro‘yxatini o‘zgartirish va hokazolar chora-tadbir sifatida qo‘llanishi mumkin. Biroq, odatda marketologlar miyasiga birinchi bo‘lib keladigan narsa, yashab turishga oid tarifni pasaytirish hisoblanadi. Tabiiyki, narxlarni pasaytirish otel xizmatlariga talabni oshirishning nihoyatda samarali metodidir, ammo tarif pasaytirilishi «pasaytirib yuboruvchi spiralsimon» hodisani ham keltirib chiqarishi mumkin. Tarif pasaytirilishi mehmonxona daromadi kamayishini keltirib chiqaradi. Okibatda esa, otel rahbariyati sarf-xarajatlarni kamaytirishga majbur bo‘ladi. Sarf-xarajatlarni kamaytirishning eng oddiy usuli esa shtatlarni qisqartirishdir. Ammo xizmatlar sonini ham kamaytirish odatda xizmat ko‘rsatish sifati yomonlashuviga olib keladi. Basharti, otel xizmat ko‘rsatish sifatini pasaytirsa, u tariflarni tag‘in pasaytirishga majbur bo‘ladi va hokazo.

Narxlardan siyovlardan tashqari otellar marketing strategiyalari doimiy mijozlarni taqdirlashga oid turli-tuman dasturlardan foydalanadiki, ular mijoz tanlab

olishiga qarab gal dagi tekin xizmatlardan ballar jamg‘arishga asoslangan bo‘ladi, chunonchi: mijoz otelda chiqim qilingan har bir summa uchun ma’lum miqdorda ochkolar oladi (nomer uchun, restorandagi tushlik, mashinani ijaraga olgani uchun va hokazo). Mehmonga olgan ballar miqdoriga sertifikat yozib beriladi. Ma’lum miqdorda ballar to‘plagan mehmon u yoki bu xizmatdan bepul foydalanishi mumkin (bepul desert yoki hatto restoranda kechki ovqat, aeroportga bepul transfer yoki xizmatlar narxlaridan siyovlar va hokazo). Otel mijozlarini taqdirlashga oid bunday dasturlar ba’zida aviakompaniyalarning tegishli dasturlari bilan birlashtiriladi.

Sotuvlar bo‘yicha menejerlar yangi mijozlarni axtarishni amalga oshiradilar, mavjud mijozlar bilan shartnomalar tuzadilar va munosabatlarni saqlab turadilar. Ular o‘rtasida majburiyatlar taqsimoti odatda funksional alomatlar(turistik firmalar bo‘yicha menejer, kompaniyalar bo‘yicha menejer, kongresslar bo‘yicha menejer) bo‘yicha amalga oshiriladi. Binobarin, masalan, muomala va muloqot tillari bo‘yicha taqsimot bo‘lishi ham mumkin.Hali aytib o‘tilganidek, marketing xizmati tarkibiga bronlashtirish guruhi ham kirishi mumkin va har holda unda guruhli bronlashtirish bo‘yicha menejer bo‘ladi, ana shu menejer delegatsiyalar, turistlar guruhlari, konferentsiyalar va hokazolarga xizmat ko‘rsatilishi bo‘yicha mehmonxona bo‘linmalari ishini muvofiklashtirib turadi.

Potentsial mijoz bilan shartnoma tuzayotganda sotuvlar bo‘yicha menejerning asosiy quroli esa korporativ tarifdir. Boshqacha aytganda, basharti, mijoz yil davomida mehmonxonaga musofirlarning ma’lum nafarini yetkazib berish majburiyatini zimmasiga olsa, otel tarifdan siyovlarberishni va’da qiladi.

Yil o‘tib borishi bilan menejer u yoki bu firma qancha mijoz «etkazib bergen»ni ko‘zdan kechiradi va keyingi shartnomaga tegishli o‘zgartishlar kiritadi (mehmonlar qancha ko‘p yetkazib berilgan bo‘lsa, siyovlar ham shuncha ko‘proq havola etiladi).

Menejerlar har hafta mehmonxona direktoriga hisobot beradilar. Mehmonxonada shuningdek takroriy tashriflarni ta’minalash maqsadida otel mehmonlarining komp’yuter hisobi ham yuritiladi, mijozlarning tug‘ilgan kuni aniqlashtiriladi (ma’muriyatdan sovg‘a-salom), doimiy mijozlarning odatlariga e’tibor qaratiladi. Mabodo mijoz mehmonxonaga, masalan, 50 marta qo‘ngan bo‘lsa,

ana shu yubiley tashrifida unga bepul nomer-lyuks unga tabriknomalar va suvenirlar bilan birga taqdim etiladi.

Personal bo‘limi bilan birgalikda marketing bo‘limi u yoki bu darajada mijozlar bilan muloqotda bo‘ladigan otelning barcha xodimlari o‘qitilishini amalga oshiradi. Bunday o‘qitish maqsadini quyidagicha ta’riflab berish mumkin: «har bitta xizmatchi otel xizmatlari «sotuvchi»si bo‘lishi lozim, ya’ni, agar mijoz istalgan savol bilan har qanday xizmatchiga murojaat qilgudek bo‘lsa, xizmatchi javob berayotganda hamisha mijozga otelning u yoki bu xizmatini tiqishtirib qolishga harakat qilishi kerak. Masalan, mijoz mehmonxonadan chiqadi va taksi kuta turib shveytsar— (eshik og‘adan) shaharda tushlik qilsa bo‘ladigan eng yaxshi joy haqida so‘raydi. Bunga shveytsar, albatta, eng yaxshi restoran mehmonxonamizda, hech bo‘limganda esa allaqaydadir deb javob bergani ma’qul.

«To‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing» yoki pochta reklamasi — mehmonxonada to‘xtab o‘tgan mijozlarga otelda rejallashtirilayotgan tadbirlar, yangi xizmatlar va hokazolar haqida axborot berish maqsadida pochta orqali xatlar jo‘natishdan ham keng foydalaniladi. Yirik otellar xalqaro turistik yarmarkalarda o‘z stendlarini tashkil etgan holda ishtirok etadilar.

Marketing bo‘limida, tabiiyki, otel joylashgan mintaqa mehmonxona xizmatlari bozorini o‘rganish, raqobatchilarni tadqiq etish (moliyaviy ahvoli, bozordagi ulushi, narx siyosati, ish yuklanmasi, reklama strategiyasi va hokazo) singari «mumtoz» marketing ishlari ham amalga oshiriladi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun bo‘lim turli-tuman manbalardan axborotlar to‘playdi (bosma nashrlar, Internet, so‘rovnomalar o‘tkazish, raqobatchilar otellariga tashrif buyurish va hokazo).

Marketing bo‘limiga shuningdek mehmonxonaning tegishli xizmatlaridan barcha statistika va buxgalteriya axborotlari ham kelib tushadi. Bunda marketing bo‘limida ana shu ma’lumotlarni o‘rganish maqsadi otel ahvolini tahlil qilish, ish yuklanmasini oshirish va barcha manbalardan daromadlarni oshirish maqsadida ishga soliq foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash sanaladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, marketing bo‘limi, har holda, mehmonxonaning eng «maxfiylashtirilgan» bo‘limidir: bo‘limda mavjud bo‘lgan deyarli barcha axborotlar konfreditsial (sir tutiladigan) sanaladi.

Boshqa xizmat ko‘rsatish jahbalarida bo‘lganidek, mehmondo‘stlik sanoatida ham xaridor, unga xizmat ko‘rsatilishi va undan daromad olinishi nuqtai nazaridan, doim xizmat ko‘rsatuvchining diqqat markazida bo‘ladi. Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish hamda ularni bozorda samarali sotish uchun mijozni, uning xaridor sifatidagi xulq-atvorini, talab va ehtiyojlarini, odatlarini bilish kerak. Zero, bu bizga mijozni o‘z tovar va xizmatlarimizni xarid qilishga og‘dirish imkonini beradi.

Xaridorning xulq-atvoriga bir qancha muhim o‘zgaruvchilar ta’sir ko‘rsatadi:

Madaniyat – anglab yetilgan naf, baho va an’analarning umumiyligini yig‘indisi xaridorga ta’sir ko‘rsatishi va muayyan jamiyatda uning xulq-atvorini tartibga soliqi mumkin.

Referent guruhlar – shaxs ijtimoiy muhit ta’sirida bo‘ladigan va o‘zining maqsadlarini namoyon etishi mumkin bo‘lgan guruhlar. Bunday guruhlar real odamlardan yoki badiiy qahramonlardan tashkil topishi mumkin. Guruhda muayyan shaxs o‘z hayotida rioya qiladigan qoidalar va qadriyatlar to‘plami belgilab qo‘yiladi.

Tabaqa – aholining muayyan tabaqasiga mansublik xaridorning xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sanoatlashgan jamiyatda, qoida tariqasida, shaxsning kelib chiqishiga emas, balki ishda, xizmatda egallagan mavqeiga qarab ajratiladigan to‘rt asosiy tabaqa farqlanadi:

- 1) A va B boshqaruvga oid va kasbiy tabaqa;
- 2) V1 nazorat qiluvchi va mahkamaviy tabaqa;
- 3) V2 malakali mehnat bilan shug‘ullanadiganlar tabaqasi;
- 4) G va D malakasiz qo‘l mehnati bilan shug‘ullanadiganlar va ishsizlar tabaqasi.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, tabaqalarga ajratishda shaxsning mehnat jarayonida egallagan mavqeiga qo‘sishimcha tarzda quyidagi tafsilotlarni ham hisobga olish lozim:

- shaxsning daromadlari;
- ma'lumoti;
- atrofidagi qo'shnilarining sifati;
- turar joyining qiymati;
- mol-mulki.

Insonning hayot tsikli – har bir shaxs o‘z hayotining muayyan bosqichida egallagan mavqeni va yashash shart-sharoitlarini aks ettiruvchi uning ehtiyojlari, intilishlari va maqsadlari – xaridorlarning xulk-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir shaxsning rivojlanish darajasi har xil, ammo keng yosh guruhlarini o‘rganish va tahlil qilish mumkin.

Oila xaridorning muayyan mahsulot yoki xizmatni xarid qilish haqidagi qaroriga katta ta’sir ko‘rsatadi. Turistik safar to‘g‘risida so‘z yuritilgan hollarda bu ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayrim qarorlar, masalan, mehnat ta’tilini o‘tkazish uchun joy tanlash haqidagi qarorni butun oila bahamjihat yoki oilaning eng obro‘li a’zolaridan biri – ota yoki ona qabul qiladi. Qoida tariqasida, oilaning qaror qabul qilishiga quyidagi oltita asosiy omil ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

- 1) oila bugun dam olish uchun oldingidan ko‘proq vaqtga ega;
- 2) oila standartlari o‘sgan va aholi orasida yuqori ma'lumotlilar soni oldingidan ko‘proq. Mazkur jarayon yanada ziyrak va talabchan mijozni shakllantiradi;
- 3) soliqlar to‘langanidan keyin ancha katta daromad oladigan oilalar soni ko‘paygan, chunki ularda oilaning ikkala boshlig‘i ham mehnat qiladi va ular oila oldidagi javobgarlikni o‘rtada mutanosib ravishda taqsimlaydi;
- 4) umrning uzunligi oshgan;
- 5) oila a’zolari soni oldingiga qaraganda kamaygani yangi xaridlarga ko‘prok pul sarflash imkonini beradi;
- 6) oila turmush tarzidagi despotizm o‘tmishda qolgan.

Mijozlar xulk-atvorigi tahlil qilishda shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini - shaxs tipini bilish ham asqotishi mumkin. Zero, har bir odam o‘ziga xos fe’l-atvorga, ya’ni u o‘zini qurshagan muhitda namoyon etuvchi ma'lum psixologik fazilatlarga

ega bo‘ladi. Fe’l-atvorining tipiga qarab, xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik odamlar farqlanadi.

Boshqa xulk-atvor tiplarini taklif qiluvchi tadqiqotlar ham mavjud: dominant shaxs, avtonom shaxs, o‘zini himoya qilishga moyil shaxs, moslashuvchan shaxs, rang-barang shaxs, o‘ziga ishongan shaxs, jamoatchi shaxs.

Nima bo‘lganda ham, marketingda shaxs tiplarini tasniflash va shunga qarab ular o‘rtasidagi farqlarni, ularning muayyan mehmonxona xizmatlariga moyilliklarini aniqlash maqsadga muvofikdir. So‘ngra amaliy faoliyatda reklama-kommunikatsiya tadbirlari majmuini tayyorlash va amalga oshirishda odamlar fe’l-atvorini hisobga olish mumkin bo‘ladi.

O‘zini hammadan aqli (bilimdon) fahmlash insonga xos xususiyatlardan biridir. Insonning o‘ziga munosabati (o‘zini qanday ko‘rishi) idealdan (o‘zini qanday ko‘rishni xohlashidan) ancha farq kqiladi. O‘ziga bergen baholarning ma’lum qismidan shaxs bozorda foydalanishga harakat qiladi. SHu yerda mehmonxona uning xohish-istagini anglab etishi, unga va ayni vaqtida o‘ziga ham yordam berishi kerak. Mehmonxona xizmatlari bozorida muhim rol o‘ynaydigan mazkur fe’l-atvor xususiyati marketing uchun ham juda muhim ahamiyatga ega.

Ayni bir tabaqa, madaniyat darajasi va kasbga mansub bo‘lgan shaxslarning turmush tarzi har xil bo‘lishi aniqlangan. SHaxsning turmush tarzi, mohiyat e’tibori bilan, uning yashash uslubini belgilaydi. SHaxsning yashash uslubi esa uning faolligida, qiziqishlari, fikrlari, qilmishlari va moyilliklarida namoyon bo‘ladi. Turmush tarzi – ijtimoiy tabaqa yoki individuallikdan ham kengroq tushuncha. Agar biz shaxs qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligini bilsak, uning xulk-atvorining ko‘pgina jihatlari to‘g‘risida so‘z yuritishimiz mumkin, ammo uni yaxlit shaxs sifatida tasavvur qila olmaymiz. Agar biz uning shaxsiy fazilatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lsak, shaxs ruhiyatining ba’zi bir jihatlari haqida tasavvur hosil qilamiz, ammo uning faolligi, qarashlari va qiziqishlari haqida deyarli hech narsa deya olmaymiz. Turmush tarzi shaxsning atrof muhit bilan o‘zaro aloqalaridan kelib chikib, uning mukammal «portreti»ni chizadi. Turmush tarzini o‘lchash texnikasi psixografika nomi bilan mashhur.

SHu sababli hozirgi turistlarning xaridorlik xulk-atvorini quyidagi asosiy guruhlarga tasniflash mumkin:

- sayohatchi-iztoparlar;
- xayolparast-romantiklar;
- pul xarajat qilishdan lazzatlanadigan odamlar;
- tinib-tinchimas odamlar;
- iktisodchilar – rejali odamlar.

Turistlar xulk-atvorining bunday tahliliga asoslanib, turmush tarzi piramidasini tuzish mumkin. Uning quyi qismida ham daromadli, o‘zini hayotda ishonchli his etmaydigan odamlar turadi. Ulardan keyin o‘ziga ancha ishongan odamlarning uch guruhi keladi. Bular – «namunali xulqli fuqarolar», «yosh bo‘rilar» va «g‘oliblar». Navbatdagi guruhni introvertlar, xususan, egotsentrik odamlar, ijodiy xodimlar tashkil etadi. Piramidaning cho‘qqisidan oqil va dono odamlar o‘rin egallaydi. Bunday odamlar, bir tomondan, qo‘ylgan maqsadlarga erishish imkonini beradigan kuch va qat’iyatni, ikkinchi tomondan esa - introvertlarga xos bo‘lgan ta’sirchanlikni o‘zida mujassamlashtiradi.

7.4. Turizm marketingining zarurligi.

Oxirgi yillarda iqtisodiy o‘zgarishlar va yangi texnikalarning rivojlanishi korxonalarining xizmat va mahsulotlarini marketing shakllarida va korxona boshqaruvlarida ahamiyatli bir o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Kompyuter texnologiyalaridagi rivojlanishlar ba’zi turistik masofalarning oldingi rejaga chiqishiga sabab bo‘ldi. Iste’molchi munosabatlaridagi o‘zgarishlar va boshqa omil har korxona xo‘jayinlariga xaridorlarning kutish vaqtlarining o‘tganini, endi o‘zları borib xaridorlarni izlash va ularni o‘zlariga jalb qilish kerakligini tushina boshladilar. Bu jarayon restoran yoki mehmonxona kabi sayohat byurosi uchun ham taalluqlidir.

Marketing tushunchasining o‘zgarishida faqat 3 ta ahamiyatli omil mavjud.

1. Bajarish uchun faqat ishlab chiarishning kerakli bo‘lgani (talab - takliflardan juda ko‘p bo‘lsa) ishlab chiqarishdan iste’mol yig‘indisiga (talab - taklifdan kam bo‘lganda) o‘tish. Bu vaziyatda, mehmonxona xo‘jaligi sektorida, sotish funktsiyalari birinchi bo‘lmoqda. Bunday paytda bozorning ehtiyojiga qarab ishlab chiqarish va

tarqatish kerak. Boshqa tomondan talabga moslashish qiyin olg'a kelmokda. Bu o'tish marketing tushunchasida yuzaga kelgan rivojlanishni isbotlamoqdadir.

2. Raqobatning rivojlanishi, o'xshash yoki qo'shimcha qiymatli mahsulotlar takdim etgan yoki bir xil kategoriyadagi korxonalar orasida yuzaga kelgan raqobat (mahsulot raqobati) Hilton- SHeraton (Xilton-SHeraton) mehmonxonalar yoki Mas Donald va Watgamburger kabi tezda ovqat tayyorlanadigan korxonalar kabi. O'xshash mahsulotlar taqdim etgan turli sektorlarning korxonalari o'rtaida yuzaga kelgan raqobati: birlashgan mehmonxona zanjirlari, ko'ngilli zanjirlashishlar, ijtimoiy turizm maqsadli sektor, boshqa guruhlantirishlar kabi. Milliy bozordan xalqaro bozorga raqobat. Bu saviyada hatto milliy raqobat dunyo raqobatiga qatnasha olishi uchun o'zini fido eta olish majburiyatidadir. Xorijiy sayyohat bir nechta masofa orasidan tanlash huquqiga egadir: London, Parij, Roma, Bryussel, Madrid, Turkiyadagi Istanbul, Izmir, Antaliya bilan raqobat qiladilar.

3. O'zgarishlar-yangilanishlar: hayotda - yuzaga kelgan yangilanishlar, amaliy qo'llashlar, hayot darajalarining yuksalishi, iste'molchilarining ovqatlanish, tunash va ijobiy ko'nikishlari orasida tanlash imkonini, shansini orttirmoqda.

7.5. Turizm marketingining xususiyatlari

Turizm marketingida industriya korxonalaridagi marketingga o'xshash ba'zi xususiyatlari mavjud. Turizm marketingini boshqa industriya mahsulotlaridan ajratgan xususiyatlari uyidagicha izolanadi:

1. Turizm industriyasida xizmat bozorlanadi va xizmatlarning material xususiyati yo'q holbuki industriya mahsulotlari ideal o'lchan qiladigan yoki deyiladigan vositalardir.

2. Imkonli iste'mol mahsulot va xizmatlardan farqli o'larok 2 xil tartibda bozorlanadi.

a) rasmiy turistik tashkilotlar tomonidan qilingan va to'ridan sotish maqsadi bo'limgan marketing;

b) korxonal artemonidan qilingan va o'z mahsulotlarining sotilishlarini maqsadlagan marketing.

Turizm marketingida industriya marketingiga qaraganda atrof – muhit muammolari e'tiborga olinadi. Dengiz, qum, quyosh, tabiiy go'zalliklarning mavjudligi va boyligi marketingni ta'sirlaydi.

3. Turizm marketingida iste'molchi xizmatga ega bo'lish uchun ishlab chiqarish joyiga ketadi, industriya marketingida esa, mahsulotlar ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga olib kelinadi va yetkaziladi.

4. Turizm marketingida, ishlab chiarish va iste'mol bir xil vaqtida ro'y beradi. Xizmatlar oldin sotib tugatiladi, olbuki industriya marketingida ishlab chiarqilganmahsulotlarsotishga tadim yetqiladi.

5. Turistik korxonalar mavsumiy ishlaydilar. Turistik xizmatchilar chidamli va uzoq muddatli foydalilaniladigan xizmatlaremasdir.

6. Turizm industriyasida marka (etiket) nizomiga bolilik hamdir. Turizm bozorida xaqikqy mahsulot, tortuvchanlik yuqori bo'lgan bir mintqa yoki madaniy markazdir.

7. Turistik xizmatlar uchun yaralgan talab kunlik, kaftalik, oylik va yillik talabdir. Talab yelastikdir.

8. Turizm marketingining asosiy maqsadi iste'molchini mhamnun etishdir.

9. Industriya marketingida maqsad, bir mahsulotning iste'molchiga foyda keltirishidir.

10. Turistik mahsulotlar, asosan xaridorga xizmat shaklida ko'rsatqiladi.

11. Turistik mahsulot sof bir xizmat mahsulotidir, fakat ko'llanilishi bilan farq qiladi.

12. Turistik mahsulotlar aralash mahsulotlardir.

13. Turistik mahsulotlar yiilmaydi. SHu sababli turizm marketingi tavakkaldir.

14. Turistik mahsulotlarbir biridan farli bo'lganligi uchun ularni standartlashtirish imkon yo'dir.

15. Turistik mahsulotlartugallanuvchi mahsulotlardir.

16. Turistik mahsulotlar aralash mahsulot bo'lganligi uchun nazorat funksiyasi juda qiyin yuzaga keladi.

17. Turizm marketingi sanoat marketingiga qaraganda juda tavakkaldir. Biror restoran yoki Mehmonxona xizmatlari sotilmasa bularni boshqa bir joyga tashish imkonи yo‘qdir.

18. Xizmatning sotib olinishi va ko‘llanilishi iste’molchi va ishlab chiqaruvchi o‘rtasida to‘kri munosabatni keltirib. Bu munosabatda quyidagi natijalar paydo bo‘ladi.

a) bu munosabatning yuzaga kelgani vaziyat juda ahamiyatlidir. Biror mehmonxonaning yo‘lagi, biror restoranning ichi kutqilgan xizmatning natijasining olinishini ro‘yobga chiarmoda.

b) munosabatlarda yuori bir shaxsiylik ko‘rqiladi. Mashkkur bir katta mehmonxonaning yoki restoranning mijozи u yerda ismi bilan chakirilishidan yoki xotirlanishidan katta bir sevinch kis etadi Aksi bo‘lsa mushtariy boshqa bu yerga kelmasligi mumkin.

Nazorat savollari

1. Turizmda marketing faoliyatları achondan boshlangan?
2. Mehmonxona marketingi nima?
3. Turistik xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar necha guruhga bo‘linadi?
4. Marketing ta’rifi nima?
5. Turizm marketingining xususiyatlari?
6. Turistik bozor nima?
7. Turizm marketingida talab va taklif omillari anday vazifani bajaradi?

8-MAVZU. TURISTIK FIRMALAR NING BIZNES REJASI.

8.1. Turistik firmalar faoliyatini rivojlantirish asoslari.

8.2. Turistik firmalarda biznes reja loyihalari

8.3. Turistik firmalarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari

8.4. Marketing, moliyalashtirish rejaları va tarkibi.

8.1. Turistik firmalar faoliyatini rivojlantirish asoslari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday tashkilot bir-biri bilan o‘zaro integratsiyalashuvhsiz hech qanday rivojlanishga erisha olmaydi. Masalan, avtomobil ishlab chiqarish kompaniyalari bu kompaniya mahsulotlariga xizmat ko‘rsatadigan xususiy avtoservislarni amaliy

jihatdan qo'llab-quvvatlashi kerak. CHunki, avtoservislar kompaniya tomonidan chiqarilayotgan avtomobilarni ta'mirlash bo'yicha barcha qulayliklarga ega bo'lsa, bu avtomobilarga bo'lgan talab tabiiy ravishda oshib boradi. Xuddi shuningdek, turizm sohasidagi kichik va xususiy biznes sub'ektlari ham bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari turizm sanoatining istiqbolli rivojlanishiga olib keladi. YUqoridagi bo'limlarda aytib o'tilganidek, turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik va xususiy biznes sub'ektlari mos ravishda bevosita va bilvosita firmalarga bo'linadi. Bevosita tadbirkorlik sub'ektlari turizm sohasiga to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lgan har xil turistik sayohatlarni uyushtiruvchi agentliklar, turizm operatorlari, xususiy mehmonxonalar, kempinglar, xususiy sanotoriyalar va pansionatlar, xususiy ijara uylari va umuman olganda, turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi barcha firmalarni o'z ichiga oladi. Bilvosita tadbirkorlik sub'ektlari esa, mamlakatimiz ichki bozorlarida chet ellik turistlar ehtiyojini qondiradigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik va xususiy biznes korxonalarini o'z ichiga oladi.

2. Umuman olganda, turizm sohasini rivojlantirishda biznes reja loyihalarini tashkil etish va takomillashtirishning asosini kichik va xususiy biznes sub'ektlari tashkil etadi. Jahon mamlakatlari va O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda kichik va xususiy korxonalarining ahamiyati va tutgan o'rni xususida oldingi paragraflarda fikr yuritilgan edi. Ushbu bo'limda mamlakatimiz turizmi, shu jumladan, milliy iqtisodiyotimizning rivojlanishida xususiy turistik korxonalarning ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinib, bu borada mavjud muammolarni aniqlab berishni ma'qul topdik. Mamlakatimizda ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar o'z ichiga quyidagi turistik mahsulot turlarini qamrab oladi: trekking, speleoturizm, alpinizm, ekoturizm, ta'lim olish maqsadiga yo'naltirilgan turizm safari, tuyalarda sayohat qilish, dam olish kurortlari va sanotoriyalari, suv turizmi, tarixiy turizm, arxeologik turizm, ov va baliq ovi, gerbariylar va hashoratlar yig'ish, ornitologiya va fotoovchilik, pikniklar, ot turizmi, madaniy turizm, mahalliy xalqlar hayotini o'rganish, folk turizmi, biznes-turizm va suvenirlar ishlab chiqarish turizmi. Ko'rinish

turganidek, mamlakatimizda ko‘rsatilayotgan turistik xizmatlarning turi ancha miqdorni tashkil etadi.

3. Bozor iqtisodiyotining asosiy xarakterli tomoni xususiy turistik firma va tashkilotlarni rivojlantirish orqali o‘z ifodasini topadi. Har qanday sohada bo‘lgani kabi turizm sohasida ham xususiy tarmoqlarni shakllantirish va rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin. Hozirgi kunga kelib, jahon turizm infratuzilmasining 90 foizdan ortiq qismi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri keladi. U o‘z ichiga mehmonxonalar, mehmon uylari, qishloq uylari, turar joy ijarasi, karvonsaroylar (kempinglar), yotoqxonalarda joylashish, restoranlar, avtomobillar ijarasini tashkil qilish va garajlar kabilarni oladi. Bularidan fakat havo yo‘llari mustasnodir. CHunki ularni yevropa, Osiyo, Afrika va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi hukumat organlari bevosita boshqaradilar va bu havo yo‘llari davlat nazorati ostiga olingan. AQSHdagi havo yo‘llari esa xususiy bo‘lib, ularning uchtasi jahondagi eng yirik avialiniyalar hisoblanadi. Turistlarni tashish bilan shug‘ullanadigan temir yo‘llar ham tabiiyki, ko‘pchilik hollarda davlatga tegishli bo‘ladi.

4. Dunyo mamlakatlaridagi bugungi kun yutuqlarining barchasi eng kichik taraqqiyotdan boshlangan. Avval turizm maskanlari rivojlangan, kukumatlar turizm infratuzilmasi uchun ham bevosita vositachilar orkali ham xususiy tarmoqqa bevosita moliyaviy yordam ko‘rsatish orkali fondlar ajrata boshlagan, natijada xususiy tarmoq shunchalik rivojlanib ketdiki, davlatning aralashuviziz ham avialiniyalar kabi yirik masalalarni boshqara oladigan bo‘ldi. Har qanday sanoatda ham (qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish, tog‘-konchilik, neft va gaz qazib olish sanoati va hokazo) mamlakat hukumati xususiy tarmoqni bu sanoatlarning rivojlanishi yuzasidan rag‘batlantirib borishi lozim. Mahsulot rivojlanishining dastlabki bosqichida mashhur turizm maskanlari hukumatdan o‘z mehmonxonalarini mulkiga transport va hokazolar kabi infratuzilmaning boshqa elementlariga egalik huquqi shaklida imtiyoz oladilar va ayni paytda turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida xususiy tarmoqlarga imtiyozlar beriladi.

Turizm sanoatining yuqori darajada rakobatbardosh bo‘lishini hisobga olgan holda, yaxshi marketing muvaffakiyatning asosi ekanligini qayd qilish kerak. Turizm maskanlari turistlarni marketing xizmatisiz o‘ziga jalb qila olmaydi. Hukumat tomonidan ilk bosqichda moliya bilan ta’milanmay turib, turizm maskani jahon turistik supermarketi peshtaxtalaridan o‘rin ololmaydi. SHuning uchun marketing masalalarida hukumatlar o‘z mamlakatini reklama qilish maqsadida turizm Vazirliklari yoki Milliy turizm tashkilotlarini fondlar bilan ta’minlab, ular orqali faoliyat yuritadilar.

8.3. Turistik firmalarning o‘z oldiga ko‘yan maqsad va vazifalari

Ma’lumki, tadbirkorlik faoliyati yuritishning muhim omillaridan biri biznes ishini rejalashtirishdir. Puxta va pishik tuzilgan biznes-reja nafaqat kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi, balki biznesning barqarorligini kafolatlaydi. Biznes-rejaning uch vazifasi Biznes-reja o‘z mohiyatiga ko‘ra, uch muhim vazifani bajaradi. Birinchidan, korxona, firma va kompaniyaning, shu bilan birga, jamoa a’zolarining asosiy maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Ikkinchidan, hisob - kitoblar, sarf va xarajatlar, biznesni tashkil qilish va yuritishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan g‘oya yoki birlamchi loyihaning amaliy harakat dasturi shakliga keltirilgan hujjat. Uchinchidan, biznes-reja moliyalashtirish, kredit resurslaridan foydalanish, shuningdek, sarmoyador sheriklarni hamkorlikka jalb etish.

Strategik modellashtirish

Asoslantirilgan, maqsadli biznes-reja tuzish muayyan vaqt va mablag‘ talab qiladi. CHunki ushbu jarayon bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga olib, moliyaviy hisob-kitob faoliyatini, bundan tashqari, iqtisodiy, sotsiologik tahlillar, marketing va strategik modellashtirish kabi boshqa harakatlarni ham talab qiladi. SHu tufayli biznes-reja tuzish uchun ixtisoslashgan konsalting kompaniyalari yoki mustaqil konsultantlarga murojaat qilish lozim.

Reja tuzish xizmati narxlari

Buyurtma asosida biznes-reja tuzish loyihaning murakkablik darajasiga qarab 200 ming so‘mdan bir necha million so‘mgacha turishi mumkin. Ta’kidlash kerakki,

sizda tug‘ilgan g‘oyani hech kim sizchalik yaxshi bilmaydi. SHu sababli biznes-reja tuzish jarayonida o‘zingiz bevosita ishtirok etishingiz maqsadga muvofik bo‘ladi.

Tajribali mutaxassislarning bildirgan fikriga ko‘ra, biznes-reja qator savollarga javob berishi lozim.

Bular quyidagilar:

- biznes-reja boshlang‘ich g‘oya va loyihasining o‘ziga xosligi nimada;
- unda ko‘zda tutilgan mahsulot yoki xizmatga ehtiyoj sezgan va iste’molchilar pul to‘lashga tayyormi-yo‘qmi;
- ishni boshlash uchun (boshlankich) va rivojlantirish uchun (istiqbolda) qancha mablag‘ kerak bo‘ladi;
- ushbu biznesning keng ayishi va rivojlanish imkoniyatlari qanaqa;
- biznes jarayonida qanday ob’ektiv va sub’ektiv qiyinchiliklar tug‘ilishi mumkin;
- ushbu qiyinchiliklarni eng ishning imkoniyalari qay darajada;
- bozordagi vaziyat: raqobatchilar, hamkorlar, sheriklar ta’siri qay darajada;
- jamoa a’zolari, mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati qanday?

SHuningdek, biznes-rejaga barcha daromad manbalari va xarajatlar, korxona qancha va qachon foyda keltira boshlashi kutilmokda kabi hisob-kitoblarni o‘z ichiga olgan bo‘limlarni kiritish lozim. Xo‘s, siz agar biznes-rejani o‘zingiz tuzmoqchi bo‘lsangiz - unda nimalar aks etishi lozimligi xususida to‘xtalamiz.

Bosh sahifa, mundarija, hajm

Eng asosiysidan boshlang: kompaniyaning nomi, manzili, barcha ta’sischilarning telefon raqami va aloqa manzillari, shuningdek, butun hujjat bo‘yicha mundarijani tuzib chiqing. Biznes-rejaning umumiy hajmi barcha ilovalar bilan birga 30-40 betdan oshmasligi kerak. Bozordagi imkoniyatlari. O‘z mahsulot yoki xizmatingizni kimga sotishingiz va nima sababdan ushbu guruh siz uchun qiziqarli ekanligini tushuntirib bering. Bunda bir necha muhim savollarga javob berish kerak. Masalan: bozordagi talabning hajmi qanday, u qanchalik tez o‘smoqda, o‘sish imkoniyatlari va qanday bo‘lajak xavflar mavjud, siz ularni qanday bartaraf qilmokchisiz?

Biznes-model. Bu bo‘lim barcha daromad manbalarini (mahsulot yoki xizmatni sotish) va kompaniya xarajatlari tarkibini (ish haqi fondi, ijara, ekspluatatsion xarajatlar) batafsil tavsiflab berishi kerak. Barcha daromad va xarajatlarni ko‘rsatganingizga amin bo‘ling. Bundan tashqari, asosiy yetkazib beruvchi va xaridchlarni ham ko‘rsating. Haqikatda, bu bo‘lim bo‘lajak firmaning ishlab chiqarish rejasi hisoblanadi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar va prognozlar

Agarda korxonangiz ishlayotgan bo‘lsa, yillik foyda va zararlar, balans hisoboti va pul mablag‘larining harakatlari haqida bir yillik hisobotni, shuningdek, ilk sarmoyalar qancha tez o‘zini oqlashi ko‘rsatilgan tahlilni ham ilova qiling.

Mablag‘lar manbai va ulardan foydalanish

Agar siz sarmoyadorlardan mablag‘ olishni rejalashtirayotgan bo‘lsangiz, ular albatta, mablag‘lardan qanday foydalanishni rejalashtirayotganligingizni bilishni istashadi. Bu bo‘limda ishni yo‘lga ko‘yish uchun ketadigan xarajatlar: ofis va ish xonalari, yangi uskuna sotib olish, kompaniya logotipi dizayni va hokazolarni ko‘rsatish lozim. Ko‘pchilik tadbirkorlar yangi biznesni boshlash qiymatiga yetarlicha baho berishmaydi. SHu sababli sarmoyadorlarga murojaat qilishdan ilgari bularning barini hisoblab chiqing.

Ilovalar

Biznes-reja fakat korxona asoslarini tasvirlab beradi, xolos. SHu sababli biznes-reja oxirida barcha kerakli hujjatlarni ilova qilish zarur. Bularga rezyumelar, kreditni to‘lashga qodirlik haqida ma’lumotlar, ish samarasini oshirib borish rejasi, mahsulot va xizmatlar bozorining batafsil tahlili, xo‘jalik va boshqa shartnomalar nusxalari, shu jumladan, ijara haqida, bo‘lajak mijozlardan kafolat xatlari, patent va tovar belgisining ro‘yxatdan o‘tganligi haqida guvohnoma, hamkorlik kelishuvlari, firmaning ro‘yxatdan o‘tganligi haqidagi guvohnoma kiradi.

Biznes-rejada nimalar bo‘lmasligi kerak?

- mavjud mahsulot va xizmatlar tavsifi.
- aslida jamoaga kirmaydigan “boshqaruv jamoasi a’zolari”.

- “raqobat yo‘q”, “o‘xshashi yo‘q mahsulot (xizmat)”, “ulkan bozor”, “amalga oshirish oson” kabi iboralar.
- g‘oyangizni har qanday holatda va bahoda sotib olish mumkinligi haqida rejalar.
- asoschilar, boshqaruv kengashi a’zolari haqida soxta tarjimai hol va ma’lumotlar.
- moliyalashtirishga va’da berilgan yoki muhokama qilinmokda kabi iboralar.
- faqat yillar bo‘yicha ko‘rsatilgan moliyaviy prognozlar.
- bozorning yetarlicha chuqur bo‘lmagan taxminiy tahlili.
- chamalab hisoblangan operatsion xarajatlar.
- cheksiz darajada yuqoriga qarab ketgan foydalar haqidagi rejalar.
- ishonchliligi yetarli tekshirilmagan hamkorlar.

Nazorat savollari

1. Biznes reja tuzishda turistik firmalar qanday masadlarni o‘z oldilariga qo‘yadi?
2. Turistik xizmatlar bozorini tadqiq qilishda nimalarga e’tibor berish kerak?
3. Turistik xizmatlarni ishlab chiqish va turmahsulotlar sifatini nazorat qilishda qanday omillar nazarda tutqiladi?
4. O‘zbekiston turizmida xususiy turfirmalarning roli qanday?
5. Marketing, moliyalashtirish rejalari va tarkibi nimalardan iborat?
6. Turizmda biznes reja nima?
7. Turistik firmalarning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
8. Turistik xizmatlarni ishlab chiishda anday reja tuziladi?
9. Xususiy turistik sektorlartomonidan anday reja tuzilishi kerak?

9-MAVZU. TURIZMDA INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.

- 9.1. Turizmda investitsion loyihalarning guruhlarga bo‘linishi.**
- 9.2. Investitsiya manbalari va resurs imkoniyatlari.**
- 9.3. Investitsiya loyihalaring tijoriy ahamiyati.**

9.1. Turizmda investitsion loyihalarning guruhlarga bo‘linishi.

1. Investitsiya loyiha asosi tushunchasidan kelib chiqqan holda turizm investitsiya loyihasi quyidagi shaklda izohlanadi: Mavjud va kelgusidagi turizm talabining bir qismini qarshilash uchun, kirishuvchan va jamiyat foydasiga, iqtisodiyqtamoyilga mos qilib tayyorlangan va formula qilingan iktisodga, turizm bilan bog‘liq mahsulot va xizmat taklif qilish maqsadini tashigan loyihalarga “Turizm investitsiyasi loyihasi” deyiladi. Turizm investitsiya loyihasi asosiga, turizm sohasining xususiyatidan kelib chiqib quyidagi izohlashni keltiramiz: Turizm investitsiyasi loyihasi mavjud turizm potentsialini baholash, mahalliy va xorijiy turistlar talabini qarshilash , yangi tayyorgarlik imkoniyatlarini yaratish, mamlakatga valyuta kirishini ro‘yobga chiqarib milliy rivojlanishga yordam berish, tijoriy joyda foyda olish kabi maqsadlardan bir nechtasini ro‘yobga chiqarish, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarib sotish va turizm bo‘limlarining qurilish va ishlatilishiga qaratilgan loyiha ishlarining yig‘indisidir.

Turizm sektorida investitsiya loyihalari, bevosita turizm muassasasi va korxonalar, boshqa iqtisodiy korxonalardan farqli bo‘lgan ma’lum xususiyatlar bor. Investitsiya beruvchi shaxs yoki korxonalar bilan loyiha tuzuvchi va baho beruvchi mutaxassislar sektorning bosh xususiyatlarini yaqindan bilishlari, investitsiya qarorlariga ratsional harakat qilib holmasdan, eng mos qarorlarga erishishlari kerak.

2. Turistik korxonalarda, xususan investitsiya qilingandan keyin boshqarish jarayonida, barqaror xarajatlar asosiy xarajatlarning 70-80% nisbatigacha ko‘tariladi. Buning asosiy sababi, energiya, ta’mirlash, personal, amortizatsiya, foiz va shunga o‘xshash xarajatlarning mustaqil bo‘lib davomiylik ko‘rsatishidir. Barqaror xarajatlarni yuqori bo‘lishi rentabellik jihatidan ahamiyatli bir raqamdir va foydaga o‘tish nuqtasining ijro va hajmi foydalanish miqdori munosabatini og‘irlashtirmoqda. Biror turistik joy uchun qilingan havo maydonining (aeroportning) kengaytirilishi, yangi bir quruqlik yo‘lining qurilishi ayni vaqtda barcha mintqa transportiga va boshqa sektorlarga foydali bo‘lmoqda.

3. Turizmda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari tekshirilishi uchun oldin investitsiya loyihasi tahlil qilinadi. Undan keyin, rivojlantirish ishlari

yuzaga chiqargan natijalar, ma'lum kriteriyalar jihatidan mezonlashtirish taklili tobe tutiladi. SHunday qilib, investitsiya loyihalarining moliyalashtirilishi tugatilgan loyihalarning tadbiq qilish sohasiga qo'yilish yoki qo'yilmasligi qaror qilingan va investitsiya alternativlaridan qaysisining yoki qaysilarining tanlanishida makro va mikro iqtisodiy yo'nalishdan manfaatdor bo'lishi aniqlangan bo'ladi. Loyihani moliyalashtirish operatsiyasining ob'ektiv ko'z bilan va ma'lum kriteriyalarga asoslanib yuritilishi, beriladigan qarorning to'g'riliqi va manba ta'minlanishida eng samarali sohalarning belgilanishi majburiydir. SHunday ekan loyihani tayyorlagan kishi yoki guruh mavzuga odatlanganligi sababli qilingan xatolarni aynan qabul qilish va yangilash arafasida bo'ladi. Turizmda investitsiya loyihalarining moliyalashtirilishi uchun oldin bozor izlanishlarida aniqlangan to'liklik nisbatlari bilan loyihada qo'llaniladigan narxlarning sog'lom va ishonchli soliqlarga tayanib tayanmasligi nazorat qilinishi kerak. Turizmda investitsiya loyihalari ma'lum bir tovar yoki xizmat ishlab chiqarilishini ta'minlashni ko'zlangan manbalarning iqtisodiy va moliyaviy tomondan ta'minlash ro'yobga chiqarilmog'i kerak.

9.2.Investitsiya manbalari va resurs imkoniyatlari. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning ulkan turistik salohiyati va imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanishga yo'naltirilgan ko'plab dasturiy va loyihaviy tadbirlar tizimi amalga oshirilib barcha mintaqalarda va tarixiy shaharlarda qator yangi Sayyoqlik majmualari barpo etildi, ularning moddiy-texnika bazasi zamon talablariga muvofiq mustahkamlandi. Mamlakatimizning betakror tabiat, rekreatsiya va sog'lomashtirish maskanlari hamda tarixiy, me'morchilik tizimlari va yodgorliklari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan, O'zbekistonning barcha hududlari bo'ylab yuzdan ortiq Sayyoqlik yo'nalishlari tashkil etilgan, bu tarixiy ob'ektlarning 140 tasi BMT- ning YUNESKO tashkiloti tomonidan muhofazaga olingan.

Respublikamizda hozirda bir vaqtning o'zida 50 mingdan ortiq Sayyoohni qabul qila oladigan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglar sayyoohlarga xalqaro standart- lar bo'yicha xizmat ko'rsatmoqda. Sayyoqlik infratuzilmasining barcha tarmog'ini izchil rivojlantirish tadbirlari keng miqyosda amalga oshirilmoqda, yangi-yangi zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari, aeroport va transport

kommunikatsiyalari barpo etilmoqda, yangi sayyohlik marshrutlari ishlab chiqilmoqda, xizmat ko'rsatish tubdan yaxshilanmoqda.

O'tgan davrda sayyohlik infratuzilmasi tubdan qayta qurildi va takomillashtirildi, modernizatsiya qilindi. O'zbekistonda 11ta xalqaro aeroport faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda dunyoning qirqdan ortiq mamlakatiga zamonaviy va qulay «Erybas» va «Boing» samolyotlari muntazam reyslarni amalga oshirib, poyezdlar qatnovi boshlandi. «Toshkent-Samarqand-Qarshi-Toshkent» yo'nalihi buylab yuqori tezlikda harakatlanadigan «Talgo» zamonaviy elektr poyezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda Buxoro shahrigacha yuqori tezlikda xarakatlanish uchun mo'ljallangan temir yo'l tarmoqlarini elektrlashtirish loyihalari amalga oshirilmoqda. Zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha katta xajmdagi ishlar amalga oshirildi, shuningdek, ko'plab yo'lbo'yи turistik infratuzilma ob'ektlari (kempinglar, yonilg'i quyish shaxobchalari, maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari va boshqalar) barpo etildi. Faqatgina 2014 yilda xalqaro turizmning asosiy tuzilmasini rivojlantirish uchun 580 million dollarlik investitsiya yo'naltirildi. Bular mamlakatimizda turizmni rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Mamlakatimizning barcha mintaqalarida turizmni rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmokda. SHunga muvofik mamlakatimizning barcha hududlarini qamrab olgan turistik marshrutlar bo'ylab ko'plab qiziqarli sayohatlar tashkil etilgan. Ular eng qadimiy yodgorliklar va tarixiy-madaniy obidalarga tashrif buyurishga yo'naltirilgan an'anaviy turistik marshrutlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ekologik sayohatlar, eng qadimgi arxeologik topilma joylariga sayohat, qiyinchiliklarni yengib o'tish va ekologik inqiroz rayonlariga ekstremal sayohat, tarixiy-diniy obidalarni ziyorat qilish bilan bog'liq ma'naviy sayohat, havo yo'llari orqali xorijiy mamlakatlarga sayohat, shuningdek, mamlakatimiz bo'ylab sayr-tanishuv, sport-sayyohlik, maqsadli davolanish, dam olish turistik marshrutlari bo'ylab amalga oshirilayotir.

O'zbekistonda poytaxtimizdan 80 kilometr SHimoli-sharqda Toshkent viloyatining Chotqol tog'larida katta qishki turistik zona barpo etilgan bo'lib, bu

yerda «CHimyon oromgoxi» (dengiz satxidan 1400 metr baland), «Beldirsov oromgohi» (1500 metr), «CHorvoq oromgohi» (890 metr) salomatlik markazlari va tog‘ chang‘i sport markazlari dekabr-aprel oylarida dam oluvchilarning qishki sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Dam oluvchilar uchun dengiz satxidan 1500-4100 metr balandlikda uzunligi 300, 500, 800, 1500 va 3000 metr, qiyaligi 25-520 metr bo‘lgan turli tipdagi tog‘ trassalari barpo etilgan. Dam oluvchilar balandlikka osma (kanat) yo‘l, butel ko‘targich, yanada balandroqqa vertolyotlar yordamida chiqishlari mumkin. Qishki turistik zonada 700 dan ziyod o‘rinli mehmonxona va kottejlar, 100 kishiga mo‘ljallangan restoran, tamaddixonalar, diskoteka, sport zallari, sauna va boshka maishiy xizmat ko‘rsatish shohobchalari bor.

Mamlakatimizda turizm sohasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan milliy hunarmandchilikni kayta tiklash va rivojlantirish hamda ularning tovar va mahsulotlarini sotishni tashkil etishni rag‘batlantirishga katta e’tibor berilmokda.

9.3. Investitsiya loyihalaring tijoriy ahamiyati. O‘zbekiston mintaqalarida 2015-2016 yillarda turizm sohasini rivojlantirish dasturiga muvofik, 254 ta loyihami amalga oshirishga 186,4 milliard so‘mlik investitsiya ajratilgan. Unga muvofiq 3659 o‘rinli 103 ta mehmonxona, motel, uy-mehmonxona, o‘tov lagerlarini ishga tushirish, 45 ta turizm infratuzilma ob’ektlarini modernizatsiyalash va 36 ta yangi ob’ektni ishga tushirish, 46 ta dam olish zonasini, turistik komplekslar, hunarmandchilik markazlari, muzeylar, doimiy ishlaydigan ekspozitsiyalarini barpo etish, 2300 ta yangi ish o‘rni yaratish belgilangan.

Hozirgi paytda Vazirlar Mahkamasining topshirig‘iga muvofiq, «O‘zbekturizm» Milliy kompaniyasi va Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi birgalikda «O‘zbekistonda 2015-2019 yillarda ekoturistik salohiyatni mustahkamlash va ekologik turizmni rivojlantirish bo‘yicha xarakat rejasи» ning loyihasini ishlab chiqdilar va uni Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritdilar.

Turizm sohasi bo‘yicha AQSH lik taniqli mutaxassis, G‘arbiy Nyu-York mehmonxonalarini uyushmasi Prezidenti Teodor Xollikvist turistik xizmat ko‘rsatishda firmalarning kelajagi porloq bo‘lishini ta’minlashni birlik, professionalizm, kulollik,

tadbirkorlik, do'stlik va jur'at kabi xislatlar belgilashini aytgan edi. Bularga muhim qo'shimcha sifatida yana turizm bozorining yangi imkoniyatlaridan o'z vaqtida foydalanishga erishishni ko'rsatish mumkin. Bunda turistik mahsulot va xizmatlardan foydalanishni osonlashtirish, hammabop qilish va arzonlashtirish, xizmatlar qulayligi va yuqori sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarishni ta'minlash, aniq maqsadlarni ko'zlab mamlakatimiz bo'ylab ko'plab tanishtirish tadbirlarini o'tkazish, tegishli turizm bozorlariga tanlab kirish sayyohlarni mamlakatimizga keng jalb qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Istiqbolda mamlakat turizmini eng yaxshi xalqaro andozalar darajasida tashkil etish, yurtimizning ulkan sayyohlik salohiyati, imkoniyati, nufuzini yanada mustahkamlash, bu borada zamonaviy elektron texnologiyalarni keng joriy etish, shu jumladan, sayohatlar to'g'risidagi barcha axborotlar bilan tanishish imkoniyatini yaratish, O'zbekiston turizmi to'g'risida doimiy yangilanib boriladigan elektron atlasni ishlab chiqish va undan keng foydalanish, ularni viza, avia hamda temir yo'l chiptalarini olishda, sayohatlar va mehmonxonalarni bron qilishda keng ko'llash, mavjud ulkan salohiyat va imkoniyatlarimizni keng miqyosda faol reklama qilish bilan shug'ullanadigan ko'plab axborot markazlarini tashkil etish, chet ellarda turizm ofislarini tashkil etish, boshqarish amaliyotini esa bozor talablari va xizmatlarni yaxshilashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston Sayyohlik sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lib, ulardan samarali foydalanish asosida turizm industriyasini jadal rivojlanmoqda. Bular milliy itstisodiyotning taraqqiyotiga qushilgan munosib hissa bo'lib, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholining hayot darajasi va sifatini izchil oshirishga xizmat qilmoqda

Nazorat savollari

- 1.Investitsiya loyiha asosi tushunchasidan kelib chiqqan holda turizm investitsiya loyihasi qanday shaklda izohlanadi?
- 2.O'zbekistonning barcha hududlari bo'ylab nechadan ortiq sayyohlik yo'nalishlari tashkil etilgan?

3.Turizmda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari tekshirilishi uchun oldin nimalar tahlil qilinadi?

4.O‘zbekiston mintaqalarida 2015-2016 yillarda turizm sohasini rivojlantirish dasturiga muvofiq nechta loyiha amalga oshirilgan?

10-MAVZU. TURISTIK KORXONALARNI LITSENZIYALASH.

10.1.Turizmda litsenziya olish uchun takdim qilinadigan hujjatlar va ularning mazmuni.

10.2. Turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarga litsenziya berish tartiblari.

10.3. Germaniya va Angliya mamlakatlarida litsenziya berish tartiblari.

10.4. Turfirmalarning litsenziyaga amal qilish shartlari.

1. Turistik firmaning turizm sohasidagi faoliyatining zaruriy sharti - unda litsenziya (ruxsatnoma)ning mavjudligidir. Turizm faoliyatini litsenziyalash turizmni tartibga soliqning muhim bo‘g‘inidir. O‘zbekistonda turizmni litsenziyalash bir necha yillar mobaynida amalga oshirilib kelinmokda. Bu sohadagi ishni tashkil etishda ham muayyan tajriba to‘plangan. 1994 yilda O‘zbekiston Respublikasida turizm birinchi marotaba litsenziyalanadigan faoliyat turlariga kiritilgan edi. SHu jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 19 apreldagi 215- sonli qarori bilan litsenziyalanishi lozim bo‘lgan ba’zi bir faoliyat turlari joriy etildi (shu jumladan, turizm sohasida ham) va litsenziyalarni berilishini rasmiylashtirishga doir umumiyliz nizom ham tasdiqlandi.

Litsenziyalash usullarini sinovdan o‘tkazib borish, Qonunchilik bazasining o‘zgarishi, taklil qilishva hal etishni talab qiladigan muammolarni vujudga kelishi bilan 1998 yili “O‘zbekiston Respublikasida turizm faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ro‘yxatdan o‘tish va litsenziya berish qoidasi” yangi tahriri kuchga kiritildi. Ushbu qoida mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qa’tiy nazar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan va turizm sohasiga amaldagi Qonunchilikka muvofiq faoliyat yuritayotgan korxona, birlashma va tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularga litsenziya berish tartibini belgilab beradi. YAngi bosqichda turizm sohasida faoliyat ko‘rsatadigan ishtirokchilarga talab kuchaytirildi. SHuningdek litsenziyalarning bekor qilinishini (chakirib olinishini) ko‘zda tutuvchi holatlar belgilandi.

2. Turizm sohasini litsenziyalashga doir faoliyatni tashkillashtirilishini taklil qilishnatijasida jahon tajribasi va Butunjahon Turistik Tashkilotining ba'zi bir tavsiyalaridan kelib chikkan holda respublikamizda turizmni davlat tomonidan tartibga solinishi yuzasidan ba'zi bir mulohazalarni bildirish maqsadga muvofikdir. Jumladan, turizmda faoliyat sohasi sifatida uchta tomon ishtirok etadi:

1. Turistik mahsulot va xizmatlarni iste'mol qiluvchi turistlar;

2. Turistik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi turistik firmalar (ushbu holatda turistlarga xizmat ko'rsatishga u yoki bu munosabatda bo'lgan barcha tashkilotlar);

3. Turizm faoliyatini litsenziyalash bilan shug'ullanuvchi shuningdek tegishli ma'muriy - huquqiy va boshqa vazifalarni amalga oshiruvchi (pasport, viza, chegara, bojxona, sanitariya-epidemiologiya va h.k.) davlat idoralari.

Ushbu uchta tomonlar: "Turistlar" - "Turistik firmalar" - "Davlat" o'zaro munosabatlarida bir "Uchburchak"ni tashkil etadilar. Jahoning har qanday davlatida ushbu "Uchburchak" har bo'g'inining, ya'ni "Turistlar-turistik firmalari", "turistik firmalar-davlat", "turist - davlat" o'zaro munosabatlari tegishli Qonunchilik bilan tartibga solinadi. Masalan, O'zbekistonda bular jumlasiga "Korxonalar to'g'risida", "Iste'molchilarining huquqlarini himoyalash to'g'risida" va boshqa Qonunlarni kiritish mumkin. Asta-sekinlik bilan ushbu Qonunchilik yanada aniqlashtirilib va to'ldirilib borilmokda. Sof holatda yuqorida qayd etilgan Qonunlar o'zaro munosabatlarining har bir elementi huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinishi lozim. Lekin, qancha davlat bo'lsa, shuncha o'ziga xos jihatlar ham mavjuddir. Amalda, har bir davlatda qayd etilgan "uchburchak" ning u yoki bu tomoniga alohida e'tibor qaratgan holda turizmni tartibga soliq yuzasidan o'z yondashuvlari ishlab chiqilgan.

3. Bir qator mamlakatlarda (masalan, Angliya, Germaniya) "litsenziyalash" atamasi Qonunchilikda mavjud emas. Turistik firmalarga ularning mijozlar oldidagi moliyaviy fan boshqa masalalar, rahbarlar va xodimlarni kasbiy tayyorlash, turistik firmalar hamda turistlarning o'zini sug'urtalash yuzasidan javobgarligi bo'yicha qo'yilayotgan davlat talablari odatda juda qat'iy bo'ladi. Ushbu mamlakatlarda, asosiy e'tibor "turistik firma" "uchburchagi" yo'nalishini tartibga soliqga qaratiladi

va iste'molchi-turistlarning huquqlarini eng yuqori darajada himoyalash va turistik firmalarning turistik mahsuloti va boshqa xizmatlar sifatini muntazam ravishda oshirib borishga yo'naltiriladi.

4. Hozirgi vaqtda o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan O'zbekistonda nafaqat iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda, shu bilan birga jamiyatning o'zi ham o'zgarishlar jarayonini boshidan kechiryapti. Ushbu shart-sharoitda 1999 yil 20 avgustda "Turizm to'g'risida" gi Qonunning qabul qilinganligi alohida ahamiyatga egadir. Unga ko'ra mazkur Qonunning 8-moddasida turistik faoliyatni litsenziyalash turistik faoliyat litsenziya asosida amalga oshiriladi deyilgan. Turistik faoliyatni litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi deb yozilgan. Misol uchun, Butunjahon turistik tashkilotida bu borada dunyoning turli xil mamlakatlarida turizm sohasini tartibga soliq bo'yicha ishlab chiqilgan Qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarga doir juda boy axborot to'plangan. Iste'molchini turizm mahsuloti sifatini belgilovchi tartib va qoida larning muayyan majmuuni ko'llash orqali himoya qilish mumkin. "Bu esa, muayyan natijalarga erishish yo'llarini belgilash bilan cheklanib qolmay, ayni paytda ularga erishish majburiyatini ham zimmasiga yuklaydi.

O'zbekistonda turistik faoliyatni litsenziyalash tartiblari turistik firmanın turizm sohasidagi faoliyatining zaruriy sharti - unda litsenziya (ruxsatnoma)ning mavjudligidir. Turizm faoliyatini litsenziyalash turizmni tartibga soliqning muhimbo'kinidir. O'zbekistonda turizmni litsenziyalash bir necha yillar mobaynida amalga oshirilib kelinmokda. Bu sohadagi ishni tashkil etishda ham muayyan tajriba to'plangan. 1994 yilda O'zbekiston Respublikasida turizm birinchi marotaba litsenziyalanadigan faoliyat turlariga kiritilgan edi. SHu jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 19 apreldagi 215-sonli Qarori bilan litsenziyalanishi lozim bo'lgan ba'zi bir faoliyat turlari joriy etildi (shu jumladan, turizm sohasida ham) va litsenziyalarni berilishini rasmiylashtirishga doir umumiyliz nizom ham tasdiklandi. Litsenziyalash usullarini sinovdan o'tkazib borish, Qonunchilik bazasining o'zgarishi, tahlil qilishva hal etishni talab qiladigan muammolarning vujudga kelishi bilan 1998 yili "O'zbekiston Respublikasida turizm faoliyati bilan shug'ullanish

uchun ro‘yxatdan o‘tish va litsenziya berish qoidasi” yangi tahriri kuchga kiritildi. Ushbu qoida mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qa’tiy nazar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan va turizm sohasiga amaldagi Qonunchilikka muvofiq faoliyat yuritayotgan korxona, birlashma va tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularga litsenziya berish tartibini belgilab beradi. YAngi bosqichdan turizm sohasida faoliyat ko‘rsatadigan ishtirokchilariga talab kuchaytirildi. SHuningdek litsenziyalarning bekor qilinishini (chakirib olinishini) ko‘zda tutuvchi holatlar belgiland. Turizm faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi komissiya qarori asosida beriladi. Turizm faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya 5 yil muddatga beriladi. Litsenziya berilganligi uchun respublikadagi eng kam ish haqining 25 barobari miqdorida litsenziya yig‘imi to‘lanadi. Litsenziya yig‘imi to‘lovidan kelib tushadigan mablag‘lar “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasi huzuridagi turizmni rivojlantirish markazlashtirilgan fondiga yo‘naltiriladi. Hozirgi vaqtida o‘tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan O‘zbekistonda nafaqat iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda, shu bilan birga jamiyatning o‘zi ham o‘zgarishlar jarayonini boshidan kechirayapti. Ushbu shart-sharoitda 1999 yil 20 avgustda “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinganligi alohida ahamiyatga egadir. Unga ko‘ra mazkur Qonunning 8-moddasida turistik faoliyatni litsenziyalash turistik faoliyat litsenziya asosida amalga oshiriladi deyilgan. Turistik faoliyatni litsenziyalash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi deb yozilgan. Misol uchun, Butunjahon turistik tashkilotida bu borada dunyoning turli xil mamlakatlarida turizm sohasini tartibga soliq bo‘yicha ishlab chiqilgan Qonunchilik va boshqa me’yoriy hujjalarga doir juda boy axborot to‘plangan. Iste’molchini turizm mahsuloti sifatini belgilovchi tartib va qoidalarning muayyan majmuini qo‘llash orqali himoya qilish mumkin. “Bu esa, muayyan natijalarga erishish yo‘llarini belgilash bilan cheklanib qolmay, ayni paytda ularga erishish majburiyatini ham zimmaga yuklaydi. YUqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, kelajakda O‘zbekiston turistik mahsulotining sifati ko‘p hollarda Xususiy Turistik Tashkilotlar uyushmasi faol va tashkiliy jihatdan uyushgan

faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi degan xulosaga kelish mumkin. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil topishi va rivojlanishining dastlabki bosqichida ko‘pchilik kishilar bir vaqtning o‘zida turoperator va turagent faoliyatini farqlay olmasdan ushbu faoliyat bilan shug‘ullana boshlashi albatta maqsadga muvofik emas edi. Hozirgi bosqichda ushbu faoliyat sohasidagi tadqiqotlar va amaliyotdan kelib chiqqan holda Butun Jahon Turistik Tashkilotining “Turizm sohasidagi faoliyat turlarini xalqaro tasniflash andozalari”ga muvofik holda ushbu sohadagi faoliyat turlarini alohida ko‘rsatgan holda umumiy litsenziyalash tizimini joriy etish zarurligi maqsadga muvofikdir.

10.3. Germaniya va Angliya mamlakatlariida litsenziya berish tartiblari.

SHimoliy yevropaning aksariyat davlatlarida turizm faoliyati bilan erkin shug‘ullanish amaliyoti mavjud. Jumladan, ularda turistlarga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi turoperatorlar va turagentlar faoliyat ko‘rsatuvchi tizim shakllangan. Ammo o‘tish davri bilan bog‘liq murakkablik va avvalombor, turizm bozori yetarlicha rivojlanmaganligini hisobga olgan holda hozircha turizmni tartibga soliq va turistik mahsulot sifatini oshirishning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan litsenziyalash tartibini respublikamizda qo‘llash maqsadga muvofikdir. YUqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, litsenziya berish shartlarini qiyinlashtirishga ehtiyoj yo‘q deb hisoblaymiz. Ayni paytda, turistik firmalarining turistik mahsulot sifati uchun javobgarligini kuchaytirish yuqori samara berishi mumkin. Ko‘pchilik mamlakatlarda, turagent va turoperator faoliyatini tartibga soliq darajasida farqlar mavjud. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarning turizm amaliyotida turoperatorlik va turagentlik faoliyatni litsenziyalashda litsenziya yikimi miqdori, tavakkalchiliklarni sug‘urtalash tizimi, ushbu sohada muayyan ma’lumotga ega bo‘lishga doir talablarda farqlanish mavjud. Ushbu faoliyat turlarining belgilangan farqlari, maqsad va vazifalari, mijoz bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibidan kelib chiqqan holda ushbu korxonalarni litsenziyalashga ham turlicha uslubiy yondashuv amalga oshiriladi.

Turizm sohasini litsenziyalashga doir faoliyatni tashkillashtirilishini tahlil qilishnatijasida jahon tajribasi va Butunjahon Turistik Tashkilotining ba’zi bir tavsiyalaridan kelib chiqqan holda turizmni davlat tomonidan tartibga solinishi

yuzasidan ba’zi bir mulokazalarni bildirish maqsadga muvofikdir. Ko‘pchilik xorijiy mamlakatlarda asosiy e’tibor “turistik firma-davlat” munosabatlarini tartibga soliqga yo‘naltirilgan. Bu hol, avvalombor, turistik faoliyatni litsenziyalash shaklini, ya’ni davlatning yuridik shaxslariga berilgan muayyan ruxsatnomasi bilan amalgam oshiriladi. Lekin bundan litsenziya berish jarayonining alohida ahamiyat kasb etmaydi (ushbu ruxsatnomani olish qiyinligi va osonligidagan qa’tiy nazar). Turizm faoliyatining litsenziyada ko‘rsatilgan va ko‘rsatilmagan boshqa shartlarini to‘lik bajarilishini nazorat qilib boradigan davlat mexanizmining rivojlanganligi va samarali faoliyat yuritishi va tegishli hollarda o‘rnatilgan tartibga rioya qilinishini ta’minlash uchun zaruriy chora tadbirlarni ko‘rishi muhimahamiyatga egadir. Zero, bunday mexanizm mavjud bo‘lmagan holda litsenziyalash turistik mahsulot sifati ustidan nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Bir qator mamlakatlarda (masalan, Angliya, Germaniya) “litsenziyalash” atamasi qonunchilikda mavjud emas. Turistik firmalarga ularning mijozlar oldidagi moliyaviy fan boshqa masalalar, rahbarlar va xodimlarni kasbiy tayyorlash, turistik firmalar hamda turistlarning o‘zini sug‘urtalash yuzasidan javobgarligi bo‘yicha qo‘yilayotgan davlat talablari odatda juda qa’tiy bo‘ladi. Ushbu mamlakatlarda, asosiy e’tibor “turistik firma” “uchburchagi” yo‘nalishni tartibga soliqga qaratiladi va iste’molchi-turistlarning huquqlarini eng yuqori darajada himoyalash va turistik firmalarning turistik mahsuloti va boshqa xizmatlar sifatini muntazam ravishda oshirib borishga yo‘naltiriladi. Sifatsiz turistik mahsulot iste’mol qilinganda yoki alohida xizmatlar qonikarsiz bajarilgan holatlarda, norozi turistga tur qiymatining ancha qismi tovon tarzida to‘lanadi. Fikrimizga ko‘ra, turizmni tartibga soliqning xuddi shu shakllari, turistik mahsuloti umumiy sifatini oshirish va turistlar huquq va manfaatlarini himoyalash, shuningdek, turizm sohasini umuman tartibga soliqning eng samarali vositalaridan biridir. Turistik mahsulot sifatini oshirish maqsadida mazkur qoidalarning joriy etilishi, turizm bozorini muayyan darajada rivojlantirishni, mukammal Qonunchilik, birinchi navbatda ushbu sohada me’yorga keltirilgan andozalar va turistlarga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa aniq belgilab qo‘yilgan qoida lar mavjud bo‘lishini talab etadi.

Nazorat savollari

1. Turistik litsenziya nima?
2. O‘zbekistonda turistik litsenziya berish qachondan boshlangan?
3. Turistik narxlarni litsenziyalash qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. 1998 yilda O‘zbekistonda qanday qoida qabul qilindi?
5. Turizm sohasini litsenziyalashda BTT qoidalari nimalardan iborat?
6. Germaniyada turistik litsenziyalash usullari qanday?
7. Buyuk Britaniyada litsenziyalash usullari qanday?
8. Qanday hollarda turistik korxonalar litsenziyadan mahrum etiladi?
9. Hozirgi kunda respublikamizda qancha tashkilot turistik litsenziyaga ega?
10. Litsenziya berishda «O‘zbekturizm» MKsi tomonidan qanday shartlar belgilanadi?

11-MAVZU. TURIZM SOHASIDA AGROTURIZM XIZMATLARINING O‘RNI

Turizm sohasida agroturizmning o‘ziga xos jihatlari. O‘zbekistonning turistik resurslari. Turizm (agroturizm) da mehmonxona xizmatlarining xususiyatlari. Turizm (agroturizm) sohasida turistlarni jalb qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Turizmni rivojlantirishda hukumat va xususiy sektorlarning roli. Mamlakatni modernizatsiya qilishda va mehmonxona xizmatlari va turistik faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turistik biznesni amalga oshirishni tashkil qiladigan asoslar: sarmoya, texnologiya, kadrlar va turistik resurslar.

12- MAVZU. TURIZM SOHASIDA BOSHQARUV VA REJALASHTIRISH FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

Turizm (agroturizm) sohasida boshqaruv va rejorashtirish. Turizm (agroturizm) sohasida rejorashtirish jarayonlari. Turizm (agroturizm) sohasida biznesni boshqarish, mehmondo‘stlik xizmatlarini sifatini yuksaltirish va salmog‘ini oshirishda rejorashtirish. Turizm (agroturizm) sohasida xizmatlarni amalga oshirishda yuqori samaradorlikka erishishni ko‘zlash.

13- MAVZU. TURIZM XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

